

Oltin Yurakli Avtobola (Cho'pchak Qissa)

Sehrli sartareshxona

Ajdodlarimizning donishmandligidan faxrlanib yuruvchi o'qimishli bolalar yaxshi bilishadi Sherdor madrasasini tiklashga o'n ikki yil, dunyoda qiyosi yo'q Oqsaroyini bitkazishga qariyb chorak asr vaqt sarflangan. Peshtoqiga "Qaychi xola" deb yozib qo'yilgan yog'och do'koncha esa, shahrimizning qoq o'rtasida bir kechadayoq paydo bo'ldi-qoldi.

Xo'sh, nima qipti, dersiz. Gap shundaki, o'sha do'koncha qurilmaganda, ushbu qissa ham bitilmagan bo'lardi.

Xullas, usta Toshmat degan tinib-tinchimagur chol nafaqaga chiqqanidan so'ng uyda uymalanishdan zerikib, bolalar uchun sartareshxona ochdi. Balki, bunaqa maxsus sartareshxona jahonda yakkayu yagonadir-u, olamshumul yangilik yaratganidan cholning o'zi ham bexabar yurgandir.

Sartareshxona bolalarniki bo'lishiga qaramay, u yerdan na qiy-chuv, na araz-duraz, na yig'i-sig'i eshitilar, tabiiyki bu hol o'tkinchilarni taajjubga solar edi. Hatto ilgarilari ustaning qo'lidagi mo'ykesarni temir yalmog'iz deb o'ylaydigan kenja o'g'lim ham endi miq etmay o'tirib soch oldiradigan bo'ldi.

Buning sababi bor. Usta Toshmat juda ko'p ertaklarni bilar, "Avazxon", "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li" singari dostonlarni yoddan aytar, "mish-mish" gaplarga o'xshab ketuvchi sirli voqealarni hayajonli tarzda hikoya qilib berardi. Bunaqa vaqtda bolalardan tortib, mittivoylarni yetaklab kelgan ota-onalargacha navbat kutib zerikishmas, ayrimlar soch oldirib bo'lganidan keyin ham usta buvaning so'zi tugashini poylab, ketolmay turishardi.

Buniyam o'sha sartareshdan eshitganman. Bo'lib o'tgan ishlarga oz-moz qo'shib-chatib gapirganmi, Marchello bilan Gabriella ertagiga qiyosan o'zi ichidan to'qiganmi, aniq bir narsa deyishim qiyin. Umuman, buning unchalik ahamiyati ham yo'q. Biz uchun muhimi shuki, bu juda qiziq voqea.

* * *

Shahrimiz o'zining ulug'vorligi bilan emas, ko'rkam va sarishtaligi tufayli og'izga tushgan. Bir-birini shaxmat kataklariday kesib o'tuvchi ravon ko'chalari ulkan chinorlarning tarvaqaylagan shoxlari ostiga ko'milib yotadi. Markazdagi o'rmonsimon boqqa kirsangiz, yurtimizda o'stiriladigan gullardan istalgan namunani topishingiz mumkin. Bog' yonidan oqib o'tadigan soyning uloqchi suvi saratonda ham tishingizni qaqshatadi. Shahar shimol yoqdan yaydoq dashtga borib taqalsa, g'arbi tog' etaklariga, sharq tarafi chuchmoma-yu yakkam-dukkam giyohlarga o'sadigan sertosh adirlarga tutashgan. Janubiy qismini esa o'rkachdor yaylovlar, buloqlarga boy chakalakzorlar tashkil etadi.

Adirga yondosh tomondagi chakalakzor tepasidan o'tuvchi soyning shahobchasi hisoblanmish kichik anhor yoqasida baland tosh devor bilan qurshalgan mo'jazgina qo'rg'on bor. Bu qo'rg'on bir davrlarda paxtachi boyning chorbog'i bo'lgan ekan.

Aytishlaricha, paxtachi boy hokimiyat "qizillar" qo'liga o'tgandan keyin bor bisotini tuyalarga ortibdi-yu, to'ng'ich xotini va bolalarini ergashtirib, uzoq yurtga bosh olib ketibdi. Kenja xotini qattiq shamollashdan betob yotgani sababli olti oylik o'g'li Bekxo'ja bilan shaharda qolibdi. Boyning paxta zavodi, dang'illama uylari, qolgan-qutgan mol-mulki davlat tomonidan musodara qilingan bo'lsa-da, shahar chetidagi kichik chorbog'i kenja xotiniga xatlab berilibdi.

Bekxo'janing onasi savodxon ayol bo'lib, hamma uni Otin bibi deb atardi. Otin bibi o'g'lini bilimdon, tadbirkor, so'zamol qilib tarbiyalay boshladi. Bekxo'ja yoshi yetib maktabga tortilgach, dunyoviy ilmlarni egallashda ham zo'r ishtiyoq ko'rsatib, e'tibor qozondi.

Lekin, hayotda tasodif ko'p. Bekxo'ja o'n to'rt yoshga qadam qo'yganida to'satdan shol bo'lib qoldi. Shundan keyin G'ani zargar degan tog'asi uni tarbiyasiga olib, tirikchilikka yarab turar degan maqsadda o'z kasbini o'rgata boshladi. Zehni o'tkir Bekxo'ja to'rt besh yildayoq zargarlikda tog'asidan ham o'tib ketdi, yasagan taqinchoqlarining ta'rifi butun shaharga yoyildi.

O'g'lining ishlari rivoj topayotganidan Otin bibi qanchalar quvonmasin, baribir ko'nglining bir chekkasi doimo xijil yurardi.

Ayniqsa, qarindosh-urug'lari to'y-hashamga aytganida, kelin ko'rdiga borganida mung'ayib qolar edi.

Keyinchalik bir dardi ikki bo'ldi. Bekxo'ja tunlari oldiga keladigan qandaydir shubhali kimsalar bilan gohida sahargacha gurunglashadigan qiliq chiqardi.

Otin bibi sil kasalligidan vafot etgach, shahar chetidagi osoyishta chorbog' Ko'rshapalak laqabli mashhur qulfbuzar to'dasining bosh maslahatxonasiga, paxtachi boy qurdirdigan sirli yerto'lalar o'g'irlangan mol saqlanadigan omborlarga aylandi.

Ishlar yurishib turgan bir pallada G'ani zargar yashirincha tilla sotayotib qo'lga tushib qoldi. Qariyaning salgina tildan toyishi butun to'daning fosh etilishi degan gap edi. Shundayin ham bir cho'qib, yetti alanglab yashayotgan Bekxo'ja bu voqeadan so'ng butkul oromini yo'qotdi. Qanday bo'lmasin, G'ani zargarni qamoqdan qutqarib olish lozim edi. Lekin, qanday qilib? Qaysi kalit bilan?

Kalitning daragi mutlaqo kutilmagan joydan chiqdi. Bekxo'ja bir kuni yangi gazetlarni apil-tapil ko'zdan kechirayotib sobiq sinfdoshi, endilikda dovrug'dor olim Kamol Kamtariy haqidagi maqolani o'qib qoldi-yu, yarasiga malham topilgandek sevinib ketdi.

Avvalroq esimga kelmaganini qarang-a, deya qo'llarini bir-biriga ishqab qo'ydi u. Mana, kalitniyam topdik hisob. Endi bahosini insof bilan chamalab ko'raylik.

Pismiq zargar

Kamol navbatdagi tabriknomani ochib, odatiga ko'ra oldin imzoga ko'z tashladi: "Bekxo'ja". Kim bo'ldi bu?

Uzoq o'ylanib o'tirmay, xatni o'qiy boshladi.

"Azizginam Kamol! Texnika fanlari nomzodi unvonini olganing bilan chin yurakdan tabriklayman. Martabang bundan ham ulug' bo'laversin, biz faxrlanib yuraveraylik.

Ko'rishmaganimizgayam ancha bo'ldi. Dam olish kuni qittak fursat topib, biz g'ariblardan hol-ahvol so'rab o'tsang, boshim osmonga yetardi. Harqalay, chorbog'imni unutmagandirsan?

Hozircha xayr. Seni sog'inib kutuvchi:

Bekxo'ja".

Xatni o'qib bo'lib, muallifning kimligi nihoyat yodiga tushdi-yu, lov etib yuziga qon tepdi. Kamol yoshligida dimog'dor Bekxo'ja bilan hech qachon yaqin tutinmagandi. Shunga qaramay, nogiron bo'lib qolgan maktabdoshini kiroyi odamgarchilik yuzasidan yo'qlab qo'yish biron marta esiga kelmaganidan uyalib ketdi, do'ngalak peshanasini kaltabaqay barmoqlariga tiraganicha xayolga cho'mdi...

Kamol muallimlardan kamdan-kam tanbeh eshitardi. O'sha kuni tarix o'qituvchisi uni tergap qoldi:

Oxirgi vaqtlarda susayib ketyapsan. O'z yurtining tarixini bilmaslik... bu endi...

Bunga matematika bo'lsa bas.

Sendan so'rayotganim yo'q, Bekxo'ja! Hm... xullas, endi yosh bola emassan, Kamol. Muqannani Torobiy bilan adashtirib o'tiribsan-a.

Qo'yib bersangiz, bu afandim Jaloliddinni Qo'qon xoni bo'lgan deyishdanam toymaydi.

Bekxo'ja! Jim tur deypman!

To'g'ri-da, baribir tiyilmadi Bekxo'ja. Kallavaramligini betiga aytib qo'yish kerak.

Endi Kamolning ham sabri tugadi.

Og'zingni yumib o'tir, sarqit!

Dars tugab, uyga qaytishayotgan chog'da ortdan Bekxo'janing: "Ho', yalangoyoq!" degan tovushi eshitildi. Bu gapning go'yo unga aloqasi yo'qdek, indamay yo'lida davom etayotgan Kamol, "yurak bormi o'zi", deya ikkinchi marta murojaat qilingandan keyin nomus kuchi to'xtab, ortga o'girildi. Bekxo'ja kela solib, hech bir "muqaddima"siz uning ko'kragiga kalla qo'ydi. Kutilmagan zarbadan yumalab tushgan Kamol o'zini o'nlab ulgurmay, Bekxo'ja uning ustiga minib olib, ayovsiz do'pposlay ketdi...

Oynavand ayvon ichida zirillab yurgan chumakari "chars-churs" qilganicha o'zini u derazadan bu derazaga ura boshladi.

Kallavaram deb anavini aytsa bo'ladi, qo'lidagi xatni biqqi kursi yonidagi tokchaga qo'yarkan, ariga tikilib miyig'ida jilmaydi Kamol. Qaytay desa, o'zi kelgan yo'lni o'zi topolmay sarson.

* * *

Bekxo'janing tap-taqir boshga sholchado'ppi kiygan shaxsiy xizmatchisi dasturxonni bir zumda tansiq ne'matlarga to'ldirib tashladi. Sobiq sinfdoshlarning suhbatida tezda qizib ketdi.

Zargarning mehmonxonasi aralash mollar do'konini eslatardi. Eshikning chap biqinida tizilgan past-baland naqshindor javonlar tokchasi chinni-yu billur, kumush-u tilla idish-buyumlar marjondor qandil nurini qaytarib, ko'zni qamashtirayotgandi. Oyoq ostiga to'shalgan momiq turkman gilamlarining eng chiroylisi to'ridagi devorni yoppa egallab turar, uning u yer-bu yeriga qadimiy qurol-yarog'lar did bilan ilib qo'yilgandi. Eshikning qarshi tomonidagi baxmal pardali derazalarda bo'ychan xitoyi ko'zalar.

Poygakdagi yog'och taxmon esa kitoblar bilan liq to'la. Ularning talay qismi "noyob"lardan ekanini Kamol bir qarashdayoq sezib ulgurdi.

O'ho'! Yusuf xos Xojibdan tortib Spenser-u Gegelgacha! Hozirgi baldoqfurushlar bilan ham hazillashib bo'lmaydi shekilli?

Hm... pastga ko'ndalang taxlanganlari... Bular eskicha kitoblar bo'lsa kerak.

Kamol zeb-hashamlarni alohida diqqat bilan ko'zdan kechirayotganini sezib, Bekxo'janing ko'kragi kerildi.

Bular shunchaki yupanchga o'xshagan narsalar, deya mag'rur qo'l siltab qo'ydi u. To'rt muchang sog' ekan, o'ttiz yoshda el og'ziga tushding. Men kandikka biqinvolib, sirg'a-uzuk "kashf" qilib yotibman.

"To'rt muchang sog'..." degan gapning tagida, "agar nogiron bo'masam, dovrug' solish nimaligini ko'rsatib qo'yardim", qabilidagi ta'na yashiringanini anglagan Kamol bir lahza o'ng'aysizlanib qoldi.

Ie, ayollarimizni chiroyli qilib ko'rsatish mayda ish bo'ptimi? mezbonning ko'nglini ko'tarishga tirishdi u. Buniyam jamiyatga nafi katta.

Bekxo'ja yuzaga kelgan har qanday qulay vaziyatdan ustalik bilan foydalana bilardi. Bu safar ham shunday qildi.

Odamni juda quvontirib yubording, dedi u ortidagi javonga uzalganicha g'aladonni tortayotib. G'aladondan duxoba quticha olib, uni Kamolning oldiga surdi.

Gaplarning rost bo'lsa, jamiyatga yana bir marta foyda keltirishimga to'sqinlik qilma.

Kamol qutichani qo'lga olib, asta qopqog'ini ochdi. Unda bir juft tilla baldoq va yoqut ko'zli uzuk charaqlab turganini ko'rib, ikkilangan siyoqda zargarga yuzlandi.

Xijolatpazlikni yig'ishtirib qo'y, azizginam, arvoch rolida o'ynayotgan artistdek qat'iy va dona-dona so'zladi Bekxo'ja. Bular menga dehqonchilikdek gap.

Axir...

O'zingga oro berishga vaqt topmayotgan ekansan, loaqal xotiningga parvo qiptursang yomon bo'lmasdi.

Bekxo'ja yosh olimning tartibsiz to'zg'ib turgan sochlari, egnidagi odmigina kostyumiga istehzoli ko'z yugurtib chiqqach, "erib turganimda opqolsang-chi", degan ma'noda kiprik qoqib, muloyim jilmaydi.

Kamol favqulodda o'tkir did bilan yasalgan taqinchoqlarni qiziqib ko'zdan kechirarkan, ora-sira zargarga sinovchan ko'z tashlab qo'yar, Bekxo'ja yuziga samimiy tus berishga urinib, unga jim tikilib turardi.

"B Qanchalar bebaho bo'lmasin, bu dahmazalar baribir meni butunlay rom qilolmaydi, derdi go'yo Kamol. Saxovatli tabiat menga g'ayrat va iste'dod shavqini berdi. Yana nima kerak?"

"B Sho'ring qursin, shippaksiz Aristotel, deb javob qilayotganga o'xshardi Bekxo'ja. Bilmaysanki, ayni paytda mislsiz zahmat, bir umr o'z-o'zidan qoniqmaslik azobiga mahkum etilgansan".

"B Tabiat menga zehn va idrok berdi, bu bilan olam qalbini tinglay olishdek ulkan saodat in'om etdi. Yana nima kerak?"

"B Bilmaysanki, ayni paytda o'sha dardmand olamning dod-faryodlariga parvosiz boqishdek cheksiz halovatdan mahrum qilingansan... Ha, tabiatda adolat bor, tarozining posangisini doim teng ushlaydi. Birovni nimalargadir yolchitgan ekan, shakshubha yo'qki, nimadandir kamsitadi ham".

"B Shaxsan men na kecha, na bugun biron-bir narsadan kamsitilganimni sezmaganim".

"B Biz g'ofillar turmushga o'zimizga o'ng turgan tomondan qarab o'rganganmiz. Sen o'zingga o'xshagan xayolparastlarning olqishidan sarxushlangan chog'ingda allaqachon cho'ntakni qappaytirib ulgurgan uddaburonlar orqangdan bearmon mazax qilishayotganini sezmayсан. Mening ahvolim, balki, buning aksidir. Lekin, nima bo'lgandayam, ustunlik baribir men tarafda menda pul bor. Pul kishining hamma nuqsonini yashiradi: nodonni donodan hurmatliroq qiladi, nimjonni polvon ustidan hukmron etadi, sichqonni qoplonga aylantiradi. Bilimda bunaqa imtiyoz yo'q, aqalli kamxarjligingniyam begona ko'zdan berkitolmaydi".

"B Nahotki, kamxarjlikni nuqson deb o'ylasang?"

"B Har holda, u fazilat ham emas. Shunday ekan, kaftingda omonat turgan o'ljani mahkamroq changallashning payida bo'l.

Tirikchilik bozori shunchalar ur-to'polonki, qo'ldan tushirgan narsangni qaytib topolmayсан. Ol, olaver, birinchisi odatda qiyinroq bo'ladi, keyin binoyidek ko'nikib ketasan..."

Hatto raqiblar iste'dodini ham tan olib, qadrlab o'rgangan Kamol ustasi farang zargarning mahoratiga tahsin o'qigandek hayratomuz bosh tebratib, qutichaning qopqog'ini yopdi. Uni stol chetiga qo'yarkan, nima deyishni bilmay, biroz paysallanib qoldi. Chamasi, o'ta saxovatpesha mezbonning qo'lini dilga og'ir botmaydiganroq tarzda qaytarish chorasini izlar, durustroq bahona esa hadeganda kallasiga kelmayotgan edi.

Sovg'a ko'lankasidagi jodu

Garchi Bekxo'ja xotirjam ko'rinsa-da, aslida nigohini o'qdek qadab, Kamolning qiyofasidagi har bir o'zgarishni ziyrak kuzatib o'tirardi. Uning ingichka qoshiga rangdosh timqora ko'z'lari qadimiy sharqona suratlardagidek qiyiq va jozibali edi. Bir qarashda bu ko'zlar egasi biron-bir kimsaga ozor yetkazishi mumkin emasdek tuyulardi.

Dehqonchiligim ko'nglingga o'tirmadi shekilli? deya qisqa jimlikni buzib, afsusnamo ohangda gap tashladi Bekxo'ja.

Aksincha... bu gal ham uning ko'nglini ko'tarishga tirishdi Kamol. Qo'ling gul ekan, tan berdim.

Senki tan bergan ekansan, endi kelin haqida gap-so'z yo'q...

Ming attang! kulimsirab boqdi Kamol. Xotinim bu masalada juda qoloq. Zeb-ziynat desang, qirq qadam naryoqdan aylanib o'tadi. Yurist xalqi ham oddiy, ham jiddiy bo'lishi kerakmish.

Bekxo'ja uning oilaviy tomoni haqida hech narsa bilmaydigandek, o'zini taajjublanganga soldi.

Yurist? Anavini qarab qo'y!

U tirrancha... shahar prokurori hozir.

Yo'g'-e, nimalar deyapsan! Bundan chiqdiki, tog'amni ishiyam...

Bekxo'ja beixtiyor o'rinsiz gap aytib yuborgandek, tilini tishladi. Kamol unga hushyor tortib qaradi.

Tog'ang?

Bema'ni odatim bor-da, o'zini koyigan bo'ldi Bekxo'ja. Ko'ngilga yaqin kishim bilan gaplashsam, tilimni tiyolmay qolaman.

Hartugur... nima gap o'zi?

Shu desang, menga ota yo'llik bo'lib qolgan tog'am qamoqda yotibdi. Arzimagan ishga.

Kamolning yuragi nimadandir bezillab, zargarga tiyraklanib boqdi.

Agar... chindanam arzimagan ish bo'lsa...

Senga o'xshagan donolar hozir tanqisroq, deb hasratlandi Bekxo'ja. Arziydigani qaysi-yu, arzimaydigani qaysi buni ortiqcha surishtirib o'tirishmaydi. Ayniqsa, gap tillaga borib taqaldimi, tamom ellik gramm pullaganniyam, ellik kilo o'marganniyam bir xil tayoqda savalashadi. Shu insofdanmi?

Qimmatbaho sovg'aning zig'irttak ko'lankasida ulkan iltimos yashirib yotganini nihoyat anglab yetgan Kamol tuyqus noqulay ahvolga tushdi. Chaynayotgani bo'g'ziga qadalib, qo'lidagi shingil uzumni qaytarib idishga tashladi.

Sen aytmoqchisanki... Kechirasan-u, xotinimning ishiga sira aralashmaganman.

Juda to'g'ri qilasan, Bekxo'ja kutilmaganda uning gapini ma'qullab, ta'zimnamo bosh qimirlatdi. Hadeb xotin kishining ishiga suqilaverish bachkanalik. Ammo... zarur bo'pqolsa...

Zargar etsiz jag'ini silaganicha bir muddat kalovlanib turdi. Keyin Kamolning ko'ziga, "na iloj, umidim bitta sendan", degandek iltijoli boqib, davom etdi:

Umuman... xotiningga hech narsa dema. Mabodo, taqinchoqlarni qaerdan olganingni surishtirib qolsa, mayli, unda meni to'g'rimda ozgina gapirib berarsan. Gap orasida tog'amning musibatidan azoblanayotganimni qistirib o'tsang, yomon bo'lmasdi. Kamolning tili tutilib, ensasi qotganicha turib qoldi. Bekxo'ja ichimlik quyilgan qadahni unga uzatayotib, ochiqdan-ochiq yalinchoqlikka o'tdi:

Jon do'stim, yordamingni ayama. O'zim yarimjon odamman. Tog'amsiz yanayam og'ir kunga qolaman. Xudo xayringni bersin.

"Xudo xayringni bersin..." Haliyam o'sha-o'sha Bekxo'ja!

... O'qituvchi o'sha kuni uning javobidan uncha qoniqmadi:

Mazang yo'q, Bekxo'ja. Bu safarcha "to'rt" qo'yaman.

Shoshmang! Bitta "besh" qarz qipturing. Mana ko'rasiz, kelasi gal...

"Besh"niyam o'shanda olaverasan!

Jo-o-n, domlajon... Xudo xayringizni bersin...

Ie! Sovet maktabini machit qilvording-ku! "Ikki" senga!

Shoshmang! Uzr... Bilasiz-ku, ayam kichkinaligimda eskicha o'qitgan. Til qurg'ur o'rganib qolgan bo'lsa, nima qilay? Ana, hammadan so'rang, o'zim xudoga qarshiman.

Xohlasangiz, avliyolarni ahmoq deyishim mumkin. Hukumatimiz bor, nimadan qo'rqaman?

... Ha, bu baribir o'sha Bekxo'ja!

Kamol qadahni ixtiyorsiz ravishda qo'lga oldi-yu, barmoqlari kuya boshlagandek, yana stolga qo'ydi. Bekxo'jadagi tullaklikni bolalikdayoq ko'p marta ko'rib-kuzatgan Kamol uning surbetlarcha yaltoqlanishidan ortiqcha ranjib o'tirmadi. Ammo, uni oddiy molparastlar safiga qo'shib, laqillatish uchun eng siyqa va arzon tuzoqdan foydalanayotgani juda alam qildi.

Demak, bu... xamir uchidan patir ekan-da? shunday deya, u minnatli sovg'ani zargarning oldiga tashladi. Olaqol, og'ir kunningga yarab qolar.

Himoyasizdek shumshayib ko'ringan "parranda" bir siltanishdayoq tuzoqni uzib yuborganidan Bekxo'janing ko'ngli zil ketdi.

Shunday bo'lsa-da, qiyofasidagi osoyishtalikni saqlab qolishga erishib, xotirjam qosh chimirdi.

Bo'pti, unda ochiqchasiga gaplashaylik, Bekxo'ja jilla xijolat tortmay, g'ariblik niqobini yechdi. Senda aql ko'p, menda pul.

Ikkalasini birlashtirilsak, juda uzoqqa borardik.

Falsafangga tushunmadim.

O'zingni go'llikka solma.

Bekxo'ja fikrini biroz jamlab olmoqchi bo'ldimi, sixdan tishida kabob sidirib, erinchoqlik bilan chaynashga tushdi.

Sen iste'dodlisan, nihoyat luqmani yutib, falsafasini sharhlashga kirishdi u. Iste'dodli odamning dushmani ko'p bo'ladi. Bugungi qarsaklar tez orada orqadan tushadigan tarsaklarga aylanishi turgan gap. Aks holda, mantiq izdan chiqadi.

Bekxo'ja Kamolning ko'zlariga bir daqiqa dohiyona tikilib turgach, bir-ikki tamshanib qo'yib, so'zida davom etdi:

Sen intiluvchansan. Intiluvchan bo'lgandayam besabrsan, tezkorsan. Yo'l tekis bo'lsa, o'lguningcha yuguraverasan. Afsuski, hayotda to'siq ko'p. Ulardan birma-bir oshib o'tishga bardoshing yetgandayam, ancha narsani yutqazasan: vaqting ketadi bir,

holdan toyasan ikki, asosiy maqsaddan chalg'iysan uch. Lo'nda qilib aytganda, orzu shohsupasiga eltuvchi pillapoyaning oxirgi uch-to'rt pog'onasini boy berasan. Ammo, qo'lingda bir tutam pul ko'rindi deguncha, g'animlarning homiylarga, to'siqlar ko'priklarga aylanadi. Pul shunaqa kuchli narsa. Istasang, o'sha qudratni senga men beraman. Qulay tomoni shundaki, qarzga emas.

Birinchiidan, hech qanaqa dushmanim yo'q, bu safar jahlini yutib, sokin so'z qotdi Kamol. Bo'lgandayam, erkakchasi kurashgan yaxshi.

Bekxo'ja gavdasini ortga tashlab, hafsalasi pir bo'la boshlagandek, shipga bo'zrayib boqdi, uzun barmoqlarini o'ynatib, stolni tiriqlatishga tutindi.

Hali, kelib-kelib, senga kuyinib o'tiribmanmi? Go'dak ekansan-ku! Qiziq, so'rg'iching qaysi cho'ntagingda turganikin? Gerdayib o'tirishini ko'ring. Pokizaman demoqchimi? O'lsam, haykal qo'yishadi, deb o'ylaydi-da. Kimning go'ri hashamatliroq bo'lishini hech kim oldindan aytolmaydi.

Bekxo'ja labini himarib qo'yib, "chirmandasi"ni to'xtatdi.

Bilaman, halol yigitsan, endi nodon do'stga achinayotgan alfozda hazin so'zlay boshladi u. Lekin, boshqalar-chi? Bugun sen olmagan pul ertaga birovning qo'lga o'tib, o'zingga qarshi ishlatilishiyam hech gapmas. Pul degan maraz dev kim haq-u, kim nohaqligini surishtirib o'tirmaydi, kimga tobe bo'lsa, o'shanga xizmat qiladi.

Qora xizmatlarni bajaradi! Ezgulikka devning nima aloqasi bor?

Nega bo'lmasin? birdan jonlanib ketdi Bekxo'ja. Ezgu ishlar qilmoqchi ekansan, bemalol qilaver. Ezgulik dushmanlarini devlarning bilan Sulaymondek yanchib o't, demoqchiman xolos. Bu dunyo shunaqa, g'aflatda qoldirmasang, g'aflatda qolasan. Bekxo'ja bilan butunlay boshqa-boshqa o'zanlar ekanligiga endi batamom iqrar bo'lgan Kamol suhbatni ortiq davom ettirgisi kelmadi. Ketishga shaylanib o'rnidan turarkan, zargarga dimog'dor boqib dedi:

Pul guldor qog'oz xolos. Ilm-u fan o'tdayam kuymaydi.

Kamol hech bir mulozamatsiz "xayr" deb qo'ygach, salmoqli odimlab eshik tomonga yo'naldi. Ostonadan hatlayotgan damda ortidan Bekxo'janing dag'dag'ador tovushi eshitildi:

Ilm-u fan yaratgan mo'jizalar pulga sotib olinadi. Pul kuchli!

Oradan ikki kun o'tgach, Bekxo'janing Supersur laqabli shaxsiy xizmatchisi taqir boshini qashlab xonaga kirib keldi.

Chatoq bo'пти-ku, xo'jayin.

Gapni o'sha "chatoq" deyilgan joyidan boshla.

Tog'angiz G'ani zargarni aytaman-da, bezrayib gapni chuvaladi xizmatchi.

Dimlanma, Supersur, toqatsizlandi Bekxo'ja, yorilib ketasan.

Xullasi kalom, qamoqda yurak o'ynog'i tutibdi.

Bekxo'ja ovsar xizmatchisining bo'g'zidan asosiy gapni sug'urib olishga oshiqdi:

O'libdimi?!

Tinchibdi chol, deya pinak buzmasdan barmog'ini shiqirlatdi Supersur.

Bu Bekxo'ja uchun so'nggi haftalardagi eng quvonchli daqiqa edi. Yengil tortib, kresloga yastandi.

Menga qo'shilib aza tutayotganingdan minnatdorman, azizginam Supersur, qup-quruq ko'zlariga shunchaki ro'molcha surtayotib, odob yuzasidan mungliroq ovozda gapirdi u. Nachora, shaxsan yuqoridagi zotga tog'amizdek oddiy zargar kerak bo'pqolgan ekan, sen bilan men o'rta tusholmaymiz.

"Dunyoga kelib, bunaqa bezbetni ko'rmaganman, - deya o'ylab qo'ydi xizmatchi. - Tag'in meni Supersur deganiga kuyaymi".

Yigirma yildan so'ng

Bahor havosiga ishonib bo'lmaydi: yertalab quyosh charaqlab turgan edi, tushdan keyin to'zon ko'tarilib, shimol tarafdin qora bulutlar karvoni yopirilib kela boshladi, kechga yaqin yomg'ir savalab berdi. Shiddatkor tomchilar o'tgan yilgi juldur yaproqlarni shoxlardan uzib olib, chirpiratganicha yerga chaplar, zahil daraxtlarning batamom yalang'ochlangan novdalari yangi libos kiyish oldidan yaxshilab cho'milayotganga o'xshardi.

Qosh qorayib qolgan paytda Bekxo'ja zargarning xilvat chorbog'i yaqiniga taksi avtomashinasi kelib to'xtadi. Uning orqa eshigidan bolishnusxa xalta ko'tarib olgan qomatdor kimsa tushdi-da, junjikkanicha yomg'irpo'shga burkandi. Bu o'sha Ko'rshapalak laqabli talonchi edi. Bundan besh-olti oy ilgari o'n yillik qamoq jazosini o'tab kelib, yana eski hamtovoqlarini topib olgandi.

Taksi qaytib ketgach, Ko'rshapalak anhor ustidagi ko'prik taxtalarini mayishtiradigan darajada vazmin qadam tashlab, ko'hna qayrag'ochlar og'ushidagi g'ishtin uy tomonga yurdi. Anhorning zaxi urib, ikki yondagi tosh devorchasini po'panak bosa boshlagan zinapoyadan ko'tarilib, ayvonchanning panasiga suqildi. Qo'lini endigina qo'ng'iroq tugmasiga cho'zgan chog'da zarang eshik tovushsiz ochilib, olti yoshlar chamasidagi chaqmoqko'z bola iltifotsizlik bilan uni ichkariga imladi:

Kiraver, egriburun. Kelayotganingni derazadan ko'rib turuvdim.

Ko'rshapalak dahlizga kirib, shlyapasi bilan yomg'irpo'shini qoziqqa ildi. Keyin bolaning yelkasiga do'stona qoqib, bo'rinamo tirjaydi.

Ishtahalari joyidami, janob tayyorxo'r?

O'zing tayyorxo'r? mushtini tugib, jirrakilik bilan o'shqirdi bola. Nima opkelding menga?

Biz va'dasida turadigan mardlardanmiz, Xoldorvoy, Ko'rshapalak kostyumining ichki cho'ntagidan o'yinchoq to'pponcha chiqarib, bolaga uzatdi. Manavi duranduletini to'pponcha deydilar.

Quv bolakay sevinganini sezdirmaslikka tirishib, qovoq uyganicha to'pponchani qo'lga oldi. Keyin uni Ko'rshapalakning qiyshiq burniga to'g'rilab turib, tepkini bosdi. Kuchala toshli to'pponcha og'zidan uchqun sachratib, tirillay ketdi.

Yaxshisini topibsan, egriburun, sovg'a uchun o'ziga xos tarzda minnatdorchilik bildirdi Xoldor. To'pponchasiz kelganingda, kallangni uzvolardim.

Shu payt ichkaridan biyobonsifat kallasiga sholchado'ppi qo'ndirgan Supersur chiqib keldi.

Xo'jayin seni kutib o'tiribdi, Ko'rshapal akka tosrayganicha qo'l uzatarkan, salom-aliksiz maqsadga o'tdi u. Kir tezroq.

Ko'rshapalak skafandr kiygan g'avvosdek lapanglaganicha ichkariga qarab odimladi. Sholcha-poyonozni tepalab borib, cho'ziq

xona oxiridagi qora charm qoplangan eshikni qo'pollik bilan o'ziga tortdi.

Bekxo'ja zargar velosiped g'ildiraklari orasiga o'rnatilgan biqqi kreslosida xona to'rrog'idagi elektr o'choqqa yuzlangan kuyi isinib o'tirardi. Hatto eshik yopilgandan keyin ham miq etmadi.

Salom berdik, xo'jayin, poygakda to'xtalib, atayin baland ovozda gapirdi Ko'rshapalak.

Kresloning bo'ychan suyanchig'i ortidan arvohlarnikiga o'xshash o'sha tiniq tovush eshitildi:

Qulog'im senda, Ko'rshapalak. Professorning qalb sandig'idan biron narsa o'mardingmi?

Ko'rshapalak stolga yaqin borib, qo'lidagi xaltani ichimlik to'latilgan grafinning yoniga qo'ydi.

Keragidan ko'proq eplashtirganga o'xshaymiz, xo'jayin.

Zargar g'ildiraklarni qo'li bilan harakatga keltirib, stol tarafga o'girildi, Ko'rshapalakka muloyim nigoh tashlab, qarshisidagi o'rindiqqa o'tirishga ishora qildi.

Rostini aytсам, azizginam, bu sandiqqa sendagi kalitlar tushmasmik deb qo'rqqandim, dedi u mamnun qiyofada.

Ko'rshapalak xaltani ochib, radio muxbirining reportyorini eslatuvchi g'iloqli magnitofonni oldi.

Mahmadanaroq bir yigitim bor, magnitofonni sozlayotib, izoh berdi Ko'rshapalak. Radiodan yuborilgan muxbirman deb, professorni rosa vaysatibdi.

Bekxo'janing istarasiga rahna solib turuvchi qonsiz yuzida kuldirgich o'ynadi.

Ofarin, Ko'rshapalak! Kamol Kamtariyning bebaho ma'ruzasini nihoyat tekinga tinglaydigan bo'libmiz.

Ko'rshapalak labiga sigaret qistirib tutatdi-da, magnitofon murvatini buradi. Dastavval soxta muxbirining sayroqi ovozi eshitildi.

MUXBIR: Muhtaram ustoz, keyingi maqolalarigizdan birida qandaydir avtoodam yasayotganingizga shama qilib o'tgandingiz.

Qisqa vaqt ichida radio shinavandalaridan yuzlab xat oldik avtoodamga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Agar sir bo'lmasa, shu itxiro haqida batafsilroq so'zlab bersangiz.

PROFYeSSOR: Avvalo shuni aytib o'tishim kerakki, bu temirtan fikran barkamol avtoodam emas, balki jamiyat oldidagi burchini hali chuqur his qila olmaydigan kibernetik Avtobola xolos. Uning mustaqil fikrlay olish qobiliyati birmuncha chegaralangan, unga muntazam ravishda yo'l-yo'riqlar berib turishga to'g'ri keladi.

MUXBIR: Radiotinglovchilarimizni temirtanning asosiy xususiyatlari ko'proq qiziqtiriyapti.

PROFYeSSOR: Barcha toifadagi kishilarga birdek tushunarli bo'lishi uchun bu haqda soddaroq qilib gapira qolay. Avtobolani yasalar ekanman, inson organizmidan iloji boricha aniq nusxa ko'chirishga harakat qildim. Uning kalla qismiga joylashtirilgan mikrosxema tuzilish jihatidan odamzotning miya to'qimasiga judayam o'xshab ketadi. Bu to'qima sharofati bilan u ko'radi, eshitadi, gapiradi, idrok etadi, aniq maqsadga bo'ysungan holda harakat qiladi... Charchaydi ham. Shu tufayli, maxsus tugmachani bosib, uni kamida olti-etti soat uyquga yotqizish lozim bo'ladi. Aks holda, uning miya to'qimasi uzog'i bilan o'ttiz besh soatdan keyin butunlay ishdan chiqishi mumkin.

MUXBIR: Uyqusizlikka kelganda, Avtobola o't o'chiruvchilardan chidamliroq ko'rinadi.

PROFYeSSOR: Juda o'rinli hazil... Gapda davom etadigan bo'lsak, xuddi biz bilan sizdagi kabi Avtobolada ham yurak-qontomir tizimi bor. Faqat uning tomirlaridan qon o'rniga elektr zaryadi oqadi. Pozitron miyadan tinimsiz ravishda kelib turadigan signallar buyrug'iga itoat etuvchi bu tizim o'ta mustahkam, ayni paytda, nihoyatda elastik gavda va bag'oyat sezgir paylarga ega bo'lgan Avtobolaning eng nozik ishini ham bejirim uddalay olishini ta'minlaydi. Masalan, u piyolaga limmo-lim to'ldirilgan suvning biron tomchisini to'kmay egasiga olib borishi, bozordan narsalar xarid qilib kelishi mumkin. Faqat uni o'n besh puddan ortiq yuk ko'tarishga majbur qilmasangiz bas.

MUXBIR: Tasanno de'yish kerak! Bolasi tushmagur durustgina pahlavon ekan.

PROFYeSSOR: Buning ustiga, yuguroq ham. Qaysi joyda qanday tezlikda yurgan ma'qulligini, sharoitga qarab, Avtobolaning o'zi tanlaydi. Eng tiqilinch joylarda ham u hech kimga xalaqit bermay yura oladi. Lekin, qulay imkoniyat tug'ildi deguncha, agar shoshilish juda zarur bo'lsa, hatto sirtlonni dog'da qoldiradi. Uning maksimal tezligi soatiga bir yuz yetmish kilometr.

MUXBIR: O, naqadar g'aroyib tilsimot! Ishonchimiz komilki, payti kelib, hamshaharlarimiz bu noyob bolakayni bozor yoki xiyobonda uchratish sharafiga muyassar bo'lishadi. Hurmatli professor, balki o'sha kun yaqindir?

PROFYeSSOR: Unchalar uzoq emas. Avtobola deyarli tayyor. "Yettinchi sayyora" firmasiga berilgan buyurtmamning bajarilishini kutib turibman. Bu firma uzoq yillarga chidamli bo'lgan oltin g'iloqli akkumulyator, ya'ni oltin yurakni yasab bersayoq, Avtobolamiz oyoqqa turadi. Keyin, pedagogchasiga aytganda, unga kundalik muomalada kerak bo'ladigan so'zlarni yodlatish, ongiga insoniy xulq-atvorni singdirish qoladi xolos...

Ko'rshapalak magnitofonni o'chirib, sigaret tutunini erkatoylarcha shipga pufladi.

Tadbirkorlikda tenging yo'q, azizginam! sigaret tutunidan ko'ngli behuzur bo'layotganligini sezdirmaslikka tirishib, burnini siypalaganicha maqtov yog'dirdi zargar. Demak, oltin yurakcha bitsayoq...

Akkumulyator bir haftada tayyor bo'ladi, xo'jayinning gapini bo'ldi Ko'rshapalak. Muxbirim "Yettinchi sayyora" firmasigayam borib, qalbaki reportaj yozdi. Muxbirlik guvohnomasini o'zim yasab berdim.

Bekxo'ja xizmatchisiga qoniqlik bilan ko'z qadadi. Qo'l ostidagi yugurdaklari o'sha takabbur professorni ham, firmadagi "kallador zot"larni ham boplab laqillatishgani va nihoyat badbo'y sigaretning kuldonga ezig'ilanayotgani uning diliga bab-baravar huzur bag'ishladi.

Amir Temurning qarorgohida o'tiribman-u, gap Damashqni ship-shiydam etish ustida ketyapti deb faraz qil. Demoqchimanki, bu ishga jiddiy qarab, pishiq reja tuzvolishimiz kerak.

Ko'rshapalak shunday gap bo'lishini oldindan bilgan shekilli, ortiqcha mulohaza qilib o'tirmay, darhol fikr bildirishga kirishdi:

Muxbirimni "Yettinchi sayyora"ga bejiz yuborganim yo'q, dedi u. Avtobola bilan akkumulyatorni bir vaqtda, lekin alohida-alohida o'g'irlagan ma'qul. Shunaqa qilmasak, professor bolaning tarbiyasini buzib qo'yishiyam mumkin. To'g'rimi?

Bekxo'ja asta bosh irg'adi:

Muso alayhissalomdek bexato karomat qilyapsan, Ko'rshapalak. Gapiraver.

Fikri xo'jayinga ma'qul tushayotganidan taltaygan Ko'rshapalak o'zini yanada erkin tutib, qo'ynidan yarqiroq pichog'ini sug'urdi-da, shisha likopdagi olmalardan birini olib, archa boshladi.

Akkumulyatorning qaerdaligi aniq, endi ancha bosqlik bilan gapirdi u. O'sha narsa qachon tayyor bo'lishiniyam bilamiz. Bu ishini yigitlarim mensiz ham boplashadi. Avtobolani o'zimga qo'yib berasiz.

Ko'rshapalak so'qir chap ko'zini qisganicha ishtiyoq bilan olma archishda davom etarkan, lablarini chapillatib, Bekxo'jaga suzilib boqdi. Chamasi, uning gapi tugagan edi.

Menga qolsa, kuchni aksincha taqsimlardim, yoqut ko'zli uzuk chaqnaq turgan barmog'ini Ko'rshapalakka niqtadi Bekxo'ja. Bu dunyoparast odamlar ikki

pudli temir boladan ko'ra ikki gramm oltinni hushyorroq qo'riqlashadi.

Ko'rshapalak olmaning bo'lagini pichoq uchiga ilib, ishtaha bilan lunjiga tiqarkan, grafinga suqlanib qarab qo'ydi.

Tushundim, xo'jayin, dedi u vishillab kavshanib. Bundan chiqdiki, akkumulyatorni o'zim eplashirishim kerak. Yigitlarim Avtobolani "telpak" qilishadi-yu, biryo'la professorniyam...

U aytilmagan gapni harakat orqali ifodalab, qo'lidagi pichoqni xona burchagidagi yog'och haykalga otdi. Pichoq o'rta asr kamonchisi qiyofasidagi haykalning qoq peshanasiga borib sanchildi. Bekxo'ja tahqirlangan "kamonchi"ga zimdan ko'z tashlab qo'yib, yana Ko'rshapalakka yuzlandi.

Olimlarni o'ldirib bo'lmaydi, Ko'rshapalak, dedi u buyruq ohangida. Ular jamiyatga katta foyda keltirishadi. O'zimiz ham o'sha jamiyatning bir bo'lagimiz. Masalan, Kamol Kamtariy bo'lmaganda, sen bilan menga kim Avtobola yasab berardi? Kallakesar Supersurmi?

Olma bekorga archilmaganini fahmlagan zargar grafin qopqog'ini ochib, stol ustidagi qadahlardan biriga ichimlik quydi.

Ko'rshapalak gappa og'iz juftlarkan, qadahdagi suyuqlik salmog'ini sog' ko'zida chamalab olishga ulgurdi.

Professor parrak bo'lmasa, ishning loyqasi chiqadi, deya u qing'ir burnini jiyirdi. Muxbir bo'lib borgan yigitim unga tanilib qoldi. Izquvarlar uchun kalavaning uchi bu.

Manavi gapingda jon bor, deb ma'qulladi zargar. Uni gumdon qilish kerak.

Ko'rshapalak boshliqqa so'zini o'tkaza olganidan quvonib, tirjayganicha qadahga panja urdi-yu, "ha, muxbirni gumdon qilish kerak bo'ladi", degan "izoh"ni eshitib, yana gezardi.

Jang qurbonsiz bo'lmaydi, qat'iy ta'kidladi Bekxo'ja. O'sha mahmadona yigitingga behad achinib turibman. Ammo, ming afsuski, professor Kamol Kamtariy bilan o'zimning alohida hisob-kitoblarim bor. Men uni ruhan o'ldiraman. Ru-u-han! So'ng qo'shib qo'ydi. Qani, professorning sog'lig'iga qo'lingdagini ko'tarvor-chi.

Tog'dagi fojia

Shahar jinoyat qidiruv bo'limi boshlig'i mayor Ahmedov tezkor guruh a'zolari bilan professor Kamol Kamtariyning hovlisiga qadam qo'yiboq, allaqanday g'ayritabiiy sukunatni his etdi-yu, birdan yuragi uvishdi. Ular qulflanmagan eshikdan oynavand ayvonga kirishib, professorning uy xizmatchisi qo'l-oyog'i arqon bilan chandilgan, ko'ziga latta bog'lanib, og'ziga sochiq tiqilgan holda yotganini ko'rdilar. Professorni ham xonasidan xuddi shunday ahvolda topishdi. Qotillik ro'y bermagani mayorni biroz taajjublantirdi, ayni paytda, ko'ngli yengil tortdi.

Yaramaslar! uni bo'shatishgach, arqon izidan momataloq bo'lib, uvishib qolgan bilaklarini uqalarkan, g'udrandi professor.

Avtobola kimga kerak bo'p qoldiykin? Buning ustiga, akkumulyatoriyam yo'q.

Hamma gap shunda-da, hurmatli professor, xonani sinchiklab ko'zdan kechirayotgan ekspertlarning nozik va diqqinapas ishini zimdan kuzatib turib gapirdi

mayor. "Yettinchi sayyora" firmasidagi akkumulyator bugun tunda o'g'irlab ketilgan. Buni ertalab bilishibdi. Agar shuni xabar qilishmaganda, men... biz uyingizga kelmagan, siz haliveri arqondan bo'shatilmagan bo'lardingiz.

Tuni bilan polda yotib, suyak-suyaklari zirqirayotgan Kamol Kamtariy divanga yastanarkan, rohatdan ko'zlari yumilib ketdi.

Mayor Ahmedov stullardan birini olib, professorga yaqinroq joyga qo'ydi.

Avtobola haqida, mabodo, biron kishiga batafsilroq gapirib bermaganmidingiz? stulga o'tirayotib so'radi u.

Gapirib berganman, negadir aftini burishtirdi professor. Radio muxbiriga.

Mayorning qiyofasida xiyol jonlanish aks etgandek bo'ldi.

Harholda, muxbir bilan bir gaplashib ko'rishim kerak. Malol kelmasa, uning familiyasini...

Hojati yo'q, qo'lini undov belgisidek ko'tarib, gapni bo'ldi professor. O'sha muxbir kecha men bilan telefonda bog'lanib, bor-yo'g'i bir necha minutga qabul qilishimni so'radi. Jurnalist xalqidan qochib qutulishning iloji yo'qligini bilganim uchun, vaqt kech bo'lib qolganiga qaramay, rozilik berdim.

Hayot tasodiflari qozonida qaynab, ne-ne chigalliklar bilan olisha-olisha soch oqartirgan tajribali mayor bu qabulning oqibati qanday tugaganini allaqachon anglab yetgan bo'lsa-da, voqea qay tarzda yuz berganini aniq bilib olish maqsadida professorning og'ziga tikilgan kuyi turaverdi.

Muxbir desangiz, xonamga kiriboq, iljayganicha menga qurol o'qtaldi, gapida davom etdi professor. Keyin yelkamdan turtib, "marhamat qilib devorga o'girilib

tursalar", dedi. Na iloj, aytganini qildim. Sheriklari kirib kelishib, avval ko'zimni boylashdi...

Kamol Kamtariy qolganini o'zingiz ko'rdingiz, degandek do'rdoq labini jimirib qo'yib, yana asta ko'z yumdi.

Avtobola to'g'risida ancha-muncha narsalardan xabardorman, professorning rohatini buzishga majbur bo'layotganidan xijolat tortibroq gapirdi mayor. Mumkin bo'lsa, ayting-chi, uni yasashdan asosiy maqsadingiz nima edi?

Yolg'izlik balosidan qutulish, ko'zlarini ochmasdan, uyqusirayotgandek g'o'ldirab javob qildi professor...

Kamol Kamtariy uylangandan keyin uzoq vaqtgacha farzand ko'rmadi. Nihoyat, qirq to'rt yoshida xotini o'g'il tug'ib berdi.

Professorning nazdida ko'p yillardan buyon jussasini to'rt tarafdin qisib turgan uy devorlari birdan kengayib ketgandek, odatda rutubat anqib turadigan xonalar daf'atan charog'onlashgandek tuyuldi. Xotini ham chinakam oilaviy baxtni endigina his qilayotganga o'xshar, uning chiroyli ko'zlaridagi o'ng'aysizlanishga o'xshash soya butunlay yo'qolib, endilikda onalik faxri porpirab turadigan bo'ldi.

Afsuski, bu quvonch uzoqqa cho'zilmadi. Oradan ko'p fursat o'tmay, professor bir vaqtning o'zida o'g'lidan ham, xotinidan ham judo bo'ldi.

O'sha mudhish kunni eslay boshlasa, daqiqa sayin taranglashib borayotgan asab tomirlarining setor simlaridek birin-ketin tarsillab uzilayotganini his qiladi. Hozir ham ana shu azobdan uning bo'yin tomirlari tortishib, divanga tobora chuqurroq cho'kib borayotgandi.

Tog' oralig'iga joylashgan so'lim va bahavo Xo'jamozor qishlog'i shaharliklarning sevimli saylgohi hisoblanardi. Kamol Kamtariy Navro'z bayramida oila a'zolari bilan birga o'sha yoqqa lola sayliga jo'nadi. Bu uning o'n to'rt oylik o'g'li endigina tetapoya yura boshlagan, "dada", "aya" degan so'zlarga tili kelishib qolgan paytlar edi. Ular Xo'jamozorda ilgaritdan tanish bo'lgan objuvozchi cholning uyiga qo'nishdi. Objuvozchining xonadoni qishloqdan ancha chetda joylashgan bo'lib, bu yer sokin va pokizaligi bilan

ajralib turardi.

Professorning o'sha mahalda ishi juda tig'iz edi. Ikki kundan keyin mashinamni yuboraman, deb kechqurunoq shaharga qaytib ketdi.

Ertasi kuni tunda qattiq jala quydi. Tong pallasi shofyori hovliqanicha kelib, "Xo'jamozorni sel bosganmish", deb qoldi.

Professor zudlik bilan mashinaga o'tirib, toqqa jo'nadi...

Oradan uch kun o'tgach, xotiningin jasadi Xo'jamozor qishlog'idan ancha olisdagi yoyilmadan topildi. Garchi o'g'lining murdasi biron-bir joydan chiqmagan bo'lsa-da, uning tirik qolganiga umid qilish uchun asos yo'q edi...

Kamol Kamtariy erinchoqlik bilan ko'zini ochib, mayor Ahmedovga bir lahza xazin tikilib turdi. So'ngra g'amgin tovushda dedi: Men o'zimga eng pahlavon, eng ishchan, eng itoatkor o'g'il yasab olmoqchi edim. Sel uyoqda tursin, uni hatto o'q ham halok qila olmasdi. Afsuski, taqdir menga shuniyam ko'p ko'rdi.

Mayor shu topda boshqa bir narsa ko'proq tashvishga solayotgandi. Avtobolani nima uchun o'g'irlashdi? Undan qanday maqsadda foydalanishmoqchi? Odamlar epaqaga kela boshlagan bir paytda, nahot endi temir qalloblar paydo bo'lsa?

Ishlarini tugatgan ekspertlar tashqariga chiqib borishayotgan damda mayor ham o'rnidan turib, ketishga chog'landi. Kamol Kamtariy haddan ziyod charchagan bo'lishiga qaramay, mehmonni kuzatib qo'yish uchun odob yuzasidan joyidan qo'zg'aldi. Ular yonma-yon yurib borishib, tashqi eshikka yaqinlashishgan chog'da mayor to'xtalib, professorga o'girildi:

Haligi soxta muxbirning tashqi qiyofasini surishtirmayotganim qiziq tuyulmayaptimi?

Har kimning o'z ish uslubi bor, mayorning ko'ngliga botmaydigan gap aytishga harakat qildi professor.

Mayor esa o'z savoliga o'zi javob berdi:

Surishtirmayotganimning boisi shundaki, siz bilan ikki marta yuzma-yuz uchrashgan o'sha tovlamachi boshlig'i uchun vazifasini bajarib bo'ldi. Ertami-kech, uning murdasi shahar atrofidagi biron ta xandaqdan topilib qolsa, sira ajablanmayman.

Professor, "qaydam, balki chindanam haqdirsiz", degan ma'noda beparvo yelka uchirib qo'ydi.

Mujmal dars

Yozga chiqib, Avtobola faqat gaplasha oladigan emas, balki ayrim masalalar ustida odamlar bilan bahslashadigan, shaxsiy mulohazalari asosida mustaqil fikrlaydigan bo'lib qoldi. O'z atrofida qilargilarga o'xshab u ham takabbur, dag'al va beshafqat edi.

Garchi uni "Temirtak" deb chaqirsa-da, Avtobola bu xonadonda faqat Xoldorni yoqtirardi. Xoldor serzarda va jirradi bo'lishiga qaramay, po'lat jussasi tangabaliqni eslatuvchi oshnasini nohaq o'kintirmas, qo'pol tabiatli Supersur o'zicha xo'jayinchilik qilib bo'yin cho'zgan vaqtda u doimo Avtobolaning yonini olardi.

Avtobola Bekxo'ja zargarni ham uncha xushlamasdi: uning mujmal gaplarini tinglab o'tirishdan benihoyat toliqib ketar, kalla qismidagi mikrokonkondensatorlar zirillab qiziy boshlardi. Zargarni u faqatgina Xoldorning dadasi bo'lgani uchungina hurmat qilardi. Bugun ham kunning birinchi yarmi Avtobola uchun odatdagidek xushchaqchaq o'tdi. Baland devorlar bilan qurshalgan bog'da Xoldor ikkalasi rosa "urush-urush" o'ynashdi. Xoldor uni o'n bir marta yolg'ondakamdan o'ldirgan bo'lsa, Avtobola o'z dushmanini yigirma martacha cho'ziltirdi. Afsuski, shunday qiziq o'yin xafagarchilik bilan tugadi. Bu ko'ngilsizlikka Xoldor sababchi bo'lsa-da, so'kishni baribir sho'rlik Avtobola eshitdi.

Voqea bunday bo'ldi. O'yin rosa avjiga chiqqan pallada Xoldor, badnafsligi qo'zib, hali shira yig'ib ulgurmagan kuzgi olmaga kesak ota boshladi. Kecha ham berkinish navbati Avtobolaga kelganda, u olma yeyishni bahona qilib, o'yinni sovitgan edi.

Xoldorning yana g'irromlik qilayotganidan jahli chiqqan Avtobola tanasi etik qo'njidek bo'lib qolgan olma daraxtini quchoqlab turib, tag-tugi bilan ko'chirib oldi-da, zardali qiyofada yerga ag'darib otdi.

Ol, burningdan chiqquncha yeyaver endi!

Yasha, Temirtak! xursand bo'p'ketib, chapak chalib yubordi Xoldor. Keyin olmalarni ochko'zlaricha g'ajishga tushdi.

Shunda halloslaganicha Supersur kelib qoldi-yu, yana og'ziga zo'r berdi:

Kuching daraxtga yetdimi, otashkurakdan tarqagan? Kallangdagi uskuna ishlaydimi o'zi?

Anavi shalpanquloqning ko'zi to'ysin dedim, o'zini oqlay boshladi Avtobola. Berkinish navbati menga kelganda, bu g'irromchi olmaning tagidan jilmay qoldi.

Supersur esa Xoldorni tergash o'rniga Avtobolani bo'ralashda davom etdi.

Bu bog' tunukabosh enangdan qolganmidiki, daraxtlarni bir chekkadan o'piraversang. He, o'sha seni o'yilab topganni...

Vag'illama! olmani kavshab turib Supersurga musht o'qtaldi Xoldor. Temirtakni xafa qilsang, kallangni uzvolaman.

Xoldor tushlik qilayotganda Avtobola uning rasm daftari va qalamini olib, o'zicha allanimalarni chizib o'tirdi. Xoldor hali o'qish-yozishni bilmasa ham rasm solishga ishqiboz edi. Bir kuni u raqibiga pichoq o'qtalib turgan kishining suratini chizgan edi, garchi odamlar haddan ziyod tasqara: jo'xoripoyadek ingichka, olako'z, maymoq tarzda tasvirlangan bo'lsa-da, dadasi uni rosa maqtadi. "Mana bu haqiqiy erkakcha san'at, degandi u o'shanda. Gul bilan bulbulning suratini, mayli, hezalaklar chizib yuraversin".

Ovqatlanib bo'lgan Xoldor temir o'rtog'ining yoniga borib, chizgan suratiga razm soldi-yu, birdan ko'zlari chaqnaq ketdi.

Vo'y! Judayam o'xshatibsani!

So'ng daftarni Avtoboladan tortib olib, "Egriburuni ko'rib qo'y", deya uni hanuz choy ichib o'tirgan Supersurga uzatdi. Supersur rasm daftarni mensimagan qiyofada qo'lga olarkan, choy ho'playotib ko'z qirida sahifaga qaradi. Shu qaraganicha avvaliga ko'zlari lo'q bo'lib turib qoldi. Keyin piyolani shosha-pisha stolga qo'yib, suratga diqqat bilan tikildi. Ko'rshapalak qoyilmaqom qilib chizilgan edi. Hatto qiyshiq burnining yonidagi kichkina chandig'i ham e'tibordan chetda qolmagandi.

Yo tavba! hayrat izhor qildi Supersur. Kallangni paqir deb yursam, balo ekansan-ku!

Shu payt stol yaqinidagi javoncha ustida turgan yo'qlagichdan Bekxo'ja zargarning donador tovushi eshitildi: "Nasibangni yutib bo'ldingmi, Supersur?"

Supersur sertuk tumshug'ini yo'qlagich karnayiga yaqinroq olib borib, g'ingshigandek ovozdagi javob qildi:

Shukur, bo'kmagudekmiz...

Juda soz, Supersur, yana tovush keldi yo'qlagichdan. Avval xonamga kirib, dasturxonni yig'ishtirib ol. Keyin Avtobola bilan mashg'ulot o'tkazamiz.

Xo'p dedik-ku, xo'jayin.

Birozdan so'ng Avtobola istar-istamay zargarning huzuriga kirib bordi.

Salom, xo'jayin.

Keldingmi? unga do'stona nazar tashladi zargar. Xo'sh, ahvollar qalay, Avtobola?

Endigina kresloga o'tirmoqchi bo'lgan Avtobola zargarning so'nggi so'zini eshitib, beixtiyor to'xtalib qoldi. Uning ko'z o'ngida samimiy jilmayganicha tikilib turgan oqsoch kishining yoqimli chehrasi namoyon bo'ldi. Lekin, bu chehrani qachon, qayerda ko'rganini eslay olmadi. Faqat, o'shanda oqsoch kishi ham xuddi ana shu gapni aytgan: "Xo'sh, ahvollar qalay, Avtobola?" deya uning boshini silab, yelkasiga dangillatib urib qo'ygandi.

Bugun xomush ko'rinasan, azizginam? zargar ko'zi bilan imo qilib, uni o'tirishga undadi. O'g'lim xafa qilmayaptimi seni?

Xoldor bilan urishmaymiz, o'rindiqa yastanib javob qildi Avtobola. Anavi Super meni sal narsagayam so'kaveradi-da.

Bundaylarni akkumulyatorsiz qoldirib, o'ldirish kerak.

Bekxo'ja zargar qah-qah urib kulib yubordi.

Bu keksha shalla'qi oxiri avtomatlarning ham joniga tega boshlabdi-ku, dedi u kulgidan zo'rg'a tiyilib. Keyin, hozir aytadigan gapni kelgusida unga qimmatga tushishini xayoliga ham keltirmagan holda, qo'shib qo'ydi. Afsuski, o'zidan kuchsizlarni o'ldirish mardlikka kirmaydi, azizginam.

Xoldorga qo'shilib ancha o'yinqaroq bo'lib qolgan Avtobola, "gapni cho'zmay, darsingni tezroq o'tib qo'yaqol-da", degandek toqatsizlanib turardi. Buni fahmlagan zargar qiyofasini birdan jiddiyashtirib, barmog'ida stolni chertgan asno bir zum shipga tikilib turdi.

Yanglishmasam, o'tgan darsda biz buyum va uning qadri haqida suhbatlashib, oxiri oqilona bir xulosaga kelgan edik, deya gapga kirishdi u Avtobolaga yuzlanib. Xo'sh, yodingdami o'sha xulosa?

Esimda turibdi, bosh irg'adi o'ta noyob xotirali Avtobola. Siz, "buyumning qadri uning narxida", degan edingiz.

O'farin, Avtobola! Demak, yo'lda yotgan temir qoshiqni hatto sayoq it ham hidlamaydi. Ammo, o'sha qoshiqdek tillani deb kap-katta odamlar bir-birlarini bo'g'izlashsa, biz bundan zarracha hayratlanmasligimiz kerak ekan. Shundaymi?

To'g'ri, xo'jayin, Avtobola zargarning gapini ma'qullab, yana bosh irg'adi. Chunki, tillaning narxi baland.

Zargar bo'zrang yuziga tantanavor tus berib, navbatdagi mujmal falsafalari bilan talabasining pozitron miyasini g'ovlatishga kirishdi.

Bugun biz pul va odamzotning unga munosabati haqida gaplashamiz, dedi u. Odam yer yuzidagi barcha mavjudot singari asosan nafsini qondirish bilan ovora

bo'lsa-da, sinchiklab kuzatilganda, unda ba'zi bir afzalliklar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Ya'ni pulni oddiy qog'ozdan ajrata oladi, pulga mehr qo'yadi, jamg'aradi, zarurat tug'ilganda, qisman xarjlaydi ham. Odamzot aynan shu qobiliyati bilan eshak va cho'chqadan keskin farq qiladi.

Bekxo'ja navbatdagi jumalarni fikrida marjondek tizib olish uchun biroz to'xtalib turdi.

Nozik tabiatli odamzotning hurmat-e'tiboriga haqli ravishda sazovor bo'lgan o'sha pul ikki xil yo'nalishda harakat qiladi, deya "dars"ni davom ettirdi zargar. Birinchi yo'nalish, bu daromad, ikkinchisi xarajat. Yanayam soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, cho'ntakka tushgani daromad, cho'ntakdan ketgani xarajat deyiladi. Ba'zi donolar daromadni kirim deb ham aytadi, xarajat esa chiqimdir. Daromad qancha mo'may bo'lsa, sarf-xarajat uchun shuncha qulay imkoniyat tug'iladi. Ammo, har qanday holatdayam, xarajatning daromad bilan tenglashib qolishiga zinhor-bazinhor yo'l qo'ymaslik kerak. Cho'ntakdagi xonavayronlik mana shu oddiy qoidani tushunib yetmaslik yoki unga ko'r-ko'rona itoat qilmaslikdan boshlanadi. Hamyoni bo'm-bo'sh bandada esa na burd qoladi, na obro'...

Avtobolaga o'z portretini chizdirishni niyat qilib o'tirgan Supersur uning darsdan toliqib chiqqanini ko'rib, bu ishni keyinroqqa surishni ma'qul topdi.

Kallam qizib ketdi, keliboq o'zini karavotga tashladi Avtobola. Meni uxlatib qo'y, Supersur. O'zgina bo'lsayam uxlavolay.

Senga maza, paqirbosh, dedi Supersur, gerdayganicha kelib, uning ko'krigidagi qopqoq murvatini burarkan, qizil tugmani bossa o'lasan, yashilni bossa

tirilasan. Agar men bir o'lsam, akasi, to'qson joyimni bosganingdayam hatto qulog'im qimirlab qo'ymaydi.

U ichida yashil va qizil tugmachasi bo'lgan quticha qopqog'ini ochib, qizilini bosdi, Avtobola shu zahotiyoyq uyquga ketdi.

Supersur po'lat qopqoqchani yopib, "erkatoyim alla-yo, paqirboshim alla-yo", deb ming'irlaganicha tashqariga qarab yo'naldi.

Birinchi amaliy mashg'ulot

Devordagi osma soat tungi uchga zang urgan chog'da uyqu elita boshlagan qorovul chol sergaklanib ko'zini ochdi. Uning qovoqlari qo'rg'oshin osilganday og'irlashib ketgan, boshidagi sarxushlik tarqamay, stulda tebranib o'tirardi. Chol uyqusini qochirish uchun termosdan piyolaga qaynoq choy quyayotgan vaqtda o'zi o'tirgan xonaning yonginasidagi tashqi eshikning qarsillab ochilgani, ichkaridan solingan qulfning sharaqlab yerga tushgani eshitildi. Qorovul hushini yig'ishtirib ulgurmay, boshdan-oyoq temir niqob kiygan ajinasifat bir maxluq alanglab xonaga kirdi. Maxluqning yelkasida qiyrixon qilib osilgan ko'k baxmal xalta bo'lib, xaltaning o'rtasiga qip-qizil xo'rozning surati solingandi.

Damingni chiqarma! devorda osig'liq turgan miltiqqa qo'l cho'zganicha qotib qolgan qorovulga yaqinlashib, barmog'ini labiga bosdi Avtobola. Tsh-sh-sh!!!

La ilaha illollo, yelkasini qunishtirib kalima keltira boshladi chol. Og'zingga oshpichoq, ko'zingga qalampir... Kuf-suf! Daf bo'li! Oshpichog'ingdanam qo'rqmayman, qalampiringdanam, dedi Avtobola. So'ng, baquvvat panjalari bilan cholning bo'g'zidan ushlab, sudragudek holatda uni koridorga olib chiqdi. Ko'rshapalak qog'ozga chizib ko'rsatgan yo'llanma bo'yicha aniq harakat qilib, koridorning o'ng tarafidagi beshinchi eshik qarshisiga yetganda taqqa to'xtadi.

Yaxshilikcha ochib ber, "kasaba uyushmasi" degan taxtacha qoqilgan eshikni ko'rsatib, cholga buyurdi u.

Bu xonaning kaliti egasida, qo'rquvdan dir-dir titrab javob qildi chol. Aldayotgan bo'lsam, ustimda xudo turibdi.

Avtobola qora tugmaga o'xshash ko'zini g'ildiratganicha tepaga qaradi, shipda hech narsa ko'rinmagach, "he yolg'onchi", deya barmog'ini saraklatib, cholni tergagan bo'ldi. Keyin, tutqichdan ushlab turib, eshikni shunchaki siltagan edi, qulf turgan joy o'pirilib, atrofga payraxa sachradi. U qorovulni ichkariga yetaklab kirdi-da, xonaning to'risiga olib borib, yuzini devorga o'girib qo'ydi. "Damingni chiqarma", deya ogohlantirdi qaytadan.

Avtobola xona burchagida turgan temir javonning yoniga bordi. Bu devorlari orasiga qum to'latilmagan oddiy seyflardan edi. U eshikchaga o'rnatilgan qo'shquloqli buramani ikkala qo'lida ushlab turib, shahd bilan orqaga aylantirdi. Seyfning ichida allaqanday temirlar sochilib ketgandek bo'ldi. So'ng, bamaylixotir eshikchani ochib, xo'roz gulli xaltadan fonar chiqardi, seyfning ichini yoritdi. Yuqoridagi taxmonda sochilib yotgan, pastkisida esa beli bog'langan holda taxlab qo'yilgan pullar turardi.

"Mana, o'sha noyob qog'ozlar! sevinib o'yladi Avtobola. Ko'rshapalakning tili bilan aytganda, "ko'rdingki pul, darrovda yul!" U xaltachaga dastavval seyfnining ustki taxmonidagi pullarni soldi. Pastdagi taxmonda esa pul juda ko'p edi, xaltaga yarmidan ozrog'i sig'di xolos.

Avtobola bir daqiqa o'ylanib qoldi. Keyin xaltadagi pullarni yana joyiga ag'darib, eshikchani berkitdi-da, seyfni biroz yonboshlatdi, o'zi egilganicha uning tagiga kirdi.

Polni sindirgudek og'ir qadam tovushi tobora uzoqlashib borayotganini sezib turgan qorovul qo'rqa-pisa boshini ortga o'girgan paytda temir ajina ham, paxta tozalash zavodi kasaba uyushmasi ixtiyoridagi seyf ham xonadan g'oyib bo'lgandi.

"Yopiray! anqayib qoldi chol. Sulaymon payg'ambarning devi tog'dan tushganga o'xshaydi. Oxir zamon yaqin shekilli..."

* * *

... Deraza yonida tamaki burqsatib bedor o'tirgan Ko'rshapalak kattakon seyfni orqalab olganicha chorboqqa yaqinlashayotgan Avtobolani ko'rib, kapalagi uchib ketdi. Sapchib o'rnidan turib, tashqariga chiqqan vaqtda Avtobola allaqachon pillapoyadan ko'tarila boshlagan edi.

Qayoqqa o'rmlayapsan, befarosat? nima qilarini bilmay potirlab qolgan Ko'rshapalak, Avtobolani bo'ralashga tushdi. Nega ko'tarib kelding bu duranduletini? Mol ekansan-ku!

Nima qil deysan, egriburun? seyf ostidan o'qrayib boqdi Avtobola.

E-e... manavi tomonga yur, Ko'rshapalak nihoyat o'zini o'nqlab olib, uni chorbog' ortidagi xilvat eshik tarafga yetakladi.

Ular seyfni eshik yonidagi omborga qo'yishgach, boshliqni bu ishdan tezroq xabardor qilishga oshiqqan Ko'rshapalak lapanglab chiqib ketdi. Birozdan so'ng ilondek vishillab yana qaytib keldi. Uning ketidan Bekxo'ja zargar o'tirgan g'ildirakli kresloni itarganicha Supersur kirdi.

Pullar xaltaga sig'madi, xo'jayin, seyfni bu yerga orqalab kelishga majbur bo'lganligining sababini tushuntirdi Avtobola.

Bir necha ming kishilik zavod ishchilaridan tushadigan badallar ancha yirik bo'lishini zargar ilgaritdan chamalab qo'ygandi-yu, lekin bu pullarning xaltachaga sig'may

qoladigan darajada mo'may ekanini tasavvur ham qilmagandi.

Bekxo'janing birdan kayfiyati ochilgani uning yiltirayotgan ko'zlaridan yaqqol sezilib turardi. Bu mamnunlik oyoqlari ostida salmoqdor o'lja yotganidan emas, balki Avtobola topshiriqni kutilganidan afzalroq qilib o'rinlatgani tufayli edi.

Kasbdoshingga bunaqa angrayib qarama, Ko'rshapalak, rohiblardek tavoze bilan so'zladi zargar. Qani, daromadni bir hisoblab ko'r-chi.

Ko'rshapalak seyfni inqillaganicha zo'rg'a engashtirib, ichidagi narsalarni ag'dardi. Yerda bir uyum pul va bir necha bog'lam lotereya pattalari qalashib yotardi. Zargar Supersurning yordamida bir bog'lam lotereya pattasini qo'lga olib, Avtobolaga yuzlandi:

Manavi narsa, azizginam, oddiy nayrangda ishtirok etuvchilarga tarqatiladigan qadrsiz qog'oz. Adashmasam, men senga haqiqiy pullardan namunalar ko'rsatgan edim. Darsni yaxshi o'zlashtirolmabsan-ku.

Egriburun bergan chiroq judayam xira yonarkan-da, bezrayganicha aybni Ko'rshapalakka ag'dardi Avtobola. Qorong'ida bular ham pulga o'xshab ko'rindi, xo'jayin.

Buni eshitib, Ko'rshapalakning fig'oni falakka chiqdi.

Duranduletning topgan bahonasini qarang, sog' ko'zini olaytirib o'shqirdi u. Fonar xira yonganmish. Yaxshisi, o'zing bironta ustaxonaga borib, ko'zingni tuzattirib kel.

Supersur ham kechagina qarta o'yinida unga talaygina pul yutqazgan jabrdiyda Ko'rshapalakning yonini olishga tirishib, Avtobolaga bo'yin cho'zdi:

Bu kallami yo mantiqozonmi?

Zargar "bas" degan ma'noda sheriklariga xo'mrayib qo'ygach, Avtobolaga yuzlanib so'radi:

O'ylaymanki, qorovulni gumdon qilgandirsan?

Kuchsizlarni o'ldirish mardlikka kirmaydi, xo'jayin, dars chog'ida eshitgan gapini "muallim"ning o'ziga takrorladi Avtobola. Yo noto'g'rimi?

Bundan bir necha hafta ilgari bu gapni Avtobolaga shaxsan o'zi aytganini Bekxo'ja ham esladi. O'z falsafasiga o'zi qarshi chiqqudek bo'lsa, talabasining ishonchini birmuncha so'ndirishi mumkinligini payqab, picha kalovlanib qoldi.

Umuman, sen haqsan, oz-moz yon bosgan bo'ldi u. Lekin, shuni unutmaginki, bugun sen ojizligi uchun sichqonni ayasang, ertaga u xo'roz gulli xaltangni ilma-teshik qilvoradi. Ojizlar ikki xil bo'ladi, azizginam. Tirikchilik jangida beayov bo'l, g'aflatda qoldirmasang, g'aflatda qolasan.

Zargar so'zini tugatib, xavotirli qiyofada seyfga tikildi. Davlat hisobida turuvchi bu inventarni chorbog'dagi omborda qoldirib bo'lmasdi. Lotereyalarning ham bahridan o'tgan ma'qul edi. U pattalarni qaytadan seyfga solishni, seyfni esa ikki chaqirim naridagi ko'lga cho'ktirib yuborishni buyurdi. Sho'rlik Avtobola o'zi ko'tarib kelgan dahmazani yana orqalashga majbur bo'ldi.

Cho'talning barakasi qochdi-ku, Avtobola ketgach, yerda yotgan bir to'p pulga nokaslik bilan ko'z qadadi Supersur. Aslida, kassani ursayam bo'larkan.

Kassada signalizatsiya bor, dedi zargar. Qolaversa, ishchilar kecha maoshlarini olib bo'lishgan. Mening maqsadim otamdan qolgan paxta zavodidan ulushimni tortvolish emas, Avtobola bilan shunchaki amaliy mashg'ulot o'tkazish edi.

Bekxo'ja zargar o'zining tadbirkorligidan faxrlanib, mag'rur ko'krak kerib qo'ydi.

"Eh, Kamol Kamtariy, Kamol Kamtariy! nimadandir o'chkor kimsalarga xos qiyofada yupqa, xushbichim labini zaharxanda burib, xayolga cho'mdi u. Bir paytlar pullarimning qudratiga shak keltirib, bir umrga tatiydigan xatoga yo'l qo'yding. Men seni o'zing uchun aziz bo'lgan ko'pgina narsalardan bebahra qildim, har qadamda ruhan azob berdim, hayot dasturxonindan lazzatni birma-bir tortib oldim. Sen tanholik iztiroblaridan qutulish uchun o'zingga temir ovunchoq yasading. Lekin, Avtobolang hali ko'z ochishga ulgurmay, seni yana judolik botqog'iga cho'ktirdim. Bundan bir necha yil avval "iste'dodsiz va maishatparast", deb o'z assistentingni vazifasidan chetlatding, ilmiy ishini chippakka chiqarding. Xuddi o'sha iste'dodsiz shogirding Avtobolangni oyoqqa turg'izib berdi, bizga uning nozik sirlarini o'rgatdi. Bularning hammasini men emas, mening pullarim qildi. Mening kuchim mening pulimda. O'sha pul yordamida, agar xohlasam, seni hatto unvonlaringdan ham benasib qilishim mumkin edi. Ammo, buni istamadim. Chunki, raqib qanchalar nomdor bo'lsa, u bilan olishish shuncha gashtli. Men qarshimda ojiz kimsa emas, balki bir vaqtlar ilm-u fanning qudratiga astoydil sajda qilgan, endilikda o'sha qudratni turli unvonlar vositasida o'zida mujassamlashtirgan mashhur Kamol Kamtariy ruhan murdaga aylanishidan zavqlanaman. Sen hozircha o'zingni tetik tutayotgan bo'lsang-da,

ingrayotganingni eshitib turibman. Ingrayotgan ekansan, demak pulning bilaklari kuchlilik qilyapti. Ha, pul kuchli!"

Oltin tuzoq va mikromayoq

Mayor Ahmedov professor bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rab bo'lgach, divanga o'tiriboq asosiy gapga o'tdi.

Nega kelganligimni aytmasam ham bilib turgandirsiz, deya suhbatdoshiga yuzlandi u. Shahardagi shov-shuvlardan hurmatli professor bexabar qolmagandirlar?

Xabarim bor, asta bosh qimirlatdi Kamol Kamtariy. Hammaning og'zida Avtoo'g'ri.

Tasodifan tirik qolgan qorovul chol temir talonchining ishlarini aytib berayotganida Avtobolaning imkoniyatlari haqidagi so'zlaringiz beixtiyor yodimga tushdi, professorning ko'nglini avaylab gapirdi mayor.

Kamol Kamtariy bu talonchilikka go'yo shaxsan o'zi rahbarlik qilgandek, gunohkorona bosh egdi.

Ha, u mening Avtobolam, dedi chuqur homuza tortib. Boshqa biron-bir robot bunday puxtamon ish qilishi mumkin ham emas.

Mayor professordan ruxsat so'rab, sigaret tutatdi. Al-Xorazmiyning devordagi suratiga tikilganicha sigaretni bosib-bosib tortdi-da, suhbatdoshiga qarab dedi:

O'sha bezori sizning Avtobolangiz ekanligini bo'yingizga qo'yish uchun kelganim yo'q bu yerga. Sizdan yordam so'ramoqchiman. Professor mayorning ko'zlaridan uning fikrini uqib olishga tirishib, sinchkovlik bilan razm soldi.

Aytmoqchisizki... avtobezoriga qarshi avtoizquvar yasab...

Yo'q, menimcha bu haddan tashqari ko'p vaqtni oladi, uning gapini bo'ldi mayor. Menga... bizga mikromayoq kerak.

Nima?

Oddiy mikromayoq. U iloji boricha ko'zga tashlanmaydigan, keyin magnitli bo'lsa devdim. Ana undan so'ng "Oltin tuzoq" operatsiyasini boshlasak ham bo'laveradi.

Mayor o'ylab topgan bu tuzoq juda jo'n va ishonchli edi shaharda qadimiy noyob oltin bezaklar ko'rgazmasini tashkil etish kerak, degan qarorga kelgandi u. Bu ulgurji o'lja Avtobolani o'z chig'irig'ida o'ynatayotgan to'daning e'tiboridan chetda qolishi mumkin emasdi. Mayorning rejasiga ko'ra, mikromayoq yirikroq bezaklardan biriga yopishtirib qo'yilar, so'ngra, bu chinqarcha uskunadan tinimsiz kelib turadigan signal yordamida talonchining iziga tushish imkoni tug'ilardi.

Umuman aytganda, ancha qiziq narsa o'ylab topibsiz, dedi professor. Lekin mikromayoqning nima keragi bor? Avtobolani o'sha ko'rgazmaning o'zida bemalol

tutib olishingiz mumkin. Masalan, o'ta mustahkam qafas yasab...

Mana shu yerga kelganda izquvar emasligingizni sezdirib qo'ydingiz, sigaret kulini qoqayotib gapni ilib ketdi mayor.

Qulfbuzardan ko'ra, unga buyruq berayotganlar meni... bizni ko'proq qiziqtiradi. Agar Avtobolani qo'lga olsak, o'z boshliqlarining qaerdaligini osongina aytib beradi deb o'ylaysizmi?

Avtobola bilan ochiqchasiga gaplashish uchun eng avvalo uning ishonchini qozonish lozim edi. Aks holda, uni hech qanday kuch bilan hech narsaga majbur qilib bo'lmasligini professor yaxshi bilardi. Uning ko'nglini topish, to'g'ri yo'lga solishga esa talay vaqt kerak bo'ladi. Lekin, mayor uchun har bir daqiqa g'animat, u asosiy jinoyatchilarni tezroq qo'lga tushirish haqida o'ylayapti. Nega tezroq? Agar shoshilmasa, butunlay kechikishi mumkin. Uning ishi shunaqa.

Kamol Kamtariy andak sukut saqlab turgach, o'z o'g'lining odobsizligidan xijolatga tushgan otadek iymanib, mayordan so'radi:

Paxta zavodidan qancha pul o'g'irlanibdi o'zi?

Hozircha uncha ko'p emas, "hozircha" degan so'zga alohida urg'u berib gapirdi mayor. Menimcha, Avtobolani shunchaki sinab ko'rishgan bo'lsa kerak.

Sinab ko'rishgan?

Ha, bunga ishonchim komil. Agar zudlik bilan oldi olinmasa, Avtobolangiz... kechirasiz, o'sha temir qaroqchi hali ajabtovur karomatlar ko'rsatishi mumkin... Xullas, mikromayoq qancha tez bitsa, shuncha yaxshi.

Diqqati oshgan professor mayor ketgandan keyin xonada uyoqdan-buyoqqa tinimsiz aylanib yurdi.

Bu qanday gap? Professor Kamol Kamtariy nodir apparatini eng pokiza orzu-umidlar bilan yaratmaganmidi? Nahotki, uning temir bolasi bugun birovlarini muttahamlarcha talayotgan bo'lsa?

Bugun talayapti! Ertaga qotillik qilsa-chi? Unda, kekxa olim odamlarga qaysi yuz bilan qaraydi? Men buni istamagandim, uni boshqalar yo'ldan urishdi, deyish bilan o'zini oqlashi mumkinmi?

"Axir sen juda royishli eding-ku! alam bilan lab tishladi professor. O'sha kuni ko'zlaring shunaqayam samimiy chaqnagan ediki..."

O'sha kun professorning sirayam yodidan chiqmaydi. "Yettinchi sayyora" firmasiga oltin akkumulyator buyurishdan oldin Avtobolani har ehtimolga qarshi sinab ko'rmoqchi bo'ldi uning "tomirlari"ga o'n ikki voltli elektr tokini yubordi. Xona burchagiga suyab qo'yilgan, kallasi quyi solinib, oyoq-qo'li shalvirab turgan Avtobola asta-sekin qaddini rostladi, boshini o'ngu so'lga burib, xonadagi buyumlarni, al-Xorazmiyning devordagi portretini diqqat bilan ko'zdan kechirdi va nihoyat Kamol Kamtariyga tikilganicha turib qoldi. Professor unga jilmayib boqarkan: "Xo'sh, ahvollar qalay, Avtobola?" deya uning spiralsimon metallardan mayin qilib yasalgan jingalak sochini siladi, "bardam bo'l, yana bir necha kun sabr qilishingga to'g'ri keladi", degan mazmunda yelkasiga qoqib qo'ydi.

Avtobolaning barcha qismlari bekamu ko'st ishlayotganiga ishonch hosil qilgan professor kuchsizlantirilgan elektr tokini uzarkan, Avtobolaning qaytadan shalvirab qolganini ko'rib, negadir ko'ngli buzildi hayotga ilk marta nazar tashlash baxtiga muyassar bo'lgan begunoh go'dakni shu soniyadayoq bo'g'ib o'ldirgandek his etdi o'zini...

Kamol Kamtariy hozir ana shular haqida o'ylarkan, nigohida g'urur va cheksiz beg'uborlik aks etib turuvchi Avtobolaning qiyofasi ko'z o'ngida yana bir bor gavdalandi. Xonada uyoqdan-buyoqqa yurishdan to'xtalib, hozirgina dardchillik yog'ilib turgan nursiz ko'zlarini qattiq yumganicha, joyida qotib qoldi. Shu turishda o'zicha ma'yus shivirladi:

Seni nima qilib qo'yishdi, bolaginam!

O'q o'tmas talonchi

Mamat-millioner kimyogarlari shaharchasidagi do'konlardan pul solingan qopchiqlarni yig'ishtirib bo'lib, "Volga" mashinasining orqa o'rindig'iga yastanganicha shahar tomonga yo'l oldi. To'g'risini aytganda, u hech qanaqa millioner emasdi, o'rtamiyona maoshini u oydan bu oyga uchma-uch yetkazar, to'qqiz nafar bolasini yasantirishdan orttirib, o'zi durustroq kostyum ham sotib ololmasdi. Salkam o'ttiz yildan beri inkassator bo'lib ishlayotgani, qo'lidan kuniga o'n ming so'mlab pul o'tib turishi tufayli ulfatlari unga ana shunday dabdabali laqab qo'yishgandi.

Kimyogar shaharcha bilan shahar oralig'idagi o'n besh kilometrlik masofada jizg'anak dashtlik yastanib yotar, hozirda yam-yashil daraxtlar va anvoyi gullarga burkangan shaharchaning o'rni bundan bir necha yil ilgari xuddi mana shunday tap-taqir joy bo'lganiga kishining ishongisi kelmasdi.

Mamat-millioner bu yovvoyi manzarani, kim biladi, nechanchi bor his-hayajonsiz tomosha qilib borarkan, bugun o'rtancha qizining tug'ilgan kuni ekanligi birdan yodiga tushdi. Qanday sovg'a olgani ma'qulligi haqida o'ylab, jag'ini siladi. Lekin, o'yini oxiriga yetkazish unga nasib qilmadi bir qo'lini yuqori ko'targanicha yo'l yoqasida gerdayib turgan temir odamni ko'rib, ko'zlari olayib ketdi.

To'xtama! shofyorning yelkasiga nuqib baqirdi u. Bu o'sha! Avtoo'g'ri!

Shofyor ko'proq gaz berib, mashinasini g'uwillatganicha yo'lto'sarning yonginasidan o'tib ketdi.

Tezroq hayda! to'pponchasini yalang'ochlab, orqa oynakka o'girilib olgan Mamat-millioner haydovchini battar qistashga tushdi. Avtoo'g'ri bizni quvib kelyapti!

Mashina spidometri tobora yuqori tezlikni ko'rsata boshladi: 100... 110... 120... 130...

Yanayam tezroq! chinqirdi Mamat-millioner.

Nayzacha soatiga 140 kilometr tezlikni ko'rsatgan vaqtda shaldiraq mashinaning motori ingraganga o'xshash tovush chiqarib, tunuka devorlar zirillab titray boshladi. Bu eng oxirgi tezlik edi.

Ularga qaldirg'ochdek shitob ila yaqinlashib kelayotgan Avtobola oxiri mashinaga yetib olib, jahd bilan tunuka tomga mushtladi. Tomning lagandek joyi ichkariga botib ketdi. O'takasi yorilayozgan Mamat-millioner issiq havoda oynasi tushirib qo'yilgan orqa eshikning derazasidan temir qaroqchiga qarata ketma-ket o'q uzdi. Avtobola deraza girdidan mahkam ushlab olganicha mashina bilan hanuz yonma-yon chopib borarkan, ko'zlarini lo'q qilib, ichkariga mo'raladi.

Hey, to'nka! dedi u o'dag'aylovchi qiyofada. Men bilan yana "urush-urush" o'ynaydigan bo'lsang, mo'ylovingni yulvolaman.

Temir qaroqchiga hatto o'q ham ta'sir qilmaganini ko'rgan Mamat-millioner vahimadan angrayganicha qarshi tomondagi burchakka qapishib qoldi. Avtobola mashinaning oldingi derazasiga o'tib, bir qo'li bilan rulni changalladi.

To'xta! baqirib buyruq qildi u. To'xtamasang, mashinangni burib yuboraman. Ana unda, oyog'ing osmondan bo'lishini ko'rsan. Shofyor noiloj tormozni bosdi. Avtobola eshikni ochib, qo'rquvdan dag-dag' titrayotgan shofyorni tashqariga sug'urib olgach, uni yo'lning narigi chetiga koptokdek uloqtirib yubordi-da, kela solib yana Mamat-millionerga xuruj qila boshladi.

Daromadni yaxshilikcha buyoqqa cho'zib qo'y, dedi u orqa eshikni ochib, temir panjasini tajovuzkorlik bilan ichkariga uzatarkan. Jinnimisan?! qopchiqlarni ko'ksiga bosib shang'illadi Mamat-millioner. Bular davlatni puli-ku, esi past!

Kimnikiligi bilan nima ishim bor? surlanib javob qildi Avtobola. Pul davlatniki bo'lsa, olmagin deyishmagan menga. Qani, cho'z daromadni.

Mamat-millioner ham bo'sh kelmadi.

Buning javobgarligi katta, ho', bola, barmog'ini bigiz qilib, yuqorini ko'rsatdi u. O'zbekiston jinoyat kodeksini o'qiganmisan o'zing? Bunaqa qalloblik uchun seni temir-tersakka topshirishadi, hov!

Kallamni ko'p qizdirma, Avtobola ichkariga bosh suqib, qopchiqlardagi pullarni xashak yig'ayotgandek g'ijimlab-g'ijimlab, xo'roz gulli xaltachasiga tiqa boshladi.

To'xta deganda to'xtamaganing uchun ikkalangniyam chalpak qilib tashlasam bo'lardi-yu, kuchsizlarni o'ldirish mardlikka kirmaydi-da.

U yig'ma zanjirni tortib xaltachaning og'zini berkitgach, orqaga tisarilarkan, barmog'ini labiga bosib xo'mrayganicha dedi:

Damingni chiqarma! Tsh-sh-sh!

Mamat-millioner es-hushini yig'ib olib, qo'rqa-pisa ortga o'girilgan damda, ko'k xaltali temir qaroqchi dashtni changitganicha "reaktiv tezlik"da ulardan uzoqlashib borayotgandi.

Bu voqeadan keyin Avtoo'g'ri haqidagi mishmishlar shaharda yanayam avj oldi. Kishilar har joy-har joyda to'planishib, o'zaro gap talashishar, ular o'rtasidagi bahs goho soatlab davom etardi:

"Volga"ni quvib yetibdi-ya...

Bir mas'ul o'rtoqdan eshitdim soatiga besh yuz bosarmish xumpar...

Bankning moshinasini shilganidan keyin... Bo'lganicha bo'pqolgandir, a?

Buni qarangki, varanglatib peshanasidan otishsa, pinaginiyam buzib qo'ymabdi...

Nima bo'lgandayam, ushlar kerak o'sha o'g'rivachchani...

Buni endi o'zing bopalarsan, oshna. Yaqin orada "assalomu alaykum" deb derazangdan kirib qolsa, qo'ldan chiqarmaysan-da. Vax-xax-xa, vax-xax-xa...

Pufak momo

Xoldor o'zining yoshiga nomunosib ravishda o'ta qo'rs va tajang edi. U chuqur botgan ko'zlarini chaqchaytirganicha kishiga zimdan xo'mrayib boqar, xiyol do'rdoq lablarini arazgo'ylik bilan cho'chchaytirib gapirar, achchig'i kelganda cho'ziq qoshlari burni ustida tutashib, do'ng peshanasi xamirturushdek tirishib ketardi. Undagi bu qadar jizzakilik sababini faqat arzandalik, haddan ziyod erka-tantiqlik, atrofidagi shaxslarning badfe'lligidan izlash noto'g'ri bo'lardi. Tashqi muhit bilan deyarli aloqada bo'lmaslik, harakat doirasining torligi, tengdoshlari bilan quvna, dil g'ashliklarini dala-dashtga sochib kelish imkonidan mahrumlik; ona mehri, tabiat og'ushiga, erk va poyonsizlikka bo'lgan instinktiv tashnalik uning murg'ak asabiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagandi.

Supersur o'zining shalog'i chiqqan "Zaporjets"ida (Xoldor uni "qo'ng'iz moshina" derdi) ba'zan ota-bolani sayr qildirib kelishi hisobga olinmasa, u aytarli ko'cha yuzini ko'rmay katta bo'ldi. Faqat, dadasi temir o'rtoq olib bergandan keyingina (ha, Xoldor Avtobolaga dadasi tomonidan ataylab uning uchun sotib olingan ovunchoq sifatida qarardi), kunlari ancha quvnoq kecha boshladi. Bundaqangi ajoyib oshna bilan o'ynab, kim ham zerikardi deysiz?

Chorbog' etagidagi omborxonada yonida Avtobolani toychoqdek minib yurgan Xoldor ravotga tutash qurilgan shiypon ostida Supersur mashinasini kavlashtirayotganini ko'rib, dili ravshan tortdi. "Toychoqdan" sakrab tushib, shiyponga kirdi.

Hey, Super, yana shaharga oborasanmi bizni? ikkala qo'lini biqiniga tirab turib so'radi u.

Motorga yonilg'i yetib kelmayotganining sababini aniqlolmay xunobi oshib turgan Supersur Xoldorga o'qrayganicha bir qarab qo'ydi-yu, indamay ishini davom ettiraverdi. Yana picha uymalangach, qo'lidagi ombirni jahl bilan yerga uloqtirib, shiypon chetidagi supachaga borib o'tirdi, moyga belangan qo'llarini irkit lattaga shoshilmasdan arta boshladi.

Xoldor takabbur Supersurning ahvoli tangligini ko'rib, "battar bo'l", deya o'yladi ich-ichidan quvonib. Keksa ovsar bilan o'chakishishdan zavq olib o'rgangan quv bolakay uning yarasiga tuz sepish uchun ataylab haqoratomuz ohangda gap qotdi:

Yangi moshina olsang o'lasanmi, kal?

Lekin Xoldor bu safar noumid qoldi. Supersur o'z odatiga ko'ra tutoqib bo'ralash o'rniga unga qiya boqib, mayna qilayotgandek, yasama tirjayish bilan ming'irladi:

Shu aqlni dadalariga o'rgatsalar qalay bo'larkin?

O'zingdayam mana shuncha til bor, deya qulochini yozib ko'rsatdi Xoldor, borib aytaver-da.

Aytib ko'rganmiz, siyrak tishlari orasidan "chirk" etkazib tupurib qo'ydi Supersur. Xo'sh, xo'jayin nima deb javob qilganini biladilarmi?

Xoldorning indamay turganini ko'rgan Avtobola, shosha-pisha gap qistirdi.

Ezmalik qilyapsan, Supersur. Xo'jayin senga nima deganini Xoldor qayoqdan biladi?

U kishi, gap xudo haqda ketayotgandek, ikkala qo'li bilan osmonga ishora qildi Supersur, mol-dunyong qanchalik ko'paysa, shuncha seryamoqroq ishton kiy, dedilar.

Qanaqa... ishton? serrayganicha so'radi Xoldor.

Supersur indamay o'rnidan qo'zg'alib, allaqanday qo'shiqni xirgoyi qilganicha hovli tarafga keta boshladi.

Tamom! dedi Avtobola uning ortidan sinchkov boqib. Super tamom bo'пти. Miyasi buzilganga o'xshaydi. Sen moshinadan gapirsang, u ishtondan kelyapti.

Keyin, Supersurning yo'qligidan foydalanib, ikkalasi mashinani o'ynashga tushdi. Xoldor rulga o'tirdi, Avtobola uning yonidagi o'rindiqqa cho'kdi. Xoldor rulni uyoqdan-buyoqqa aylantirib, "dr-r, dr-r", deya og'zidan tinimsiz tupuk sachratar, Avtobola esa ora-sira "bip-bibip", deb tovush chiqarib qo'yardi.

Moshina tuzalsa, seniyam o'ynatgani oboraylikmi? rulni alg'ov-dalg'ov burashda davom etib so'radi Xoldor. O'zi kichkina bo'lsayam, juda tez yuradi bu.

Baribir, mendan o'tolmaydi, maqtandi Avtobola.

Temir o'rtog'ining beqiyos darajada chopqirligidan hanuz bexabar yurgan Xoldor unga ko'zini olaytirib boqdi.

Jinnimisan o'zing? Buni qo'ng'iz moshina deb qo'yibdi!

Men bilan hazillashma, qizishdi Avtobola. Hakkalab yurganimdayam, bundaqa qo'ng'izlaringdan o'tib ketaman, bildingmi!

O'tasan-a, o'tasan!

Ke, garov o'ynaymiz, battar achchig'landi Avtobola.

Bo'пти. Nimadan o'ynaymiz?

To'pponchangdan. Men yutqazsam, fonarimni beraman.

Ular mashinadan tushishgach, Avtobola darvozaning og'ir temir tambasini osongina chetga olib, Xoldorni tashqariga yetakladi.

Ikkalasi chorbog'ning orqa tomonidagi chakalakzordan o'tishib, adir etagiga chiqib borishdi.

Ko'pdan beri uning havasini keltirib yurgan to'pponcha nihoyat butunlay o'ziniki bo'lishiga shu topda zarracha shubha qilmayotgan Avtobola "qani, yelkamga min-chi", deya yerga cho'nqaygan paytda, Xoldor qarshisida birdan namoyon bo'lgan cheksizlikka suq bilan boqqan kuyi karaxtlanib qolgandi. U umrida birinchi marta bugun o'z ixtiyori bilan chorbog'dan tashqariga chiqqandi va oyoqlari ostidagi bo'rsiq tuproqqa, ana shu tuproqqa jon-jahdi bilan yopishganicha tinimsiz titrayotgan qovjiroq giyohlarga, bu giyohlarning za'faronligidan motamsaro tus olgan qat-qat o'rkachlarga, o'rkachlar uzra omonatgina hilvirab turgan oppoq bulutlarga ham endilikda o'z ixtiyori erkin nigohi bilan tikilayotgan edi.

Tezroq bo'lsang-chi, hey! Xoldorni qistashga tushdi Avtobola. Min deyapman senga!

Xoldor hushini to'plab, temir o'rtog'ining yelkasiga tirmashdi. Avtobola o'rnidan turib, yaxshiroq o'rnashdimi, yo'qmi, bilib olmoqchidek, uni bir-ikki silkiib ko'rdi.

To'pponchangdan umidingni uzaver endi!

U shunday dedi-yu, adir o'rkachlari orasiga yashil kamardek singib ketgan soy tomonga qarab chopdi.

Qalay, akkumulyatoring po'killamayaptimi? Avtobola yo'l-yo'lakay kallasini salgina yonga burib savol berdi.

Shuyam yugurishmi? uning qitiq patiga tegdi Xoldor. Ja borsa, itchalik choparkansan-da.

Avtobola, "unaqa bo'lsa, bo'ynimdan mahkamroq quchoqla", deb qichqirdi-yu, tezlikni tobora oshira boshladi. Avvaliga bundan Xoldorning zavqi oshib, "chu, toychog'im", deya soni bilan uning biqiniga niqtadi. Keyin soy yoqasidagi sarv va qirchinlarning ko'z oldidan borgan sari shuvalashib o'tayotganidan boshi aylanib, yuragiga vahima tushdi. Oxiri Avtobolaning bo'yniga o'rgimchakdek yopishib olib: "To'xta endi! Bo'ldi deyapman-ku!" deb baqirishga tutindi.

Avtobola sekinlay bordi, nihoyat sohildagi shag'alni to'zg'itgudek bo'lib taqqa to'xtadi. Xoldor uning orqasidan sirg'alib pastga tushgach, xuddi o'zi yugurgandek hansirab, yerga o'tirdi.

Tuzuk choparkansan, Temirtak, sir boy bermasdan, parvosiz boqib gapirdi Xoldor. Ke, endi damingni ol.

Xoldorning unga chin yurakdan qoyil qolmaganini sezib, Avtobolaning g'ashi keldi.

"Bu g'irromchi bilan ish bitirish qiyyin, o'yladi u. Bilib turibman, qo'ng'iz moshina sendan tezroq yuradi, deb turib oladi hali.

Fonarimni olib bo'psan!"

Charchaganim yo'q, zarda bilan javob qildi u. Xohlasam, bundanam uzoqqa, bundanam tezroq yuguraman. Nima deb o'ylayapsan meni!

Maqtanma.

G'irromchi! Surbet! jazavasi tutdi Avtobolaning. "Bo'ldi endi, to'xtayqol", deb yalingan kim? Durustroq yugurishga qo'yilding-ku o'zing.

Xoldorning yana quvligi qo'zidi.

Shunaqami hali? Unda, ho' anavi oxirgi do'nglikka to'xtamasdan borib kel-chi, qo'li bilan eng yuksak o'rkachni ko'rsatdi u.

Avtobola bu gapdan aslo talvasaga tushmadi.

Nima qipti? Zuv etib boraman, zuv etib kelaman. Keyin, to'pponchangni berasanmi axir?

Ha, mayli...

Achchig'i chiqib turgan Avtobola g'ildiragi ariqchaga tushgan mashinadek ortga shag'al sachratib, shiddat bilan o'rnidan qo'zg'aldi, uning oyoq harakati amaldagi tezlik bilan mutanosiblashib olgunga qadarlik bo'lgan masofada omoch izini eslatuvchi chuqurcha hosil bo'ldi. Temir bolakay ovchi o'qiga chap bergan ohudek jadal uzoqlashib borar, o'rkachlar to'lqini orasida goh ko'zdan

yo'qolib, goh yana yuqoriga balqib chiqar, zum o'tmayoq uning eng yuksak do'nglik ustida paydo bo'lishiga shak keltirib o'tirishning hojati qolmagandi.

"To'pponchayam qulog'ini ushlab ketdi, Avtobola bilan bemavrid garov o'ynaganidan afsuslanib, bosh qashladi Xoldor. Kattaroq narsadan bahs boylasang, oymomogayam chiqib keladi shekilli bu Temirtak".

Xayoli band bo'lib, soyning muyulish joyida toshlar shaldiray boshlaganini ham eshitmay turgan Xoldor: "Bu yerda nima qilyapsan, o'y, bacho? Kimsan o'zing?" degan tovush qulog'iga chalingandan keyingina, yonga o'girildi. Xurjun tashlangan eshak ustida to'lpoqqina qizchani oldiga mingashtirib olgan qoracha kampir yalpayib o'tirar, uning bo'rtib chiqqan ola ko'zlari xuddi niqob teshigidan boqayotgandek alohida yiltillab turardi. Eshak ham, eshakning orqa oyoqlari yonidan Xoldorga tajovuzkor ko'z tikkan tumshuqdor ko'ppak ham qozonkuyadek qop-qora edi.

Men bilan nima ishingiz bor? kampirning bu yerdan tezroq jilishini istab, sovuqqina javob qildi Xoldor. Keyin uning haliveri joyidan jilish niyati yo'qligini payqab, qo'shib qo'ydi. O'zingiz kimsiz?

Ana xalos-o-s! tizzasiga shapillatib urdi kampir. O'y, bacho, san o'zimizni mamlakatdanme, yo Farangistondin keldingmu? Shu deparadagi bandayi bejanoza borki, eshagimni hangrashiydin taniydu mani. Pufak momo degan dono kampirni eshitgan bo'lsang, anqayub armonda qolmaginki, shundoq nishoningda turibman. Yaxshilab salom ber manga.

Salom... pufak kampir.

O'y, bacho, san o'ylamagin bu mamone semizligi tupaylin "pufak" deydilar deb, kuyundi kampir. So'ng quchog'idagi qizchaga ishora qilib, davom etdi. Mana shundoq go'dak edim man, bolalarga pufak sotishne boshlaganimda.

Pufak deysizmi? bir kuni navbatdagi sayrga chiqishganda Supersur unga shaharda rang-barang pufaklar olib berganini eslab, kampirga umidvor termildi Xoldor.

Mengayam berasizmi?

Pufak momo ko'rsatkich barmog'ini boshmaldog'iga ishqab, pishillaganicha dedi:

Avval haqqine cho'z, o'rgulay. Axir cho'ntagingda bir-ikkita tanga turgandirki, mandan pufak so'rab yo'limga ko'ndalang bo'lding. Xoldor dastavval ko'ylagining ko'krak cho'ntagiga, so'ng baxmal shimchasining kissalariga beixtiyor qo'l tiqib ko'rdi-yu, birdan bo'shashib, kampirga yana mo'ltillab qaradi. Pufak momo esa umrida hatto ignaniyam birovga nasiya bermagandi. Shu tufayli, bolakayda sariq chaqa ham yo'qligini allaqachon anglagan bo'lsa-da, undan biron narsa undirishdan hamon umidini uzmay so'radi: Hech bo'lmasa, shisha-pishang yo'qme? Ichmaydimu dadang battol? Man xasis emasman, lokigin...

"Shig'-g'-g" etgan g'ayritabiyyi tovushni eshitib, Pufak momoning so'zi bo'g'zida qoldi, bag'baqasini yelkasiga tiraganicha o'ng yonboshiga o'girildi. Adirni changitib marradan qaytib kelayotgan Avtobola tarafga qo'lini peshanasiga soyabon qilib astoydil zehn soldi.

Buyoqqa nima to'palon, o'y, bacho? mazangcha shevada hayrat izhor qildi u. Manga mo'ljal tortib kelaturgoning poygachi matasepkilme, eshagimdan hid olgan mo'chaxarme?

Qo'rqmang, garchi kampir shu chog'da o'zini vazmin tutishga tirishayotgan bo'lsa-da, hali zamon vahimaga tushishi mumkinligini his qilib, oldindan unga dalda berdi Xoldor. O'zimni o'rtog'im u.

Ularga daqiqa sayin yaqinlashib kelayotgan Avtobolaning hayratomuz turqi-tarovati aniq ko'zga chalina boshlagach, Pufak momoning birdan ensasi qotdi. Allaqanday yarqiroq narsa qarshisiga kelib, to's-to'polon bilan to'xtagan mahalda vasvasaga tushgan eshak shataloq otib irg'ishlay ketdi. Og'ushidagi qizchani mahkam quchganicha shag'al ustiga gupillab yiqilgan Pufak momo joni bejo eshakning yuganini hanuz qo'yib yubormay, o'z tilida allanimalar deb qarq'anar, kapalagi uchgan qizcha potirlab yig'lar, qari ko'ppak esa tishlarini girak qilib, tinmay irillardi.

Ol, Qorayaloq! Us-s... ko'ppakka qarab qichqirdi Pufak momo. Ol-a kish-kish!

Qanchadan-qancha kaltak va siylovlarni boshdan kechirgan, gohida qattiqqo'l, gohida saxiy bekasining barcha amr-u farmonlarini so'zsiz bajarib o'rgangan tamagir it bu safar ham o'ylanib o'tirmay o'zini raqibga otdi, lekin Avtobola uning zarbasidan hatto chayqalib ham qo'ymadi. Bundan jahli chiqqan Qorayaloq raqibining to'pig'idan tizzasigacha astoydil g'ajib ko'rdi.

Qoqilgan qoziqdek hamon qimir etmay turgan Avtobola ko'ppakning xurujini hayron bo'lib kuzatar, "bu nima qilyapti o'zi", degandek, Xoldorga savol nazari bilan qarab-qarab qo'yardi.

Qattiq terili notanish mavjudotning quyi qismi bilan bo'lgan jangda ishi o'ngidan kelmagan Qorayaloq nihoyat hujum uslubini o'zgartirishga qaror qildi: o'zini chekinayotgandek ko'rsatib biroq orqaga tisarildi-da, kutilmaganda bor basti bilan raqibining bo'g'ziga sapchidi. Ko'ppakni havodayoq ilib olgan Avtobola qo'g'irchoqni tomosha qilayotgandek, uning uyoq-buyog'ini ag'darib ko'rdi, bir qo'li bilan og'zini kerib, tish, til va tanglaylarini qiziqib ko'zdan kechirdi, oxiri dumidan ushlab turib, avaylabgina chetga uloqtirdi. Itning g'ingshiganicha uchib borib, yerga muvaffaqiyatsiz qo'nganidan sarosimaga tushgan eshak bir siltanishda jilovini egasining qo'lidan yulqib oldi-yu, sira ikkilanmay, o'zini soyga tashladi.

Xudo urdi maniy! qo'llarini ikkala soniga to'xtovsiz shapillatib, ayyuhannos soldi Pufak momo. Eshagim oqde! Xonimonim xurjunda ketdu-u!

Qizcha ham kampirga qo'shilib, battardan chinqirishga tushdi.

Muncha dodlaysiz? kampirga do'q urdi Avtobola. Tutib kelaymi eshakni? Shallaqilikni to'xtating!

Yo xoliq! yoqa ushlab, Xoldorga yuzlandi Pufak momo. Buningniy qo'l-oyoqlik pechka desam, mani odamday haqorat qildi, So'ng Avtobolaning poyiga yiqilgudek bo'lib, yalina ketdi. O'rgulib ketoyin sandan, Cho'yan palvon, qo'lingdan kelsa, xurjunimni tutib kel. Mandek donoga vafo qilmagan ahmoq xangivachchaniy boshshimga uramanme?

Bo'pti. Ammo-lekin, endi baqirilmasin.

Avtobola dangal borib, soyga kalla tashladi. Temir o'rtog'ining shu sho'ng'iganicha bedarak ketganidan yuragi bezovta tepa boshlagan Xoldor kampirga g'azabnok yuzlanib, qichqirdi:

Eshagingdan o'rgildim! Temirtakni cho'ktirding-ku, yalmog'iz! Kallangni uzvolaman hozir!

Agar Xoldor kattaroq yoshda bo'lganida, ilgarilari unga temir ovunchoq bo'lib tuyulgan Avtobola asta-sekin jonajon do'stiga aylanib qolganini, endi uning musaffo quvonchi-yu, bezarar injiqliklarisiy yashash deyarli mumkin emasligini ushbu damda butun ong va vujudi bilan anglab yetgan bo'lardi. Ko'zlaridan daf'atan tirqirab chiqqan yosh uning ko'nglidagi ana shu kechinmalarni hech bir izohsiz bayon qilayotgan edi.

O'y, bacho, manda ayb yo'q, keng yenglarini bayroqdek hilpiratib, qo'llarini yoydi Pufak momo. O'rtog'ing jinni bo'lganme? O'zi cho'yan bo'lsa, ha endi, cho'milishni kim qo'yibde... mana shundoq soyda. U qo'lini shop qilib, guvlab oqayotgan soyni ko'rsatdi-yu, birdan quvonch bilan qiyqirib yubordi. Qara! Hu ana, Cho'yan palvonne boshi ko'rindu. Cho'kmabde yer yutgur.

Xoldor shosha-pisha ko'zyoshini artib, kampir ko'rsatgan yoqqa qaragan pallada, tinmay tipirchilayotgan Avtobola asov to'lqinlar beshigida lipanglaganicha oqib borayotgandi.

Qirg'oqqa qarab suz, Temirtak! Nima qilasan o'sha eshakni?

Sohil bo'ylab beixtiyor yugura boshlagan Xoldor hali gapini tamom qilmay turib, o'rtog'i oqib borayotgan joyda suv to'zoni paydo bo'ldi. Xoldorning yuragi hapriqib, angrayganicha to'xtalib qolgan chog'da qo'l-oyoqlarini jon-jahdi bilan ishga solgan Avtobola to'zon ichidan torpedadek otilib chiqdi-yu, to'lqinlarni birin-ketin yorib o'tib, aql bovar qilmaydigan shiddat bilan olg'a suzib ketdi. Bir qarashda no'noqqina ko'rinuvchi Avtobolaning o'ta universal qilib yaratilganini, jumladan tanasi sof po'latdanligiga qaramay, ichki qismi g'ovakligi bois qo'l-oyoqlarning yengil harakati bilan ham suv sathida o'zini bermalol ushlab tura olishi mumkinligini Xoldor hali bilmasdi. Sirasini aytganda, bu shovvoz robot hatto uning imkoniyatlari bilan yaqindan tanish bo'lgan kishilarning yetti uxlab tushiga kirmagan mo'jizalar ko'rsatishga ham qodir edi.

Temir o'rtog'i suzib ketgan tomonga bo'ylaganicha angrayib turgan Xoldorning yoniga qizchani yetaklab yetib kelgan Pufak momo hozir va'z aytaman deb ogohlantirayotgandek, ma'nodor tomoq qirdi.

Yerda matasepkilday chopdu, suvda qilichbaliqday ketdu battol, yana javrashga tushdi u. So'ng qaddini egib, Xoldorga shivirladi. Mani aytdi dersan, bu o'rtog'ingne shayton bilan aloqasi bor.

Xoldor asta yonga burilib, hamon piqillab yig'layotgan qizchani pahmoq sochini qo'polgina siladi.

Yig'lama, o'rtog'im eshagingni ushlab keladi, deya ovuntirgan bo'ldi uni. Oting nima?

Childilag', hiqillab javob qildi qizcha.

G'ildirak?

Shildiroq! o'pkalangan qiyofada gapga aralashdi Pufak momo. Odamzotne g'ildirak deydilarmu hech jahonda? Bibi Shildiroq bu.

Vix-xax-xa! Vix-xax-xa! yana shumligi tutib, kula ketdi Xoldor. Kim bunaqa ot qo'ydi unga? Bibi Shildiroqmish. Vix-xax-xa!

O'y, bacho, mazaxlama mani nabiramne, odatiga ko'ra qo'lini shop qildi kampir. Bu otniy sanga o'xshagan bezorilar qo'ygan.

Man bolalar to'plansun deb chirmanda urib ashula aytaman, nabiram shildiroqni chalib turadu. O'ziniy oti Tojixon. Ana,

quloqchasini naryog'ida qizil narsase bor.

Xoldor qizchani boshini burib, qulog'ining orqasida qip-qizil dog' turganini ko'rdi.

Adash ekanmiz-ku, negadir sevinib ketdi Xoldor va ko'ylagining tugmasini yechib, yelkasini ko'rsatdi.

Mana, mendayam xol bor. Shunga otimni Xoldor qo'yishgan.

Unday bo'lsa, nabiramne qulog'ini tishla, ko'zlarini baqraytirib iljaydi Pufak momo. Shu qiz katta bo'lsun, keyin uni sanga beroyin.

Bu gapni eshitib, Xoldorning qizchadan asta chekinganini ko'rgan Pufak momo chapak chalib kula ketdi.

Kuyov qochde! Kuyov qochde! Qo'rqoq chiqdi kuyov pochchamez!

Xoldorni shu vaqtgacha hech kim bunchalik beayov masxara qilishga botinmagandi. Uning qovoq-lunji osilib, Pufak momoni ikkinchi marta sensiraganicha jerkib berdi.

Hey, Pufak kampir! Senga ermak bo'pmanmi? Kallangni uzvolmayin tag'in.

Uzoqdan eshakning hangragan tovushi eshutilib, endigina boshlanayotgan yangi nifoqning avj olishiga chek qo'ydi. Yelkasiga xurjun tashlab olgan Avtobola nihoyat taqdirga tan bergandek, endi itoatgoylik bilan odimlayotgan eshakni yetaklaganicha ular tomon odimlab kelayotgandi. Uchalasi beixtiyor uning istiqboliga yurishdi.

O'rgulib ketoyin sandan, Cho'yan palvonim, uzoqdan quloch yoyib, tinmay javrab borardi Pufak momo. Sani suvda uchirgon parraklarindin ayloyin.

Avtobolaning yoniga yetib borgach, uning bo'ynidan quchib, yaltiroq betidan qayta-qayta o'pa ketdi.

Ana shu eshakne kallasiday tillo berishsin-chi, man baribir uyda o'tirmayman, goh Avtobolaga, goh Xoldorga qarab, tushuntirishga tushdi u. Man erkinman, qayoqni o'ylasam, shuyoqqa jo'nayman. Endi aytgin, eshakdin ayrilsam agar, boshshimga qaro kun tushmaydimu? Eshagim bo'lsin-u, xurjunim bo'lmasin, och qolmaymanmu man battol?

Birozdan keyin ustiga ho'l xurjun, zilday kampir va uning to'lpoq nabirasini ortib olgan qora eshak "xr-r, xr-r!", deb qo'yib, hozircha faqat xo'jayiniga ma'lum bo'lgan manzil sari qo'zg'aldi.

Beh, itvachcha, beh! zada yeganidan buyon odamlarga yaqinlasholmay, narida ivirsib yurgan ko'ppakka tovush qildi Pufak momo. Yo'l-yo'lakay ortga o'girilib, ikki

O'rtoqqa quvnoq ko'z qisdi. Qorayaloqne yuzi shuvit. Endi mani ko'zimga qarolmaydu.

Xoldor erksevar kampirning ortidan ancha vaqt parishon termilib turdi. Azbaroyi uyga qaytishga oyog'i tortmayotganidan Avtobolaning, "ke, orqamga chiq, tezroq bormasak, Superdan baloga qolamiz", degan gapini ham eshitmaganga oldi.

Muncha tumtayasan? uning bu holatini navbatdagi muttahamlikka yo'yib, po'ng'illadi Avtobola. To'pponchani berging kelmayaptimi deyman? Bilaman-da sen g'irromchini.

Yo'q, shu topda Xoldorga to'pponcha ham, undan noyobroq buyumlar ham, hatto zeb-ziynatga liq to'la o'sha hashamdor uy ham kerak emasdi. U anavi paxmoqsoch qizaloqdek, Pufak momoning quchog'iga o'tirib olib, qay tomon bo'lishidan qat'iy nazar, uzoq-uzoqlarga ketishni orzu qilayotgandi.

Supersurning siri

Avtobola xayolidagi notanish kishining suratini chizib bo'lib, unga uzoq tikilib turdi, lekin bu odamni qachon, qaerda ko'rganligini aniq eslay olmadi. "Xo'sh, ahvollar qalay, Avtobola?" degan muloyim tovush uning quloqlari ostida takror va takror yangradi.

Nimalarni chizding, Temirtak? Xoldor kela solib rasm daftarni Avtobolaning qo'lidan yulqib oldi. Yulqib oldi-yu, birdan jiddiylashib, negadir u ham samimiy jilmayib turgan oqsoch kishining suratidan nigoh uzolmay qoldi.

Bu odamni ko'rganga o'xshayapman. Kim o'zi? so'radi u beixtiyor yuvosh tortib.

Bilmadim, dedi Avtobola. Menam uni ko'rgandayman-u...

Dadamdan baldoq-maldoq olgani kelganlardan bittasidir-da.

Avtobola temir kallasini asta saraklatib dedi:

Yo'q, men u bilan boshqa joyda ko'rishgandayman. Devorda sersoqol odamning suratiyam bor edi. Bu oqsoch kishi menga hatto gapirgan. Hammasi aniq esimda turibdi.

Xoldor o'siq kipriklarini pipiriraytib suratga qaytadan razm solarkan, dilida ana shu oqsoch kimsaga nisbatan mehr uyg'ongandek

bo'ldi.

Bir bo'lsa, mengayam gapirgan, dedi u o'yanchlik bilan. Tag'in, odamning tushida gaplashadigan sehrgar bo'lmasin? Tush? Nima u?

Shu payt xonaga lo'killaganicha Supersur kirib keldi.

Uxlash kerak, qashqirvachchalar, g'ingshidi u. So'ng Xoldorga qarab dedi. Paqirboshni uyquga yotqizib, o'zing ham xonangga pistirma qo'y.

Tashqi eshikning qo'ng'irog'i jiringlab qoldi-yu, u yana iziga qaytdi. Birozdan keyin Ko'rshapalak ikkalasi o'zaro g'udurlashganicha zargarning ishxonasi tomonga o'tib ketishdi.

O'ziyam uyqum kep qoluvdi, rasm daftarni yopib esnadi Xoldor. Qani, karavotingga cho'zil-chi, Temirtak, oldin seni uxlatayin bo'lmasa.

Avtobola imillab odimlaganicha borib, deraza yonidagi maxsus mustahkamlangan po'lat karavotiga yotdi. Xoldor uning ustiga kelib, chap ko'krak cho'ntakka o'xshatib yasalgan qopqoqni bamaylixotir ocha boshladi. Qopqoqni ochib, qizil tugmachani bosmoqchi bo'lib turganda Avtobola uning qo'lini beozorgina nari itardi.

Sen kirib uxlayver, tugmani o'zim ham bosib qo'yaveraman, deya asta do'rilladi u. O'zgina yotay-chi, yaxshiroq o'ylasam, haligi oqsoch kishini qaerda ko'rganim balki esimga tushar.

Tugmachani-ku bosasan, ammo-lekin qopqoqni qaytib yopolmay qolasan-da, Avtobolaning peshanasiga dangillatib chertdi Xoldor. Ehtiyot bo'l, tag'in ichingga sichqonlar to'lvolmasin.

Xoldor o'z xonasiga kirib ketgach (dadasi uning Avtobola bilan bir xonada uxlashiga negadir ruxsat bermasdi), Avtobola yuzini deraza tarafga o'girib yonbosh yotib oldi-da, yana oqsoch kishi haqida o'ylay boshladi. Uning ko'z o'ngida o'sha manzara qayta gavdalandi: mo'jazgina xona... istarasi issiq oqsoch kishi mehribon jilmayganicha unga tikilib turibdi... Keyin u: "Xo'sh, ahvollar qalay, Avtobola?" deya uning boshini siladi, yelkasiga bir urib qo'ydi... devorda esa sersoqol odamning surati... Ha, kattakon surat... Rangli surat...

Bularning bari, chamasi, juda qisqa vaqt ichida ro'y berdi, shunday bo'lganiga uning ishonchi komil. Faqat, davomini eslolmayapti...

U qaytadan ko'z ochganda, o'zini zargarning chorbog'idagi tamoman boshqacha muhitda ko'rib, picha hayratlangani ham yodida. O'sha oqsoch kishi kim edi? Hozir qaerda bo'lishi mumkin?

G'iyqillab eshik ochildi-yu, Avtobolaning xayoli bo'lindi. Nima haqdadir bahslashganlaricha xonaga Supersur bilan Ko'rshapalak kirib keldi, Avtobola qizil tugmachani bosishga ham ulgurmay qoldi. "Obbo, uyg'oqligimni bilsa, yana og'zidan bodi kirib, shodi chiqadi", deya o'yladi u va Supersurning, "apparating haliyam ishlayaptimi, paqirvachcha", degan gapini eshitib turgan bo'lsa-da, uxlayotgandek jim yotaverdi.

Tinchibdi durandulet, deb qo'ydi Ko'rshapalak.

Xo'jayin qo'yib bersa, o'lsam ham bu bilan bitta xonada uxlamasdim, g'udrandi Supersur. Ba'zan alahsib uyg'onib ketaman-u, arvohek yarqirab yotganini ko'rib, naq bo'lmasa shaytonlab qolay deyman.

Ular stullarni g'ijirlatib o'tirishgach, "charsa-churs" qarta o'ynashga kirishdilar. Gohida qartani shunaqayam zarb bilan urishardiki, stol ustidagi shishalar bir-biriga tegib, jaranglab ketardi. Xonani tamaki tutuni va araqning badbo'y isi qamrab oldi. Tez-tez jirrakilik qilib turishiga qaraganda, Ko'rshapalak ko'proq yutqizayotgan edi. Oxiri u stolga qo'lini shapillatib urib, ho'kizdek xirilladi:

Pulim tamom... O'ynamayman!

Shishadan piyolaga quyilayotgan ichimlikning "qult-qult" tovushi eshitildi.

Puling sob bo'lsa bo'lgandir, lekin akkangni arag'i tugamaydi, Supersurning kayfi nihoyatda oshganligi tilining chuchuklashib qolganidan yaqqol sezilib turardi. Ma, ich!

Boshim omon bo'lsa, bunaqa pullardan hovuchlab topaman hali, chamasi qoqlanib qolgani Ko'rshapalakka alam qilayotgandi. Lekin sen maxov shu arzimagan chaqalarni deb do'stingni aldayapsan.

Og'zingga qarab gapir...

Yengingga qarta yashirib o'ynaysan, tulki. Sezmaydi deysan-da, a? Kallangni cho'rt uzib olmayin tag'in!

Mishiqi Xoldorning gapini gapirma, dag'dag'ali ohangda pisanda qildi Supersur. Undan ko'ra, ichsang-chi zahringga.

Ichimlikning g'o'lqillab yutilayotgani, piyolaning stolga to'q etkazib qo'yilgani eshitildi. Ular negadir bir lahza jimib qolishdi.

So'ng Ko'rshapalak: "Hali biz mishiqi Xoldorga teng bo'ldikmi", deya po'ng'illadi.

Rostini ayt, Supersur, shu bola qaerdan kep qoldi o'zi? qamoqda yotgan chog'ida bu xonadonga kelib qo'shilgan Xoldor bilan qiziqdi Ko'rshapalak. Uni bolalar uyidan olganmiz, degan gaping g'irt "xamak". Ko'rshapalak kalla deb tandirdi ko'tarib yurgani yo'q, baribir hammasini bilib oladi.

Bilib olganingda, mengayam shipshitib qo'yarsan. O'shanda bitta oshga qarzdor bo'laman.

Menga ishonmayapsan-a! to'ng'izdek xirqirab o'dag'ayladi Ko'rshapalak. O'rgildim sendaqa qadrondan. Men ahmoq seni hurmat qilib, dasta-dasta pul yutqizib tursam-u, sen bo'lsang... E-e-e...

Obbo! Buni senga nima qizig'i bor? qartavozlikdagi doimiy omadsiz raqibidan ayrilib qolishni istamay, biroz yumshadi Supersur.

Xafa bo'lmagin-u, buni aytolmayman.

Ko'rshapalakning tishlari g'ijirladi.

Qo'rqasan! dedi u. Ho', kimdan qo'rqayapsan? Zargardanni? Istasang, hoziroq kirib, o'sha cho'loqning sayroqi tilini sug'urvolaman. Nima, usiz kunim o'tmaydimi? Xohlasam, sengayam tupuraman. Tupuraymi shu joyning o'zida?

Karnayingni sekinroq chal-e! Supersur Ko'rshapalakni jerkib tashlagandek tuyulsa-da, yalinchoqlikka moyil tovushidan pastroq kela boshlagani yaqqol sezilib turardi. Och mushukka o'xshab bitta sichqonni deb do'stlikni o'rta qo'yaverma-da. Agar bilishing juda zarur bo'lsa...

Zarur! gapni cho'rt kesdi Ko'rshapalak. Men dasturxon atrofida o'tirgan odamlar do'stlarimmi, dushmanlarimmi aniq bilvolishim kerak. Agar birov sendan sir yashirsa, bilginki, o'sha xumpar ovqatingga margumush solishni mo'ljalayapti.

Obbo, ko'rvachcha-ey! uni ermakladi Supersur. Zaharlashga arziydigan odammiding sen. Keyin jiddiy tarzda davom etdi. Agar, Xoldorga ja qiziqayotgan bo'lsang...

Bu voqea Ko'rshapalak qamoqda yotgan chog'larda yuz bergandi. Eski g'animi bo'lmish Kamol Kamtariyning har bir qadamini kuzatib, har bir "muyulish"da unga choh qazishga tirishib kelayotgan Bekxo'ja professorni tuzukroq jarohatlay olmay, ko'p dog'da

yurdi.

Ha, Bekxo'ja Kamolni kechirolmadi. Agar uning taklifini rad etgan kishi yettiyot begona bo'lsaydi, zargar bundan unchalik o'pkalanib o'tirmasdi, "vaholanki tug'ma go'sxo'r ekansan, tekin luqmani silliqqina yutadigan donolar topilib qolar", deb qo'yaverardi. Kamol esa, begona emas, sobiq sinfdoshi. Zargar uning yordam berishiga qattiq ishongan edi. Afsuski, ishongan oshnasi uning sazasini o'ldirdi, hamiyatiga tegadigan gap aytdi, ermakladi.

Bir kuni zargar Kamol Kamtariyning nihoyat farzand ko'rganini eshitib qoldi-yu, dilida qoniqishga o'xshash g'alati bir his paydo bo'ldi. Go'yoki, nomard do'stdan olinajak qasos bilan ana shu go'dak o'rtasida qandaydir bog'liqlik bordek edi.

Taajjub! Qanday bog'liqlik bo'lishi mumkin?

Bekxo'ja miyasida nogahon chaq nab o'tgan bu ajabtovur o'ylardan o'sha kuni parvosizgina jilmayib qo'ygandi. Ammo, oradan bir hafta o'tgach, beixtiyor yana shu mavzuga qaytdi, bunga televizorda hindlarning "Daydi" degan kinosi ko'rsatilishi sabab bo'ldi.

Kino qahramonlaridan biri o'ta mashhur talonchi uni qamoqqa tiqqan sudyaning o'g'lini bolaligidayoq o'ziga og'dirib oladi.

Teskari tarbiya ko'rgan bola halol va vijdonli otaning aksi bo'lib ulg'ayadi.

"Manavini o'ch olishning oliy namunasi deydilar! go'yo gap machitdagi obdastani o'marish ustida ketayotgandek, pinak buzmasdan g'udrandi zargar. O'zimizdan ishbilgichroq zotlardan tinimsiz tajriba o'rganib borishimiz kerakka o'xshaydi".

Bekxo'ja ertasi kuniyoq Supersurni o'z xonasiga chaqirdi.

Bu cho'tal dastlabki xarajatlarga, dedi u xizmatchisiga bir dasta pul tutqazarkan. Professorning arzandasini tiriklayin olib kelsang, pulni ko'rpa qilib o'ranadigan bo'lasan.

Ancha vaqtgacha bu yumushni uddalashning imkoni bo'lmadi. Faqat navro'zda Xo'jamozorga saylga chiqilgan kundagina ish o'ngidan keldi. Qattiq jala quyib, Supersurga tabiatning o'zi ko'mak berdi-yu, jinoyat sodir bo'lganini hech kim payqamay qoldi.

Qaltis vazifaning haddan ziyod beqiltirib uddalangan zargarni nihoyatda xursand qildi.

Bu go'dakni quruq safsatalar qulligidan qutqarib oldik, degandi u o'shanda. Endi hamma puldor odamlardek tili o'tkir, qo'li uzun bo'lib ulg'ayadi.

Oradan ko'p o'tmay, gazetda professor Kamol Kamtariyning xotini va o'g'li tabiiy ofat natijasida fojiali halok bo'lganini bildiruvchi ta'ziyanoma bosildi. Bolani butunlay ko'zdan yashirib yurish, hatto ismini o'zgartishga ham hojat qolmagandi...

Bundan chiqdiki, professor anavi duranduletni xumorbostiga yasagan ekan-da? hiringladi Ko'rshapalak.

Mana endi bunisiniyam o'mardik, yana piyolalarga ichimlik quyilayotgani eshitildi. Bir vaqtlar professor bilim puldan kuchli deb bizni xijolat qiluvdi. Pul undan ko'p narsalarni yulib oldi. Bilim ish bermayapti.

Bundoq o'ylab qaralsa, bu sho'rliklardayam ayb yo'q, ziyolilarga hamdardlik bildirdi Ko'rshapalak. Ularni institutlar buzyapti.

Muttaham falsafachilar baxt boylikda emas, halol mehnatda, deb g'o'r o'spirinlarni laqillatishadi.

Yana ancha gaplashib o'tirishgach, Ko'rshapalak, "soat ham beshdan oshibdi, ozgina ag'anab olaylik", deya bog' tarafdagi hujrachaga chiqib ketdi. U chorbog'da qolgan kunlari o'sha joyda tunardi. Supersur ayiqdek gursillab o'z karavotiga yotdi, sal vaqt o'tib, xonaning shipini titratadigan darajada xurрак ota boshladi.

"Mana, kim ekan oqsoch odam, tomirlarida elektr zaryadlari jo'shib o'yladi Avtobola. Xoldorniyam, meniyam dadam o'sha kishi ekan-da!"

Unda o'rmidan irg'ib turib, Supersurni shu yerdayoq bo'g'izlab tashlash, keyin biryo'la Ko'rshapalak va zargar bilan ham hisob-kitobni to'g'rilab, Xoldorni ularning panjasidan qutqarish, o'z otasiga qaytarish istagi tug'ildi. Keyin birdaniga fikridan qaytib, o'zini bosdi.

"Xoldor balki zargarni juda yaxshi ko'rar, o'yladi u. Balki unga boshqa ota kerak emasdir. Yaxshisi, avval o'rtog'im bilan gaplashib ko'ray..."

Avtobolaning o'ta sermulohazaliligi payti kelib uning fojiasiga sabab bo'lishi mumkinligini professor oldindan ko'ra bilganida, pozitron miyani bunchalar murakkab qilib yaratmagan bo'larmidi.

Xayolga berilgan Avtobola tong yorisha boshlaganini sezmay qoldi. Kalla qismida nimadir tinimsiz g'uvillab turganini ham endi payqadi. U Supersurning o'likdek qotib uxlayotganiga ishonch hosil qilgach, qo'lini sekingina ko'kragiga olib kelib, qizil tugmachani bosdi. Ammo miriqib uxlash nasib etmadi, tugmacha bosilgandan keyin oradan bir soat vaqt o'tmayoq sho'rlikni yana uyg'otishdi. Uning miyasi hanuz g'uvillab turardi.

Oxirgi topshiriq

Shaharda qadimiy oltin buyumlar ko'rgazmasi ochilishi haqidagi xabarni Bekxo'ja zargar bundan bir hafta oldin gazetda o'qigandi. Ko'rshapalakning kecha chorboqqa kelishiga sabab nihoyat o'sha ko'rgazmaning ochilganini xo'jayinga bildirib qo'yish edi. Uning gaplari rost bo'lsa, bu ko'rgazmani Xudoyorxonning xazinasini deyish mumkin edi. Ayniqsa, Oqsaroy atrofini qazish chog'ida topilgan mashhur oltin dubulg'aning o'zi butun bir olam!

Tungi ichkilikbozlikdan afti tundlashib, qovoqlari shishib ketgan Ko'rshapalak ertalab maslahatni pishitib olishga kelganida ham zargarning fikr-yodi Temurning oltin dubulg'asida edi.

Suhbat qisqa bo'ldi. Bekxo'ja allaqachon bir qarorga kelib qo'ygandi rejani shu bugun tundayoq amalga oshirgan ma'qul!

Umuman, ko'rgazma o'n kundan keyin yopiladi, shoshilishning nima hojati bor, degan ma'noda izohlab o'tdi Ko'rshapalak.

Bekxo'ja zargar esa o'zining olg'irlik fazilatiga bu safar ham sodiq qoldi:

Ko'rgazma yana o'n kun ishlaydi, deb anqayib yurganlar, mayli, dog'da qolishaversin, quyuq kipriklarini katta ochib, Ko'rshapalakka tazyiqona tikildi u. Tirikchilikning oliy qonuni bor: g'aflatda qoldirmasang, g'aflatda qolasan! Nima, shaharda bizdan bo'lak kamxarjlar yo'qmi?

Bo'pti-da, bugun bo'lsa bugun-da, qo'lga kirajak o'ljadan darak berayotgandek, qichisha boshlagan kaftini qashib turib bosh irg'adi Ko'rshapalak. Bor gap shumi, xo'jayin?

Zargar stol burchagidagi yo'qlagichni o'ziga yaqinroq surdi:

Hozir Avtobolani chaqiraman. Asosiy gapni gaplashib olganimizdan keyin, miyasini o'zing alohida pishitasan.

U yo'qlagich karnaychasi ostida qatorlashib turgan tugmachalardan birini bosib, gapirishga endigina shaylanganda, Avtobolaning kim bilandir so'zlashayotganini eshitib, jimgina quloq soldi.

"B ...mastlikda Ko'rshapalakka hamma gapni aytib berdi, kuyunib uqtirardi Avtobola. Meni uxlayapti deb o'yladi. Ular ayangni o'ldirishdi. Sen bilan meni dadamizdan tortib olishdi. Endi bilyapman, bular yomon odamlar".

Keyin karnaychadan Xoldorning qichqirig'i eshitildi:

"B Yolg'on! Sen yolg'onchisan, Temirtak! Bilib qo'y, agar gaping rost chiqmasa, kallangni uzvolaman!"

Endi Avtobola o'shqirib berdi:

"B Supersurni bo'g'izlab turib, hammasini boshqatdan gapirtirsam, ishonasanmi? Chaqirib kelib, sayrataymi hozir?"

Rangi birdan bo'zarib ketgan zargar tugmachadan qo'lini olib, yeb qo'ygudek vajohatda Ko'rshapalakka chaqchaydi.

To'ng'izlar! Ishni rasvo qipsanlar-ku!

Ko'rshapalak norg'ul gavdasiga yarashmagan alfozda bo'yin qisdi.

Hm... biz... dedi u g'o'ldirab, qayoqdan bilibmiz? Obbo durandulet-ey, motori o'chmagan ekan-da!

Avtobolani tezda buyoqqa chaqir, bir daqiqa mulohazalanib turgach, o'zicha shoshilinch reja tuzib olib, buyurdi zargar. Men uni picha chalg'itishga harakat qilaman. Sen Xoldorni yerto'laga tiqqin-u, Supersurni boshlab kel.

Ko'rshapalak halloslaganicha xonadan chiqib ketdi. Zargar telefonning simini pastdan uzib qo'yib, eshitqini qulog'iga tutdi.

Avtobola eshikdan o'qrayib kirib kelishi bilan u xuddi suhbatni davom ettirayotgandek, bamaylixotir javrashga tushdi.

Tushundim. Demak, xotiningizgayam, qizingizgayam bir juftan qashqarbaldoq. Juda soz, azizginam.

Zargar gap orasida ko'zi bilan imo qilib, kresloga o'tirishni taklif etgan bo'lsa-da, Avtobola mushtlarini tugkanicha qaqqayib turaverdi.

Mumkin bo'lsa, xotiningiz bilan qizingizning yoshini aytsangiz, yolg'ondakam suhbatini davom ettirdi zargar. Ha, albatta, bu judayam muhim. Biz har qanday bezakni mijozning yoshiga qarab yasaymiz. Iloji bo'lsa, o'zlari bir kelib ketishsin...

Ko'rshapalak bilan Supersur xonaga kirib kelgach, Bekxo'ja gapni qoq belida to'xtatib, eshitqini xayr-ma'zursiz joyiga qo'ydi-da, bezrayganicha Avtobolaga yuzlandi.

Xoldor bilan o'rtangda hozirgina bo'lib o'tgan suhbatdan xabardorman, Avtobola, temir bolakay hali-hozir boshlab qolishi mumkin bo'lgan xurujning dahshatli oqibatidan ortiqcha cho'chimay, bemalol gapirdi u. Bilaman, dushmanlarning ayni kerak paytda oldingda to'planib turganidan suyunyapsan. Lekin, qo'lingga erk berishdan ilgari so'zlarimga toqat bilan quloq sol. Sen bu yerga kelib, telefondagi suhbat tugashini kutib turganingda, Ko'rshapalak Xoldorni yashirib qo'yishga ulgurdi. Endi uni bizdan boshqa hech kim topolmaydi. Ammo, sen topib berishimizni iltimos qilsang, eski ulfatchilik hurmati gapingni yerda qoldirmaymiz.

Hozir uchalangniyam devorga chaplab tashlayman! g'ijindi Avtobola.

Ko'rshapalak rangi oqarib, beixtiyor bir qadam orqaga tisarildi. Supersur oyog'iga qaltiroq kirganini sezdirmaslik uchun bir qo'li bilan stul suyanchig'iga tayandi. Zargar esa Avtobolani barmog'ida o'dag'aylab, shosha-pisha eslatdi:

Shuni bilib qo'yki, bolakay, devorga chaplab qo'yilgan odam senga yordam berolmay qoladi. Bu degani qamab qo'yilgan oshnang ochlikdan o'lib ketadi!..

Hamlaga shaylangan qoplondek turgan Avtobola bu gapdan keyin sal bo'shashgandek tuyulsa-da, hanuz tajovuzkorlikdan qaytmay, zargarga yaqinroq bordi.

Qachon qo'yvorasan Xoldorni?

Bekxo'ja zargar xiyla yengil tortib, kresloga yastanibroq o'tirdi.

Arzimagan bir xizmat bor, dedi u. Shuniyam bajarsang, Xoldorni o'sha zahoti qo'lingga topshiramiz.

Keyin, menga desa, ikkalang Istambulga ketmaysanmi! gap qistirdi Supersur.

Sen akillamay tur! unga o'girilib o'shqirdi Avtobola. So'ng yana zargarga yuzlandi. Mayli, Xoldor uchun nima desang qilaman.

Lekin, bilib qo'y, xo'jayin,

endi aldoqchilik ketmaydi. Aldasang, ichingdagi uskunalarni pachoqlab tashlayman.

Qanchalar zehni bo'lmasin, Avtobola o'z nomi bilan baribir bola edi. Kalla qismidagi mikrocondensatorlar battardan qizib, fikrlash qobiliyati birmuncha susayib qolgan mazkur vaziyatda u qarshisidagi muttahamlarning ikkita tirik guvohni osongina qo'yib yuborishi mantiqqa zidligi to'g'risida o'ylab o'tirmadi. Mabodo, buni tushunib yetgan taqdirda ham, hozircha ularning shartiga ko'nishdan boshqa iloji yo'q edi.

Nima qilishim kerak? biroz itoatkorona, ammo g'azabnok ovozda gapirdi Avtobola.

Endi ko'ngli batamom joyiga tushgan zargar Ko'rshapalak bilan ma'nodor ko'z urishtirib olib, odatdagidek keskin va dona-dona qilib dedi:

Topshiriqni Ko'rshapalakdan olasan. Ishlaringizga aralashib o'tirmayman, boshqa xonaga chiqa qolinglar.

Ular chiqib ketishgach, zargar Supersurga o'chkor ko'z qadadi:

Oxiri tilingdan ketibsan-da, kal?

Supersur o'shshayanicha lab jimirdi.

Agar Yer tinchgina aylanib tursa, ertami-indin bu haqda bafurja gaplashib olamiz. Bekxo'janing yuzida aks etib turgan ginaxonlik alomati birdan g'oyib bo'ldi. Hozir oldimizda juda dolzarb ish turibdi Avtobola qaytib kelishi bilanoq uni temirlar xudosisiga topshirvorish kerak bo'ladi. Xoldorni bo'lsa, Avtobola miya aynish kasalligidan bandalik qildi, deb ishonitirishga urinib ko'rasan.

Quduqdagi qorovul

Soat tungi to'rt...

Bundan bir necha soat ilgari cho'kayotgan kema'dagi g'ala-g'ovurni eslatuvchi shahar endi navbatdagi seans tugagan ulkan kinoteatrdagi bo'm-bo'sh bo'lib qolgandi. Yo'l yoqasidagi bo'ychan simyog'ochlarga o'rnatilgan sutrang chiroqlarni ham mudroq bosayotganga o'xshar, trotuar chetidagi bog'kursilar esa chinorlar ostiga uzala tushganicha qotib uxlayotgandek ko'rinar edi. Yelkasiga ov miltig'ini osib olgan qorovul uyquni qochirish uchun qadimiy oltin buyumlar ko'rgazmasi binosi oldida tinmay uyoqdan-buyoqqa yurib turardi. Chetdan qaraganda parvosizdek tuyulsa-da, ko'z qirida tevarakni ziyrak kuzatar, biron-bir sharpani e'tibordan chetda qoldirmaslik uchun chor atrofga diqqat bilan quloq solardi.

"Keladigan bo'lsa, tezroq kelgani yaxshiydi, deya diqqati oshib o'ylardi, ko'rgazma ochilishi bilanoq qorovul rolini o'ynay boshlagan militsiya serjanti. U kelguncha na menda halovat bo'ladi, na tezkor guruh a'zolarida. Ishqilib, talonchilar ko'rgazma yopiladigan kunni mo'ljalayotgan bo'lishmasin, yana to'qqiz kechani mana shunday dildirab o'tkazishga to'g'ri keladi. Bordi-yu, robot umuman kelmasa-chi? Shunday bo'lishi ham mumkin-ku? Ha-a, unda..."

Qorovul bir seskanib tushdi. Ko'rgazma binosi yaqinidagi qo'shchinor ayrisi orasida allaqanday kalla vahimali yarqirab turardi. Bu Avtobolaning nikellangan po'lat yuzi edi albatta.

Mayor Ahmedov: "Avtobolani ko'rganda vahimaga tushma, u o'zidan o'zizlarni ortiqcha xafa qilmaydigan mardlardan chiqib qoldi", deb tayinlaganiga qaramay, qorovulning yuragi orqaga tortib ketdi. Yo'q, xavfli jinoyatchilar bilan bo'lgan olishuvlarda ham zarracha titramagan serjantni qo'rqoq deb bo'lmasdi. Milsiz hayajon uni shu kuyga solib qo'ydi u hayotida birinchi marta temir talonchi bilan yuzma-yuz kelishi edi.

Serjant bir lahzalik hayajonni yengib, darhol o'zini bosib oldi, yana vazifasini loqaydgina bajarayotgan to'pori qorovul qiyofasiga kirdi. Hech narsa sezmayotgandek ortga burilib, binoning narigi burchagi sari imillab keta boshladi.

Orqadan tez yaqinlashib kelayotgan qadam tovushi eshitildi. Qorovul keskin o'girilgan paytda bo'yniga xo'roz gulli ko'k xalta osib olgan Avtobola undan bor-yo'g'i ikki odim narida turardi. "Mana, qanaqa ekan temir qaroqchi", deya hayrat bilan unga tikilib qoldi qorovul.

Damingni chiqarma! barmog'ini labiga bosib, sevimli gapini takrorladi Avtobola. Miltiqni yaxshilikcha berasanmi? Qorovul sarosimaga tushgandek picha ikkilanib turdi, keyin qurolini yelkasidan olib, sekingina unga uzatdi. Avtobola miltiqni gugurt cho'pini sindirgandek qoq o'rtasidan bo'ldi-da, trotuar chetidagi ariqqa tashlab yuborib, soqchining orqa yoqasidan tutamladi. Mayor serjantga ko'pdan-ko'p daldalar berganiga, Avtobola ham "qaltirama, kuchsizlarni o'ldirish mardlikka kirmaydi", deya unga hayot va'da qilayotganiga qaramay, bu manzara baribir qo'rqinchli edi. Uning qarshisidagi talonchiga na sambo usuli, na o'q bakor kelar, agar u istasa, odamniyam ariqda yotgan anavi miltiqdek osongina "sindirib" qo'ya olardi.

Tashqarida bo'layotgan ishlarni ko'rgazma binosi qarshisidagi uyning derazasidan kuzatib turgan mayor Ahmedov qorovul rolini bajarayotgan serjant uchun bu daqiqalar naqadar og'ir kechayotganini yurak-yurakdan his qilayotgandi.

Avtobola qorovulni shaxdam yetaklab kelib, yo'l bo'yidagi oqavasuv qudug'ining qopqog'ini ochdi. Qorovul buyruqqa bo'ysunib quduqqa tushgach, qopqoqni berkitdi, trotuarda qatorlashib turgan gabsuz avtomatlaridan birini xotirjam ko'tarib kelib, qopqoq ustiga bostirib qo'ydi.

Naqadar puxta ishlayapti azamat! yonida turgan leytenantga qarab asta shivirladi mayor. Haqiqiy mo'jiza!

Avtobola atrofga bir alanglab, ko'rgazma binosi tarafga yurdi. Yo'l-yo'lakay xaltasidan qandaydir sarg'ish matoni olib, qo'ltig'iga qistirdi. Pillapoyadan ko'tarilgach, eshikning qulfini bemalol olib tashlab, birdan ishga tushgan signalizatsiya chinqirig'iga parvo ham qilmay, shippillaganicha ichkariga kirib ketdi.

Talonchi ishini kutilganidan birmuncha tez uddaladi oradan ikki minut ham o'tmay, sarg'ish qopchiqni orqalaganicha yana tashqarida paydo bo'ldi. Trotuar uni qoniqtirmadi shekilli, katta yo'lning o'rtasiga chiqib keldi-da, oyoqlari ostidan uchqun sachratib yugurishga kirishdi. Uning tezligi sekund sayin ortib borib, asfaltdan tobora tezob chalinayotgan nog'oraning ohangiga o'xshash tovush tarala boshladi.

Birozdan so'ng shahar jinoyat qidiruv bo'limi xodimlari va ularga ko'maklashuvchi qo'shimcha guruh mikromayoqning signaliga ergashganicha Avtobolaning iziga tushdi.

Avtobola janubiy yo'nalishda harakat qilib, shahardan jadal uzoqlashib borayotgandi. Lekin, bir necha minut o'tgach, uning tezligi keskin susayib ketdi. Oxiri butunlay harakatdan to'xtadi.

Hozir u o'n ikkinchi kvadratda turibdi, mashinaga o'rnatilgan maxsus asboblarga tikilib, aniq axborot berdi leytenant. Bu yerda ko'l bor xolos, o'rtoq mayor.

Nega to'xtab qoldiykin? o'yanchilik bilan qosh chimirdi mayor. Ma'lum vaqtda uni uxlatish lozimligi hisobga olinmasa, Avtobola umuman charchamaydi.

O'ljani ko'lga cho'ktirayotgan bo'lmasin tag'in? o'z taxminini aytdi leytenant. Balki boshlig'i shunday topshiriq bergandir. Mayor yarq etib leytenantga qaradi.

Ehtimoldan xoli emas, dedi tashvishli qiyofada. Unda, ishim... ishimiz ancha chigallashadi. Mikromayoq ham ko'lda qolib ketadi.

Mikromayoqdan uzluksiz uzatilayotgan signal Avtobolaning qaytadan harakatga kelganligini bildirdi. Guruh uni ta'qib qilishda davom etdi. Temir talonchining yurishi endi ancha sust edi. O'n to'rtinchi kvadratga yetganda yana to'xtadi.

Bu kvadratda Bekxo'ja zargar turadigan chorbog'dan boshqa bino yo'q, axborot berdi leytenant.

Bekxo'ja zargarining nomini eshitib, mayor birdan hushyor tortdi, ostki labini tishlab, bir zum nimalarnidir mulohaza qilib turgach, keskin ohangda buyurdi:

Chorbog'dan hech zog' tashqariga chiqib ketmasligi kerak. Tez, aniq, shovqin-suronsiz ishlaymiz, yigitlar.

Yog'och haykalning boshi

Daqiqa sayin kalla qismidagi g'uvilloq kuchayib borayotganiga qaramay, Avtobola topshiriqni odatdagidek bexato bajardi.

Ko'rgazmani qoqlab chiqqach, avvaliga asfaltda juda yengil yugurib bordi, keyin kutilmaganda darmonsizlanayotganini his qildi, tezligi o'z-o'zidan kamayib ketdi.

"Menga nima bo'lyapti o'zi? taajjublanib o'yladi Avtobola. Nega tez yurolmayapman?"

Avtobola o'zini har kuni uyquga yotqizishlariga shunchaki bir halovat sifatida ko'nikib qolgandi. Uxlatib turilmasa, uzog'i bilan o'ttiz besh soatdan keyin butunlay ishdan chiqishi mumkinligini mutlaqo bilmasdi. Agar bilganida, bedorligi allaqachon qirq soatdan oshib ketgani hozir uni jiddiy tashvishga solgan bo'lardi.

Bora-bora, u atrofdagi sharpalarni yaxshi eshitmay qoldi, ko'z oldi xira tortgandek bo'ldi. Endi uning ko'krak qismida ham nimadir zirillay boshlagandi. Ko'l bo'yiga yetganda yurishga madori qolmay, tizzalaganicha maysalar ustiga o'tirdi. U hatto seyfni orqalab kelgan kuni ham ustida yuk borligini deyarli sezmagandi, bu gal esa yelkasidagi yengilgina qopchiq jussasini tobora ezib tushyapti, barmoqlarini toliqtiryapti.

Avtobolaning ko'krak qismidagi zirilloq kuchayib, boshi battardan g'uvilladi, ko'z oldi jimirlashib ketdi. U qopchiqni yerga tashlab, boshini kaftlari orasiga olganicha maysa ustiga chalqancha yotib olgan chog'da, ko'z o'ngida yana oqsoch olimning qiyofasi namoyon bo'ldi.

"B Buyoqqa kel, tezroq kelsang-chi, derdi u Avtobolani mehribonlik bilan huzuriga chorlab. Seni o'zim darrov tuzatib qo'yaman. Men bilan bo'lsang, boshing og'rimaydi, ko'kraging ham jizillamaydi, senga doim ko'z-quloq bo'lib turaman. Axir sen... farzandimsan... xuddi Xoldorga o'xshab..."

Xoldor! Avtobolaga birdan quvvat kirgandek bo'ldi. Tezroq bormasam, uni o'ldirishadi! O'ldirishadi ablahlar!

U o'rnidan sapchib turib, qopchiqni orqaladi. Oyoqlari o'z-o'zidan chalishib ketayotgandek tuyulsa-da, iloji boricha shaxdam odimlab, chorbog' tarafga yo'l oldi.

Boshidagi g'uвилоq endi azobli sanchiqqa aylandi. Ko'krak qismidagi mikrosxemadan esa o'sha sanchiqqa monand ravishda "chirs-chirs" etgan tovush kela boshladi. Yana bir necha minutdan so'ng o'z hayotida qandaydir dahshatli narsa sodir bo'lishi muqarrarligini shu topda aniq his qilayotganiga qaramay, Avtobola tobora ildamroq odimlashga tirishayotgandi. Xoldorni qutqarish zarur edi.

* * *

Supersur Avtobolani tashqi eshik yonida kutib olarkan, tirjayishga uringandek ko'rinsa-da, sovuq nigohida qabihona bir niyat yallig'lanib turardi. Bekxo'janing xonasiga kirib borayotganida Avtobolaning boshi qattiq sanchib, gandraklab ketdi. Bu sanchiq tinimsiz davom etayotganiga parvo qilmay, zargarga yaqin borib, o'ljani stolga ag'dardi. Tilla bezaklarning bir qismi stoldan toshib, polga sochildi, qopchiq tubidagi oltin dubulg'a esa daranglaganicha yumalab, zargarning quchog'iga tushdi.

Xoldor qani? gap go'yo zargarning cho'ntagidagi buyum haqida borayotgandek, unga kaftini cho'zib so'radi Avtobola.

Qo'lidagi dubulg'ani avaylab siypalay boshlagan zargar xotirjam javob qildi:

Darvoqe, va'da bergandim. Bilaman, do'stlikning buzilishi u yoki bu tomonning beburdligidan boshlanadi. Vaholanki, do'stligimizcha qolmoqchi ekanmiz...

Gapni cho'zma! o'dag'aylovchi tovushda jerkib berdi Avtobola. Xoldorni hoziroq ko'rsat. Vaqtim ziq, tushunyapsanmi?

Buncha shoshasan? Oshnang maza qilib uxlab yotibdi, deya gap qistirdi boyadan buyon sog' ko'zini tilla buyumlardan uzolmay turgan Ko'rshapalak.

Eshitish qobiliyati susayib ketgan Avtobola chetdan kelgan bu xirqiroq tovushga e'tibor bermay, zargarning ko'ziga qattiqroq tikildi.

Ber deyapman Xoldorni! Agar hoziroq bermasang...

Bekxo'ja oldidagi yo'qlagichning tugmalaridan birini bosib, uni Avtobola tomon surdi.

Avval o'gay akangga bir tovush qilib ko'r-chi. Uxlagisi kelmayotgan bo'lsa, mayli, darrovda olib chiqishadi.

Avtobola stol oldida doimo ko'ndalang turadigan kresloga o'tirib, yo'qlagichning karnayiga egilganicha bor tovushda qichqirdi:

Xoldor! Akajon! Uyg'oqmisan? Meni eshityapsanmi? Gapimni eshityapsanmi, aka?

Bu senmisan, Temirtak? karnaydan Xoldorning shodon, lekin odatdagidan xastaroq tovushi keldi. Meni yerto'laga qamab qo'yishdi, oshna. Qorong'ida o'tiribman. Suv ichgim kelyapti.

Hozir olib chiqishadi seni. Xohlasang, bir bo'chka suv ichasan. Keyin dadamizning oldiga ketamiz. Avval seni yerto'ladan...

Avtobola gap bilan bo'lib, Supersurning xona burchagiga oyoq uchida yurib borganini ham, o'rta asr kamonchisi qiyofasidagi yog'och haykalning kallasini chapga buraganini ham sezmay qoldi. Haykalning boshi buralishi bilan kreslo old tomonga munkib, Avtobola undan sirg'algan asno chuqur o'raga tushib ketdi.

Dang'illaganicha o'raning tubiga kelib urilgan Avtobola hali es-hushini yig'ib ulgurmay, tepadagi qopqoq yopilib, zimistonda ivirsib qoldi.

Ablahlar! Yaxshilikcha tortvolinglar meni! qo'llarini yuqoriga ko'tarib, qopqoq sari jon-jahdi bilan sakray boshladi u. Baribir bu yerdan chiqvolaman. Chiqsam, hammangga yomon bo'ladi. Tortvolinglar deyapman yaxshilikcha!

Bu mahal uning boshidagi sanchiq chidab bo'lmaydigan darajada zo'rayib, ko'krak qismidagi charsilloq ovoq yanada kuchaydi. Sakrashdan to'xtab, boshini changallaganicha bemajol turib qoldi. So'ng asta-sekin cho'ka borib, oxiri g'ujanak bo'lib yotib oldi.

"Bu odamlar qanaqa maxluq o'zi? qattiq azobdan titrab, alam bilan o'yladi u. Ularga nima yomonlik qildim? Nega meni bunchalik qiynashyapti?"

Uning ko'z o'ngidan Bekxo'ja zargarning tajovuzkor nigohi, Ko'rshapalakning qabihlik aks etib turuvchi tund basharasi, Supersurning sovuq tirjayishi kino tasmasidek sharillab o'tdi. Keyin oq sochli kishi dilkashlik bilan uning oldiga kelib, yelkasidan achomlayotgandek bo'ldi. Yerto'lada qolib ketgan Xoldor: "Suv ichgim kelyapti, oshnajon!" deb qichqirgandek tuyulgan damda Avtobola sapchib o'rnidan turdi. Shu sapchishda o'raning tosh devoriga shiddat bilan urilib, bir daqiqqa haykaldek qotib qoldi, so'ng shalviraganicha yerga yiqildi, boshqa qimirlamadi.

Uning ochiq qolgan munchoq ko'zlarida mislsiz azob, borliqqa nisbatan hadik izlari yaqqol aks etib turar va bu ko'zlar: "Erkimni himoya qilolmas ekansan, nega meni yaratding?" degan savolni tinimsiz takrorlayotganga o'xshardi.

Ha, yaratishda unga baxt va'da qilishdi, yaralgandan so'ng ayovsiz aldashdi, aldovga qarshi bosh ko'targani uchun o'ldirishdi. U odamlar bilan yashab ko'rdi, lekin odamlarga tushunolmadi.

"Avtobola qani?"

Supersur yog'och haykalning kallasini to'g'rilab qo'yishi bilan o'ra ustidagi qopqoqqa mahkamlangan kreslo avvalgi holatiga qaytdi. Avtobolaning birdan jimib qolgani Xoldorni shubhaga soldi, yo'qlagichdan uning hayajonli tovushi taraldi: "Temirtak! Qaerdasan, oshnajon? Nimaga indamayapsan?..."

Ko'rshapalak qiyshiq burnini yo'qlagichga tekkizgudek bo'lib xirqiradi:

Tashvish tortmasinlar. Xolavachchasini ko'rgani ketdi o'sha durandulet. Ve-xa-xa...

Uni nima qilding, egriburun? tovushi qaltirab qichqirdi Xoldor. Temirtakka tegma! Qarab turgin, kallangni uzvolaman hali!

Ko'rshapalak yo'qlagichni o'chirib, g'udirladi:

Olimvachchaniyam axloqi buzilib bo'пти-ku. Betamizgina bezori chiqardi bu uying kuygurdan.

Avtobolani hibsga olib, nihoyat ko'ngli taskin topgan Bekxo'ja endi Temurning oltin dubulg'asini o'yinchoqparast boladek zavq-shavq bilan tomosha qilib o'tirardi.

Bir paytlar deyarli butun Yevropani shaxsiy tomorqasiga aylantirgan turk sultoni yeldirim Boyazid ham mana shu dubulg'aning egasi oldida bosh egkan, jahongirlik shu damdan e'tiboran uning qo'lga o'tgandek faxrlanib so'zladi Bekxo'ja.

O'raning niqoblangan qopqog'i qanchalar zich yopilgan bo'lmasin, pastdan Avtobolaning nimadir deb qichqirayotgani elas-elas quloqqa chalindi. Birozdan so'ng uning qattiq dang'illab o'ra devoriga urilgani eshitildi. Shunday qattiq urildiki, xona shipidagi qandil chayqalib, deraza oynalari zirqirab ketdi.

Kamol Kamtariy jannatga kirgur muxbirchani laqillatmagan bo'lsa, Avtobola tez orada olamdan o'tishi kerak, bu safar sadaf qadalgan tilla zebigardoni ko'zdan kechirayotib, Supersurga qiyalab boqdi zargar. Hay, mendan nima ketdi, uning oltin yuragini Ko'rshapalak ikkoving bo'lishib ola qolinglar.

Bu vaqtda Avtobola allaqachon oddiy temirga aylanib qolganidan u hali bexabar edi.

To'satdan eshik zarb bilan ochildi. Xonaga yosh leytenant boshliq to'rt nafar militsioner otilib kirdi.

Qo'lingni ko'tar hammang! Hech kim joyidan qimirlamasin! buyurdi leytenant.

Ular qo'lga tushganlarni tintishayotganda xonaga mayor Ahmedovga ergashganicha Kamol Kamtariy kirib keldi.

Voh, chayon! Bekxo'jaga o'qrayib ko'z qadadi professor. Meni chaqayotgan sen ekansan-da?

Seni qaqshatgan men emas, pullarim! vaziyatdan ortiqcha sarosimaga tushmay, bamaylixotir kesatdi Bekxo'ja. Azamat pullarimning qudratiga tayanib, seni qo'g'irchoqdek o'ynatib keldim. Aziz narsalaringni tortib oldim.

To'g'ri, pul bilan ko'p qabihliklar qilding, ammo g'olib chiqolmading.

Bekxo'ja istehzoli jilmayib qo'ydi:

Kechirasan, azizginam. Men shaxsan sendan mag'lub bo'lganim yo'q. Seni anavi xaloskorlarning g'olib qilishdi. Chunki ularga keraksan.

Ha, xalqinga bundan keyin ham kerak bo'laman.

Xalqinga? Sizlarga kerakmanmi, yo'qmi deb so'rab ko'rganmisan xalqingdan? Balki ularga sen yaratayotgan mo'jizalardan noyobroq narsa zarurdir?

Kishilarga nimaiki zarur bo'lsa, ilm-u fan ertami-kech hammasini yaratib beradi.

Bekxo'janing qiyiq ko'zlarida battar qisildi:

Yo'q! Olamda shunaqa narsalar borki, ularni laboratoriyalarda yasab bo'lmaydi. Ko'z o'ngimda qanchadan-qancha jahonshumul kashfiyotlar qilindi, lekin biron-bir kashfiyotchi menga ota yasab berolmadi. Bolalik, o'spirinlik davrlarim mung'ayish, farzandini erkalatib turgan otalarga ichikib termilish bilan o'tdi. Sen buni tushunasanmi, olim?

Kechirasan, otangni bu yurtdan men haydaganim yo'q.

Sen haydading nima-yu, seni xudong haydadi nima? Sen bitta otamnimas, ollohimniyam yuragimdan sug'irib olding, o'rniga o'zing sig'inayotgan soxta xudoni tiqishtirmoqchi bo'lding. Lekin, mehribondan mehribon yaratguchisi osmondaligini bir marta zavqlanib eshitgan odam, hatto uning borligiga ishonmay qo'rganidan keyin ham, yerda yasalgan xudoni baribir tan ololmas ekan. Oxiri, o'zimdangacha yasab, jannatimni shu dunyoga ko'chirdim. e'tiqod arosati menga to'g'ri kelmadi... Xullas, kimligimni bilaman. Ammo, sen-chi? Bu olamda nima qilib yuribsan o'zi?

Kamtariy, odatdagidek, shoshmasdan javob qilishga hozirlanayotgan chog'da, mayorning sabri tugab, mavzuni maqsadga burdi:

Gapni chuvalama, tullak! Avtobola qani?

Bekxo'janing professorga tikilgan ko'zlaridagi qahr va achinish qorishmasi, u mayorga yuzlanayotgan damda, birdan ifodasini o'zgartib, masxaraomuz tus oldi.

Avtoo'g'rini aytyaptilarmi? deya bezrayib piching otdi u. Hammomga ketuvdi shekilli...

Professorning ko'ngli qandaydir noxushlikni his etib, qiyofasini bezovtalik qopladi:

Nega tirjayasan? Qani Avtobolam?

O'zi uchun endi hamma narsa tugaganini sezib turgan Supersur Bekxo'jadan ham, Ko'rshapalakdan ham tap tortmay, zaharxandalik bilan shang'illadi:

Galvars ekansan, professor! Kallasi paqirdan yasalgan o'sha temirni boshingga urasanmi? Undan ko'ra, o'g'lingni surishtirsang-chi!

Kamtariyning yuragi ko'krak qafasini sindirgudek irg'ishlab, nafasi bo'g'ziga tiqilgan kuyi, keksa talonchiga dong qotib boqdi:

O'g'lim? Q... qanaqa o'g'il?

Ombordagi yerto'lada kalla uzishga ishqiboz bir bola yotibdi, endi qo'llaringdan nima kelardi degandek, avval Bekxo'jaga, so'ng Ko'rshapalakka bir-bir xo'mrayib olib, gapida davom etdi Supersur. Men senga aytsam, professor, o'sha bolaning oti Xoldor. O'ng yelkasida yarim oyga o'xshagan xoli bor.

Professor hayajondan qaltiray boshlagan qo'llarini Supersur tarafga cho'zib, nimadir demoqchi bo'ldi-yu, so'zga og'iz juftlagan mahalda birdan gandaraklab ketdi. Mayor chaqqon sakrab kelib, uning qo'ltig'idan ushladi. Kamol Kamtariy allaqachon hushini yo'qotgandi.

Tirilib qaytgan o'g'il

Oradan bir hafta o'tgach, mayor Ahmedov professor bilan yana suhbatlashib qoldi. Bu safar ular tasodifan uchrashdilar.

O'sha kuni yomg'ir shivalab turgandi. Shaxsiy avtomashinasida ishdan qaytayotgan mayor Fanlar Akademiyasi yonidan o'tib borayotib, bekatda turgan Kamol Kamtariyga ko'zi tushdi. Mashinani to'xtatib, qiya ochiq oynadan unga tovush qildi:

O'rtoq professor! Kamol aka! Kelavering, o'zim tashlab o'taman.

Professor mashinaga o'tirgach, mayor bilan qirq yillik qadrdonlardek iliq ko'rishdi.

Xizmatchi mashinam bugun texnika ko'rigidan o'tayotuvdi, yayov qolganligidan xijolat tortayotgani yuzidan sezilmagan bo'lsa-da, harholda izoh berib qo'ydi professor. O'chakishgandek, akademiyaning majlisiga chaqirib qolishdi.

Ular ancha joygacha u-bu narsalar haqida so'zlashib bordilar. Lekin, baribir, gap shu damda ikkala taraf ham negadir eslashni unchalar xushlamayotgan eski mavzuga borib taqaldi.

Ishqilib, Xoldorbek bilan ahilmisizlar endi? deb so'radi mayor.

Unchalar emas, deya hazilomuz ohangda javob qildi professor. Avtobolani tezroq tuzatib berishimni talab qilib, mendan arazlab yuribdi. Agar tuzatib bermasam, kallamni uzib olarmish.

Mayor qah-qah otib kulib yubordi.

Obbo shumtaka-ey! Uni odam qilguncha hali ancha terlaydiganga o'xshaysiz. Mabodo mendan... bizdan yordam kerak bo'p qolsa, tortinmaysiz-da.

Professor bir muddat jimib qoldi.

Bilasizmi, birodar, baxtiyorlik uchqunlari chaqnayotgan ko'zlarini mayorga qadab, ohista gap boshladi u. Shu keyingi hafta ichida o'zim ham yosh bolaga o'xshab qoldim. Xuddi yangitdan tug'ilib, hayot lazzatini endigina totib ko'rayotgandayman.

Tushunib turibman, bosh irg'ab qo'ydi mayor. O'ldiga chiqarilgan farzandingiz qariyb olti yildan keyin tirik qaytib kelsa-yu... Bunaqada odamning yuragi yorilib ketishiyam hech gapmas.

Ha! shu topda bahri-dili ochilib ketganini yashirib o'tirmay, ko'ksini to'latib shavq bilan havo simirdi professor. Bu shunaqa bir baxtki, dunyodagi hamma xazinalarni garovga qo'yib ham ataylab sotib ololmaysiz.

Mayor ma'nodor yo'talib, qovoq-lunjini osiltirishga harakat qildi. So'ng Kamol Kamtariyga ko'z qirida quvlik bilan boqib dedi:

Haddingizdan oshmang, hurmatli professor. Menimcha, pul baribir kuchli.

Professor yarq etib unga o'girilgan paytda o'zini bazo'r jiddiy tutib turgan mayor salgina piqirlab kuldi-yu, ikkalasi biri qo'yib, biri "ho-ho"lay ketishdi. Ular chinakam insoniy mehr-oqibatning, vijdon va insofning, g'urur va iffatning, e'tiqod va tafakkurning ustidan hech qachon hukmron bo'la olmaydigan sho'rlik pulni, ana shu shaldiroq qog'ozga sig'inishgacha borib yetgan xokisor bandalarni yayrab-yayrab ermak qilishayotgandi.

Mayor mischaqmoqni chiqirlatib, hozirgina labiga qistirgan sigaretni yoqqach, tutunni darcha tarafga puflayotib so'radi:

Harqalay... Avtobolani tiklash mumkinmi?

Mumkin, ishonch bilan bosh silkidi Kamol Kamtariy. Unchalik qiyin joyi yo'q.

Mayorning yuzi birdan quvnoq tus oldi.

Unday bo'lsa, Xoldorning oldida boshingizni garovga qo'yib yurasizmi? Tuzatib beraqoling temir oshnasini.

Professor suhbatdoshining ko'ngli uchun salgina tabassum qilgan bo'ldi-yu, keyin qiyofasi yana tundlashdi.

Bundan nima foyda? afsusnamo qo'l siltab qo'ydi. Uning miya qismidagi to'qimalar erib, xotiralari tamoman kuyib bitgan. Ta'mir qilingan robot butunlay boshqa Avtobola bo'ladi. Eski tanaga yangi bosh ulangandek gap. Xoldorga bo'lsa, avvalgi o'sha qadrton Avtobola kerak.

Mayor yumshoqqina tormoz berib, mashinani yo'l chetiga to'xtatdi. Ular professor yashaydigan hovli yoniga yetib kelishgandi.

Endi peshayvonda o'tirib bitta choy ichsak, deya uni ichkariga taklif qildi professor.

Biryola ziyofatga kelarman, jilmayib qo'l uzatdi mayor. O'g'lingizning tug'ilgan kunini nishonlaydigan bo'lsangiz, bizgayam bir yo'talib qo'yarsiz.

Ular qattiq qo'l qisishib, do'stona xayrlashishdi.

* * *

...Kitobxon do'stim, chamasi, bizning ham xayrlashadigan vaqtimiz kelganga o'xshaydi. Faqat, ikkalamiz ikki tarafga qarab yo'l olishdan oldin, bir narsa xususida kelishib olsak degandim. Zero, dunyoda orqadan aytiladigan ta'nadan yomoni yo'q.

Balki fizikdarsiz, Avtobolaning ichki va tashqi tuzilishi bilan bog'liq gaplarimdan talaygina xato toparsiz. Avvalo, shuni ta'kidlab o'tishim lozimki, qo'limga qalam olayotib, ilmiy maqola yozishni aslo maqsad qilmaganman. Qolaversa, muqaddimada aytganimdek, bu voqeani mashhur kibernetik olimdan emas, oddiy bir sartaroshdan eshitganman. Keksa sartarosh bilan o'rtamiyona yozuvchidan bundan ortiq nimaniyam kutish mumkin?

Xullas, gap shu: mabodo, bu qissa ko'nglingizga manzur bo'lmasa, hamma aybni Toshmat sartaroshga ag'darishimizga to'g'ri keladi; bordi-yu, sal-pal yoqib qolsa, mayli, barcha maqto'vni o'z gardanimga olganim bo'lsin.

1981-1985-yillar,

Oltiariq Toshkent

Hikoyalar - Futbol Tupining Sarguzashtlari (Olti Taymli Hangoma)

Katakka ko'milgan tangalar

Keling, maktabda o'tilmay qolgan badantarbiya darsi hisobidan avval bir dumalashib olaylik, keyin salqinroq joyni topib, bermalol vaqillashaveramiz. Hatto, yurakdan chiqarib tinimsiz bidirlash uchun ham, gapni erinmay tinglab o'tirish uchun ham katta jismoniy tayyorgarlik kerak. Badanni qizitib olsak, boshimdan o'tgan g'aroyib hangomalarni aytib men toliqmayman, eshitib siz charchamaysiz.

Qani, darvoza tomonga qarab yana bir-ikki yumalashaylik-chi. Buning uchun oldin meni teping, so'ng bironta polvonroq odam sizning ketingizga gupillatsin. Qarabsizki, ikkalamiz ham ketma-ket uchib boryapmiz-da!

... Hadeb ketingizni silayvermay, endi gapimni eshiting. Xullas, meni do'kondan Akmal qora degan istarasi issiqqina bola sotib oluvdi. U, o'siq kipriklarini pipiratib, "anavi sarig'ini cho'zing-chi", deya meni ko'rsatganida, o'sha kuni shunaqayam sevinib ketdimki, agar sizning ham damingizni chiqarib, besh yarim oy peshtaxtaga tashlab qo'yishsa, chekkada jim yotishga majburlik qanchalar iztirobli ekanligini tushunib yetgan bo'lardingiz. Mabodo, futbol darvozasining ustuni shuncha vaqt bekor tursa, diqqatpazilikdan "Bor-e!" derdi-da, shartta shox chiqarib, barg yozvorardi. Bu ustun mevali daraxtniki bo'lsa, shu topda siz uning tepasiga chiqib, olma yoki nashvati yeyishni boshlab yuborardingiz, albatta.

Endi ishim yuribdi-yu, daryoning suvi quribdi, deganlaridek, qulog'i og'ir do'konchi quvonchimni bir zumda chippakka chiqarayozdi u o'ng yonimda tarvuzga chatishtirilgan pomidordek qip-qizarib turgan qorindor to'pni olib, bolakayga uzatdi.

Birdan ichikib, battar shalvirab qoldim. Nima, aybim qizil bo'lmaganimmi?

Chap biqinimda burishib yotgan bokschilar qo'lqopi garang do'konchidan achchiqlanib: "Shu masovning qanshariga qaratib tortvoraymi hozir!" deya g'ijjinib qo'ydi.

Shu payt bir umr yodimda qoladigan voqea yuz berdi Akmalvoy haligi qizil po'stakka qayrilib ham qaramay, barmog'ini to'pponcha qilib, ikkinchi bor meni ko'rsatdi:

Anavinisini uzating dedim-ku sizga! Sariq to'pni oydingda ham o'ynasa bo'laveradi. Qizilni pishirib yeymanmi?

Do'konchi meni burun jiyirganicha olib, Akmalning oldiga uloqtirdi.

Shunday qilib, do'kondan qutuldim-u, ko'p o'tmay, Akmal qora yashaydigan hovlida paydo bo'ldim. U akasining velosipedidan damlagichni olib, meni ishiraverdi, ishiraverdi, ishiraverdi... Rostini aytsam, bundan o'zim ham juda qo'rqib ketdim: shunaqada biron joyimdan salgina chokim so'kilsa bormi, bo'mbadek "gumbir-r" yetib yorilaman-u, suvga tushgan telpakdek bujmoq bo'laman-qolaman.

Akmal qora akkashni damlab bo'lib, tanamdagi changlarni ko'ylagining yengida artib turganida, uydan chiqib kelgan ayasi meni ko'rib, to'satdan rangi o'chdi.

Bu to'pni qaerdan o'g'irlading, hoy? deb o'g'liga do'q urdi u. Dadangga aytuvdim-a, bu bolani ortiqcha taltaytirmang, deb. Mana, xonadonimizni oxiri sharmanda qilding!

Bolakay qalin qoshlarini kergan kuyi, bamaylixotir javob qildi:

Bunaqa zo'r to'pni qaysi ahmoq o'g'irlatib qo'yarkan? Maktabda ovqatlanishimga pul berarmidingiz, berardingiz. O'sha pullardan har kuni bir-ikkita tanga orttirib, katakka ko'mib yuruvdim. Oldiniga-ku meni tovuq qiynadi, endi siz bormisiz?

Qanaqa tovuq? battardan shang'illab berdi Akmalning ayasi.

O'ziyam juda qiziq ish bo'lgan ekan-da. Buni alohida gapirib bermasam, "paq" etib portlab ketaman shekilli. Ichimda gap

saqlashga sira chidolmayman.

Qarangki, Akmal qora nafsin qahramonlarcha tiyib, ovqatdan tejagan tangalarini erinmasdan katakka ko'mib yuraveribdi. "Xazina"si mo'ljaldagiga yetib qolganida, uni kavlab olish uchun katakka kirib qarasa, chipor tovuq tuxumlarini tangalar ko'milgan joyning ustiga to'plab, so'ppayib bosib o'tirganmish. Surbetlik bundan ortiq bo'ladimi? Bunaqa molparast tovuq o'z vaqtida tartibga solinmasa, oqibati chatoq tugaydi. Bugun tangalarning ustida jo'ja ochgisi kelibdimi, yanagi safar tuxumini to'ppadan-to'g'ri xonadon mulki saqlanadigan sandiqning ustiga qo'yadi. Shundayam birov indamasa, keyingi gal davlat bankidagi pul omborini ochib bermasang, tuxum bosmayman, deb turib oladi. Faqat o'z huzurini o'ylaydigan tovuqlar yoki tovuqfe'llar ko'paygan mamlakatda esa hech qachon futbol rivojlanmaydi. Chunki, sport bilan maishat tamoman boshqa-boshqa narsalar. Dunyoda tovuqni qiyratishdan oson narsa yo'q dum tarafiga bitta changal solinsa bas, avvaliga qoqog'lab uchib ko'radi, so'ng parragi buzilgan uchoqdek gupillab yerga tushadi-yu, uyog'iga piyoda qochadi. Akmal desangiz, o'zi qora bo'lsayam, nihoyatda oqko'ngil bola ekan, gunohsiz jo'jalarning taqdirini o'ylab, yigirma kundan ortiq toqat qilib yuraveribdi...

Meni sotib olgunicha talay azob-uqubatlar chekkanini eshitib, Akmalni yanayam yaxshi ko'rib qoldim. Agar o'zbek futbolchilarining loaqal o'ndan biri to'pga shunaqa mehr qo'ya olsaydi, "Paxtakor"ning nomini eshitganda, hatto "Borussiya"ni bezgak tutadigan bo'lardi.

Men qornimni ishirib mamnun turganimda, qulog'imga: "O'-ho! To'p juda qoyilmaqom-ku!" degan jarangdor tovush eshitildi. Bundoq qaragam, Akmalga o'xshagan qoramag'iz kishi ko'cha eshikdan kirib kelib, menga tikilganicha iljayib turibdi.

Chiroylimi to'pim? dedi Akmal kekkayib. Qani, Pelechasiga bitta tepib ko'ring-chi, dadavoy.

Tepsak tepaveramiz, toycho'g'im, deya menga yaqinlasha boshladi Akmalning dadasi. O'sha Pele deganiyam bizga o'xshagan qo'shoyoq odam-da.

U hazillashayotgan bo'lsa kerak deb, beparvo qolibman. Qarangki, kap-katta kishi o'xshatib turib, biqinimga tepvorsa bo'ladimi, janubiy sharq tomonga qarab o'qdek uchib ketdim. Orqamdan uning bir poy tuflisi ancha joygacha quvib kelib, oxiri qo'shni hovlidagi kattakon qozonda pishirilayotgan sumalakka borib tushdi. Qozonning tevaragida o'tirgan kampirar jon holatda to'rt tomonga tizg'ib ketishdi. Sodda bo'lmay ketgurlar, osmondan yulduz parchasi tushdi deb o'ylashdi shekilli, bu haqda oldindan ogohlantirib qo'yishmagani uchun observatoriyada ishlovchi olimlarni qarg'ay boshlashdi.

Men havoda uchaverdim, uchaverdim, uchaverdim, ikkinchi, uchunchi, to'rtinchi hovlilarning tepasidan o'tib, nihoyat asta-sekin pastlashga tushdim. Pastlayotib: "E, xayriyat, birpasdan keyin Akmal bilan yana diydor ko'rishamiz", deb o'yladim.

Bekorga quvongan ekanman qo'nay deganimda, kenggina yo'lning ustiga to'g'ri kelib qoldim-u, qo'rqqanimdan choklarim tirsillab ketdi. Yo'lda qator-qator mashinalar bir-birovining tutunini hidlashib, ikki tomonga g'izzo-g'iz o'tib turishar, mabodo ularning orasiga borib tushsang, omon chiqishning amrimahol edi.

"Eh, peshana qursin, deb o'yladim men. Endigina shirin hayotni boshlaganimda, nahotki bevaqt nobud bo'lsam? To'g'ri, ichiga havo to'ldirilgan g'ildiraklar aslida bizning uzoq qarindoshimiz. Ammo, ular mendan ancha katta. Kattalar esa, ko'pincha, qarindoshlari tugul, tug'ishgan ukasiniyam tanimay qolishadi. Shunaqa gaplarni eshitganmiz-da".

Ha, begonani-ku begona deysan, biroq seni o'zingnikilar tepalab tursa, dunyo ko'zingga qorong'i bo'pketsa kerag-ov. Dahshat bu! Omadim bor ekan, ishim o'ngidan keldi. Akmalning dadasi haqiqatanam Peleddek aniq mo'ljal bilan tepgan shekilli, men g'ildirak ostiga emas, vag'illab o'tib borayotgan buqasimon yuk mashinasi ustidagi qumga borib tushdim.

Eng muhimi salomat qoldim. Buyog'i bir gap bo'lar...

Qo'chqorali meni yeyolmadi

Mashinadagi qum Qo'zi qassob deganning tashqisiga to'kildi. Yangi qurayotgan uyini qumsuvoq qildirsa kerak-da.

Mashina jo'nab ketgach, qassob meni ko'rib qolib, ko'zini chaqchaytirganicha qo'lga oldi va: "Xudoyimning tantiligini qarang, tuzlab topshirgan terilarimdan bittasini to'p shaklida o'zimga qaytarib turibdi-ya", deb, changimni pufladi. Xuddi bozordan qo'y tanlayotgandek, u yer-bu yerimni ezg'ilab ham ko'rди. Keyin: "Qo'chqorali! Kelaqol, o'g'lim, senga to'p opkeldim. Tepsang, uloqchaday irg'ishlaydi bu zang'ar", deb xirqiradi. So'laqmonday kishining g'irt yolg'on gapirayotganini ko'rib, haddan tashqari uyalib ketdim. Meni sotib olguncha Akmal sho'rlik qancha qiyinchiliklar tortganini bu tayyorxo'r qayoqdan bilsin?

Darvozaning yonidagi mehmonxonadan bir bola chiqib keldi: kallasi og'irligidan bo'yni bir tomonga qiyshaygan, qorni ko'ylagining tugmalarini uzgudek do'ppaygan, oyoqlari tizzadan ikki yoqqa tob tashlagan, beti tovoqday. U menga mensimagan qiyofada boqib: "To'pni boshimga uramanmi? Buni o'rniga xurmo-purmo olib kelavermabsiz-da, dadaginam" deb ming'irladi. Obbo ochofat-ey! Qo'l-oyoqli oziq-ovqat omborimi bu? Ishonchim komilki, meni saryoqqa qovurib berishsa, darrov oldimda chordana qurgan bo'lardi. Keyin meni chaynayverardi, chaynayverardi, chaynayverardi... Bu to'pxo'rlik bir oyga cho'zilarmidi, ikki oygami, unisini aniq aytolmayman.

Yana yemishdan gapirasana! deya o'g'luga zardasi qaynab tikildi Qo'zi qassob. Bo'rdoqiga boqilayotgandek yaltillab ketganingni qara. To'p-mo'p tepib tursang, sal poying pisharmidi?

Qo'chqorali bezillab qo'l siltadi:

To'p tepaman deganimdayam, bolalar "bor, nariroqda pishilla", deyishib, meni baribir o'yinga qo'shishmaydi. Juda zarur bo'lsa, sportning boshqa turi bilan shug'ullanarman.

Masalan? yana ko'zlarini chaqchaytirdi Qo'zi qassob.

Masalan, velosiped sporti bilan, dedi Qo'chqorali. Endi bitta velosiped oberasiz, dadaginam. Motorligidan!

Bu gapni eshitib, Qo'zi qassob bo'kirib yubordi:

Motor?! Motordanki gapirding, sendan ming yildayam qassob chiqmaydi. Menga desa, mexaynik bo'lib o'lib ket.

Futbolchilik-chi? Buyam havfli-ku taysallandi Qo'chqorali. Tepib cho'loq qilishsa, keyin meni boqib o'tirasiz.

Darvozada tursang, tepishmaydi, deb donolandi Qo'zi qassob. Qolaversa, sen guvalakka boshqa narsani uqtirmoqchiman, ya'ni mexaynik bu o'lguncha mexaynik. Futbolchi o'ttiz yoshgacha to'p tepadi xolos. O'ttiz yoshida ishsiz qolgan odam qassoblik qilmay, qayoqqa borardi? Hov, sendan oxirgi marta so'rayapman, tepasanmi manavini, yo'qmi?

Bu boshqa tomondanam juda xatarli, dadaginam, endi mug'ambirlikka o'tdi Qo'chqorali. Maktabimizga bir do'xtir kelib, ko'p ovqat yegandan keyin yugurish odamni og'ir kasallikka yo'liqtiradi, dedi. Ovqatxo'rlikimni bilib turib, to'p tep, deysiz-a!

To'p bo'lib yaralganimdan beri bundaqangi tanbalni ko'rmagan edim. Tepsa tebranmas deganlari shu bo'lmay, kim? Qo'chqoraliga yana bitta o'zibop sherik topilsa, ulardan bemalol darvoza ustunlari sifatida foydalanish mumkin. Bunga o'xshaganlarni maydonning chetiga yetaklab borib, og'ziga saqich solib qo'ysangiz bas, kavshangan kuyi miq etmasdan turaverishadi.

O'ynamasang, o'zingdan ko'r, dedi hafsalasi pir bo'lgan Qo'zi qassob. Unda, bu to'pni Emin etikdo'zga berib, maxsimga yamoq soldiraman.

Bu dag'dag'a Qo'chqoraliga emas, menga ta'sir qilib, kapalagim uchib ketdi.

Biqinimdan darcha ochishmoqchi

Emin etikdo'z kovushnusxa burnining uchiga ko'zoynak qo'ndirib, menga uzoq tikilib qoldi. Keyin tirnog'ida etimni tatalab ko'rishga tushdi. O'zingiz bilasiz, asosiy vazifam har qanday tepkiga o'z vaqtida moslashib ulgurish, lekin turli maqsadlardagi qitiqlashlarga chidash mening burchimga kirmaydi. Shunga qaramasdan, bu holga mardlarcha bardosh berib turaverdim.

Shunday ajoyib terini to'pga ishlatib, rasvoi olam qilishibdi, deb, Emin etikdo'z afsusnamo bosh tebratdi. Odamlarga futboldan nima foyda? Ularga pishiq poyabzallar kerak.

U damimni chiqarib yuborish uchun biqinimga bigiz qadagan pallada, qo'rquvdan etlarim qaltirayverdi, qaltirayverdi, qaltirayverdi. Sopoldek karaxtlanib qolganimga qaramay, jonajon oshnam Akmal qora bilan xayolan vidolashib olishni unutmadi.

La'nati chipor tovuq! O'sha churvaqi jo'lalaringni bir kun oldin, yo bo'lmasa, bir kun kechroq ochsang, o'larmiding? Unda, taqdirim tamoman boshqacha bo'lardi. Boshimga shuncha ko'rguliklar tushishiga birinchi o'rindagi sababchi sensan. Molparast! Oliftaxon!

Shu mahal bir poy botinkani qo'ltiqlab olgan jingalaksoch bola ustaxonaga almov-jalmov kirib keldi. Kirgach, ahvolimni ko'rdi-yu, ko'zlari qinidan chiqqudek bo'lib qiyqirib yubordi:

Iy-y-y! To'xtang!!!

Aksar hollarda bo'lar-bo'lmasga sarflanaveradigan qichqiriqlardan biri bu safar mening hayotimni asrab qoldi. Emin etikdo'z cho'chib ketdi, bigizi qo'lidan uchib tushib, pastda shalvirab yotgan mahsining naq tumshug'iga sanchildi. Yaxshiyamki, mahsini bizga o'xshatib damlashmaydi. Yo'qsa, hozir "pis-s" etardi-yu, joni uzilardi.

Kimsan, hey bola? yoqasiga tuflab olib, bolakayga do'q urdi etikdo'z.

Farhodman!

Farhod bo'lsang o'zingga! Ustaxonamda baqirishga nima haqqing bor? Ana, ko'rgin, seni dastingdan ajoyib bir mahsini yarador qildim. Hayriyatki, shu topda uni ichida Qo'zi qassobning oyog'i yo'q. Bo'lganda, kuningni ko'rarding, bola!

Axir-r... to'pni teshmang-da, bu gal mung'ayib so'zladi Farhod. Bu... vahshiylik, Emin tog'a.

Emin etikdo'z ham o'zini bosib, osoyishta gapirishga o'tdi:

Balki, bu narsa sen uchun to'pdir. Lokigin, biz yamoqchilar hatto jahon birinchiligida ishlatiladigan to'plargayam charm deb qaraymiz. Baski charm ekan, uni mahsiga yamoq qilish hech qanaqa vahshiylikka kirmaydi. Tushunarlimi?

Usta shunday deya, bigizni qaytadan qo'lga olganida, a'zoyi badanimga tag'in titroq kirdi. Ish boshqatdan chappasiga ketayotganini sezgan Farhod bir lahza jovdirab turgach, shosha-pisha taklif kiritdi:

Jon Emin tog'a, bunaqa qilmay turing. Sizga boshqa charm topib bera qolay.

O'zing-ku eski botinkani qo'ltiqlab, sargardon yuribsan, deya kinoyali iljaydi etikdo'z. Obro'ying shu bo'lganidan keyin, charm topib beraman degan gapingga qaysi ahmoq ishonardi?

Farhod uzoq o'ylanib o'tirmay, qo'lidagi botinkani shartta unga uzatdi:

Mana sizga charm! Tashvish tortmang, dadam indamaydi, o'zi yangisini oberaman, deb yuruvdilar.

Emin etikdo'z meni qanday tekshirgan bo'lsa, botinkini ham xuddi o'shanday sinchiklab ko'zdan kechirdi. Menimcha, botinkani qitiqlab o'tirishga sira hojat yo'q edi. Ana, o'zi shundayinam, og'zini yig'ishtirolmay, tirjayib turibdi.

Birinchidan, bu dahmazaning oyoqqa iladigan joyi qolmabdi, deya mug'ambirlik bilan peshanasini tirishtirdi u. Ikkinchidan, faqat daraxtlargina bir oyoqli bo'lishadi. Xullas, manavi "Hasan"i menda tursin, sen vizillab borib, "Husan"iniyam opkelgin-u, keyin to'pni quchoqlab jo'nayver.

Farhod quvonchini ichiga sig'dirolmay, etikdo'zning bo'ynidan achomladi:

Rahmat, Emin tog'a! Mana ko'rasiz, O'zbekiston termasida hujumchi bo'laman hali...

Og'zingni yum! etikdo'zning birdan avzoyi o'zgardi. Terma jamoani gapirma menga! Ularga ishqivozlanib yurib, kenja o'g'lim yurak o'ynoq bo'pqoldi. Senlar, vaqti kelib, nevaramniyam inpark qilmagin endi.

Unaqa demang, Emin tog'a, balanddan kelib va'da berdi Farhod. Biz o'ynasak, chempion bo'lmasdan qo'ymaymiz. Ko'rasiz! Emin etikdo'zning bu gapdan chehrasi yorishib ketdi va "Ma, olaqol unda", deb meni Farhodga irg'itdi. Bolakay suyunganidan yig'lab yuboray dedi. Balki, tug'ilganidan buyon bunaqa ulgurji sahiylikni ko'rmagandir.

Eminjon tog'ajon, rahmat sizga, rahmat! dedi u yuragi hovliqib. Haligi... ikkinchi poy botinkaniyam hozir opkelaman!

Mayli, tezda yetkazib kel, dedi etikdo'z. Baribir unisiniyam uyoq-buyog'ini ko'rib qo'yishim kerak. Keyin... indiniga opketarsan... Tushunarlimi?

Mahsi-chi? mehribon ustaga jon tortishdi Farhod. Qo'zi qassobning mahsisini nimada yamaysiz?

Emin etikdo'z miyig'ida jilmaydi:

Bir ilojini toparmiz.

Yo o'chog'imizning oldidagi po'stakni keltirib beraymi? so'radi Farhod. To'yimda so'yilgan novvosning terisi!

E, yo'q, po'stakdan ayrilsa, enang xafa bo'ladi, deya darhol e'tiroz bildirdi etikdo'z. Bor endi, to'pingni tep. Tushunarlimi?

Buning nimasi tushunarli bo'lmas ekan? Farhod "Urre-e-y!", deb qichqirdi-yu, o'n bir metrdan tepilgan to'pdek, zuvillaganicha tashqariga otildi.

Yashasin Emin etikdo'z va unga o'xshaganlar!

Birquloqning himoyada o'ynagani

Farhod bilan tezda do'stlashib qoldik. U meni stadionga olib bora boshlaganidan so'ng, bahonada, Tepamahalladagi ko'pgina bolalar bilan tanishvoldim. Gohida Akmal qorani eslab, yurak-yuragim ezilib ketishini hisobga olmaganda, kunlarim ancha quvnoq o'tayotgan edi. Payti kelsa, surunkasiga besh-olti soatlab o'yingohdan chiqmayman. Ba'zan men buyoqda qolib, futbolchilar bir-birlarini ko'ptok qilishga kirishib ketishadi. Buyam qiziq tomosha!

Ayniqsa, kecha zo'r o'yin bo'ldi-da. Avvalgi kuni biznikilarga to'rt-u ellik besh hisobida yutqazib qo'ygan quyimahallaliklar bu safar boplab o'ch olish niyatida eng jiraki o'yinchilarini saralab kelishgandi. Doimo yalangoyoq to'p suradigan raqiblar shu kuni

kalish, botinka, hatto etik kiyib olishibdi deng. Darvozabonning sumbatini ko'rib, xoholagingiz keladi. Havo jizillatib turganiga qaramay, boshida qulog'i tushirilgan telpak, egnida qalin po'stin, paxtali shim ustidan kiyilgan etigining qo'nji tizzadan bir qarich balandda. Shu kepatada uzunasiga yonboshlab yotsayam, darvozaga gol urish amrimahol bo'lib qoladi.

Shu qishloqqa kelib bildimki, to'p kimniki bo'lsa, bolalar o'shaning gapidan chiqishmas ekan. Aha shundan kelib chiqib, Farhod endigina uchinchi sinfda o'qiyotganiga qaramay, uni jamoaga o'yinboshi qilib saylashgandi.

O'yinboshi, odatdagidek, kimning qaerda o'ynashini belgilab bergach, bolalarning o'rtasida janjal ko'tarildi. Dastlab, to'qqizinchi sinfdagi Voqisher norozilik bildirdi:

Terakday bo'lib men darvozada turarkanman-u, birinchida o'qiydigan Kenjavoy hujumda o'ynarkan-da? Jamoamizdayam insof qolmadi, mahallamizdayam.

Voqisher bahonada yuragining tubida yotgan eski dardlarini ham to'kib solayotgandi. Bundan uch kun avval mahalladagi to'yda chiroq o'chib qoldi. Pichadan so'ng yongach, mundaq qarasha, kelin-kuyovning oldidagi stol ustida Birquloq laqabli barchaga tanish ko'ppak bemalol varaqisomsa yeb turibdi.

Olishuvlarda raqibiga tishlatib yarador bo'lmasligi uchun egalari jangchi itlarning qulog'ini kesib qo'yishar ekan. Bu ko'ppakning ham kuchuklik chog'ida endigina bitta qulog'ini kesganlarida, qo'ldan siltanib chiqib, ura qochgan, shu kuyi hech kimga tutqich bermay, yagona quloq bilan qolib ketgan ekan.

To'yni boshqarib turgan oqsoqol Birquloqning betamizligidan qattiq ranjib: "Bu marazni menga tirigicha ushlab beringlar!" deb na'ra tortdi. Atrofdagilar darvozani taqa-taq berkitishib, Birquloqni g'ippa qurshovga olishdi. Devor ostidagi kandikni to'sib turish Voqisherning zimmasiga tushdi. Ana endi, "hayov-hayov" kuchayib, ta'qibga uchragan sho'rlik it sirkdagi otga o'xshab doira bo'ylab chopa ketdi. Faqat, farqi shu ediki, sirkdagi ot olqish olsa, bu itga ketma-ket tepki yog'ilib turdi. Birquloqning ahvoli naqadar tang bo'lmasin, bu hovliga qaysi joydan kirib kelganini unutmagandi, qulay fursat poylab turib, o'zini yana o'sha yo'lakka, ya'ni devor ostidagi kandikka urdi. Bu pallada qo'lidagi kosachaga barmoq tiqib, nisholda yalashga berilib ketgan Voqisher g'aflatda qoldi. Muttaham itni bearmon tepkilash imkonidan mahrum bo'lgan ermaktalab o'spirinlar endi xumorbosdiga Voqisherning changini qoqa ketishdi...

Bugun o'yin qattiq bo'ladi! olimlardek qo'lini osmonga bigizlab, Voqisherga uqtirdi Farhod. Bugun ko'p gol urganlar emas, darvozasidan kam to'p o'tkizganlar

yutishadi. Bundan chiqdi, asosiy gap darvozabonda!

Buni eshitib, Voqisherning dimog'i ko'tarildi. Kekkayganicha borib, darvozadan joy olgan chog'da, xuddi dohiylarning haykaliga o'xshab qoldi.

Eng tashvishlisi shu topda jamoamizga bitta o'yinchi yetmay turgani edi. Tepamahallaliklar nima qilishni bilmasdan, o'ylanib qolganlarida, stadionning yonidagi yo'lakdan o'sha Birquloq itni ergashtirib olgan sap-sariq bola o'tib qoldi. Quyib qo'ygandek menga o'xshaydi!

Biz bilan to'p tepsang-chi, Botir sariq, dedi unga Farhod.

Botir to'xtalib, qovoq solib kekkayganicha, o'z talabini qo'ydi:

O'ynasam, hujumchi bo'laman!

Bolalar baravariga kulib yuborishdi.

Bo'yi bir qarich-u, gapi qirq qarich, deya piching otdi kimdir.

Biryola stadionga direktor bo'laqol, deb hirlingladi boshqasi.

Yana birovi iljayib dedi:

Bog'chadayam amaling kattami deymen? Xi-xi-xi...

Botir sariq juda arazchi ekan, qovog'i battardan osilib, indamasdan yo'lga tushdi. Birquloq ham sal irillab qo'yib, egasiga ergashdi. Himoyada o'ynasang, senga konfet berardik, Botirning yo'lini to'sib, avradi Farhod.

Konfetmi, konfetlarmi? xo'mrayib so'radi Botir.

Konfetlar, konfetlar, shosha-pisha aniqlik kiritdi Farhod. Kamida oltita!

Konfetlar Birquloqqa, dedi Botir. O'zinga o'nta yong'oq berishlaring kerak. Himoyada men... yong'oqqa o'ynayman.

Bolalar yong'oqning sonini sal kamaytirishga urinib ko'rishdi. Botir gapida qat'iy turib olgach, u bilan og'zaki shartnoma tuzilib, jamoamiz nihoyat musobaqaga shay qilindi.

Avvalda aytib o'tganimdek, haddan tashqari qiziq, haddan tashqari beayov o'yin bo'ldi. Ikkala mahallaning milliy terma jamoasi oxirgi tomchi kuchi qolguncha olishaverdi, olishaverdi, olishaverdi, bu tanaffussiz o'yin beshinchi soatga yetganida, hamma joy-joyida sulayib qoldi-yu, hakam hushtagini chalib, o'zi ham "gup" etib yerga yiqildi. Lekin, bungacha o'rtada qancha ishlar sodir bo'ldi. Eng yomoni oldiniga jamoamiz o'n daqiqa ichida o'n bitta to'p o'tkizib, o'zi bittayam urolmadi. Quyimahallaliklarning po'stinli darvozaboni sira hayiqmasdan o'zini oyoq ostiga tashlashi, goh kikkoksingchilarning qo'lqopida to'pni uraman deb, hujumchilarimizning jag'iga sopqolishi tepamahallaliklarni sarosimaga solib qo'ydi. Keyin buning chorasi topildi darvozani uzoqdan mo'ljalga olishlar boshlandi. Raqiblar darvozaboni qo'pol kiyimda chuvalanib, to'zini yerlatib tepilgan to'pga tashlaguncha uch qoshiq murabbo yalagulik vaqt o'tardi. Hujumchilarimiz shundan foydalanib, golni yomg'ir qilvorishdi.

Xullas, quyimahallaliklarning botinka va yetik kiyib kelganlari ham naf bermadi. Qaytaga, oldingi kundagidan-da battar bo'lishib, 48:91 hisobida yutqazishdi. Manavini tor-mor qilish deyidilar!

Botir sariqning Birqulog'i raqib hujumchilariga egasi bilan birga tashlanishi himoyachilarimizning ishini yanayam osonlashtirgan edi. Shu bois, o'yindan keyin Birquloqqa konfet yog'ilib ketdi, ammo Botirga va'da qilingan yong'oq masalasi hal etilgunicha, ancha sansalorchilik bo'ldi. Sababi, yong'oq pishig'i hali boshlanmagan, o'tgan yilgilari esa, bolalarga allaqachon yem bo'lib ketgan edi. Oxiri, kuzda o'nga o'n besh qilib qaytarish sharti bilan, Manazar attordan qarz olishga to'g'ri keldi.

Aslida-ku, Botirni kuzgacha sabr qipturishga ko'ndirish ham mumkin edi, lekin u: "Agar va'dalaringni bajarmasanglar, kelasi safar quyimahallaliklarga qo'shilib o'ynayman", deb dag'dag'a qilgach, hamma tipirchilab qoldi. Botirning o'zi o'yinchi sifatida bir pulga arzimayam, uni Birquloq iti bilan birga raqiblar safida ko'rish g'irt ta'bi xiralik edi. Xayriyat, o'nta yong'oqning evaziga katta bir balodan qutulib qoldik.

Diqqatpazlik

Yangi oshnamga endigina elikib, kunlarim xushchaqchaq o'tayotgan damlarda, kutilmagan voqea yuz berdi. Ta'til boshlanib, maktabdagi ko'pchilik bolalar qatorida Farhod ham o'quvchilar oromgohiga jo'naydigan bo'ldi. Hoynahoy, meniyam birga opketsa

kerak deb o'ylagandim, afsuski, umidim chippakka chiqdi. Oyisi bolakayning osmaxaltasiga kiyim va yegulik narsalarni shunaqayam ko'p tiqishtirdiki, u yerga nafaqat men, hatto bir dona gilos sig'magan bo'lardi. Farhod yolg'izlikdan zerikib qolishimni his etdi shekilli, haytovur, sal odamgarchilik qilib, meni qo'shni hovlida yashovchi Dildora degan qizaloqqa tashlab ketdi.

Senga jon-u dilidan mehr qo'ygandastlabki o'rtog'ingdan biron tasodif tufayli ayrilib qolsang, keyinchalik yo'l-yo'lakay uchraydiganlar orasidan ishonchli do'st topish g'oyatda qiyinligini endi anglab yetdim. O'zingiz ayting-chi, agar Farhodning o'rnida Akmal qora bo'lganida, meva-yu shirinliklarni deb, mendek oshnasini tashlab ketarmidi? Yo'q, bir-ikki kunga asqotadigan yemishlarning qadrini mendek doimiy sherikdan yuqori qo'ymasdi. Meni sotib olguncha qancha qiyinchiliklarga chidagan qadrondim akkashni hatto bir sandiq xo'rozqandga ham almashmagan bo'lardi.

Taqdir ekan, kelib-kelib, qiz bola bilan murosa qilishga majbur bo'ppoldim. Mundoq o'ylab qaralsa, qiz bolaning futbol to'piga nima aloqasi bor? Kichikroq kigiz to'p bo'lsa, bu boshqa gap tennis o'ynash, hartugur, ularning qo'lidan keladi.

Dildora oldiniga meni yerga do'pira-do'pir urib o'ynab yurdi. Bilakchasi og'riy boshladi shekilli, almak-jalmak tepib ham ko'rdi. Oyisi qo'g'irchoq olib berganidan keyin, meni hovlidan kesib o'tadigan ariqning yoqasiga tashlab qo'ygancha, qaytib yonimga yo'lamadi. Chok-chokimga zax o'tib, behad lanjlashib qoldim.

Boshga tushganni ko'z ko'rar deb, bo'shshib yotaverdim. Bir kuni xudoning rahmi keldi-yu, shamolini jo'natib, meni ariqqa yumalantirib yubordi. Shaloplab suvga tushdim. Endi buyog'idan tashvish tortmang, cho'kmasdan suzishni bizga chiqargan!

Tasodifiy sayohat

Shunday qilib, suv yetaklagan tomonga qarab oqib ketaverdim, ketaverdim, ketaverdim. Yo'lda uchragan har xil shovvalarda bir-bir sho'ng'ib, binoyidek cho'milib ham oldim. Ozgina sovun topilsa-ku, qozondan chiqqan bo'g'irsoqdek bo'ppoldim-a.

Ariqning to'lqinchalari allalagani sayin biram uyqu tortadiki, miriqib esnay desam, og'zimni tikib tashlashgan. Gohida u yoki bu qirg'oqqa yaqinlashib qolsam, yalpizlar erkalatgandek yuzimni siypalab qo'yishar, bu menga judayam xush yoqardi.

Bir payt, oqib borayotib, uzoqdan qassobxonaga ko'zim tushdi. Qassobxona biqinidagi so'ri shundoqqina ariqning yoqasiga o'rnatilgan bo'lib, uning bir tomonida Qo'zi qassob tarvayib o'tirgan kuyi qo'lidagi mahsining yamalgan joyini diqqat bilan ko'zdan kechirar, ikkinchi tarafda chordana qurgan Emin etikdo'z unga nimalarnidir uqtirar, burchakka cho'kkalab olgan Qo'chqorali bo'lsa, qo'lidagi katta bir ustixonning iligini qoqib yeyishga urinayotgan edi.

Ko'nglimda suv ostiga sho'ng'ib, ularga ko'rinmasdan o'tib ketish istagi tug'ildi. Ammo, damlangan holatimda sho'ng'ishning sira iloji bo'lmadi. Bir mahallar, qachon havoga to'yarkinman, deb o'ksinardim, hozir yesa, bundan pushaymonda edim.

Birinchi bo'lib, meni Qo'zi qassob ilg'adi.

Ie! deya o'rnidan turib ketdi u. Tuzlab topshirgan terilarimdan bittasini xudoyim mashinada jo'natganidi, bunisi suvdan kelyaptiku!

Emin etikdo'z burnining uchidagi ko'zoynakdan menga sinchiklab tikildi:

Bu tinib-tinchimas to'p yana qayoqdan kelyapti? He, attang, shunday toza charm nam tortib, rasvo bo'pti-ya.

Qani, tur, Qo'chqorali! o'g'lini shitobladi Qo'zi qassob. Shuni tag'in qo'ldan chiqarsang, ikki kun ovqatdan tortib qo'yaman. Ustixonni hakamning hushtagiga o'xshatib og'ziga tiqib olgan Qo'chqorali nonushtaga noiloj barham berib, erinibgina so'ridan tushdi. Ariqning bo'yiga kelib, bir qo'lida tolning tomirini ushladi-da, ikkinchisini menga cho'zdi. Endigina biqinimga changal solganida, birdan tomir uzilib, "Dadaginam!" deganicha ariqqa yiqildi. Qo'zi qassob noshud o'g'lini qutqarishga oshiqdi, meshday qornini selkillatgan asno yugurib keldi-da, yangi qurilgan kemadek bo'lib, o'zini suvga tashladi. Ota-bola tarvuz bilan handalakdek bo'lib oqib borayotgani Emin etikdo'zga nasha qildi shekilli, qotib-qotib kulishga tushdi.

Eng havfli dushmandan qutulganimga shukur qilib, chirpirab-chirpirab suzib ketaverdim. Qishloq tugab, ko'm-ko'k rangga burkangan dalalar boshlandi. G'o'zasi ko'saklay boshlagan paykallar yoqasidan oqqanim sayin, suvi har xil shoxobchalarga bo'linayotgan ariq tobora sayozlashib boraverdi. Oxiri, shu yerlarda qumga botib qopketmasaydim, deya bezillayotganimga, meni zo'rg'a sudrab ketayotgan suv boshqa bir ariqqa kelib quyildi. Yangi ariqning suvi o'ta loyqa bo'lsa ham, tez oqishi bilan menga yoqib qoldi. O'zingni ivitganga yarasha, suzish suzishdek bo'lishi kerak-da.

Osmondagi qaldirg'ochlarning hasharot tutishini tomosha qilib, ancha alahsib qolibman. Bir mahal, mundoq pastga qaragam, tevaragimda boshqa bir qishloq turibdi. Bu joylar, negadir, ko'zimga issiq ko'rinib ketdi.

Navbatdagi shovvada yayrabgina sho'ng'ib olgach, nariroqdagi ko'prikning ustida xomush o'tirgan bolaga ko'zim tushdi-yu, dovdiragandek joyimda bir lahza aylanib turdim. Kimni uchratganimni, aytmasimdan ilgariyoq sezib olgandirsiz ha, bu bola o'sha eski qadrondim Akmal qora edi!

Akmal ham meni ko'rgan zahoti, ko'zlariga ishonmay, qovog'ini bir ishqalab qo'ydi. Keyin quvonchdan qichqirib yubordi:

Sariq to'pim! To'pjonim qaytib keldi!

Akmal suvga egildimi, yo bo'lmasa, to'lqinga qo'shilib, o'zim uning bag'riga otildimmi, bunisini aniq eslolmayman. Do'stim "cho'lp" etkazib peshanamdanda o'pganimdanda keyingina o'zimga keldim. Bolapaqir: "To'pjonim! Sariqqina to'pjonim!" deya meni burushta bag'riga bosardi. Men ham to'liqib ketib, yig'layverdim, yig'layverdim, yig'layverdim, bir vaqt qaragam, o'rtog'imning ko'ylagini shalabbo qilib yuboribman...

Mana, bir haftadan buyon yana Akmal qora bilan birgamiz. Uning yonida bo'lish men uchun naqadar zavqli ekanini siz tasavvur qilolmaysiz. Chunki, buning uchun oldin eng jonajon o'rtog'ingizni yo'qotib qo'yib, uni ichikib-ichikib sog'inishingiz, keyin qaytadan topishganda, diydor ko'rishmoqlikning huzurini shaxsan his etishingiz kerak bo'ladi.

Bilaman, ichingizda: "Eh, nodon to'p, xuddi boshqalar tepadi-yu, Akmal bo'lsa seni silab-siypalaydigandek sevinasan-a", deb turibsiz. To'g'ri, Akmal qora ham meni tepadi, ammo gap bunda emas. Birinchidan, biz to'plar azaldan tepkilanish uchun yaralganmiz. Buni, xohlasak-xohlamasak, tan olishga majburmiz. Qolaversa, kimdir seni yurak-yurakdan yaxshi ko'rishini, seni hech qachon, hech narsaga sotmasligini doimo his qilib tursang, hatto uning tepkisi ham ko'nglingga og'ir botmas ekan.

1982-1984 yillar.

Pashshavoyning Boshidan Kechirganlari (Mitti Roman-Fojea)

I Qism - Xonadonning Yemirilishi

Birinchi bob

Uzoq-yaqindagi odamlar iloji boricha "Sharq" oshxonasida ovqatlanishga harakat qilishadi. Chunki, bu yerdagi taomlar xilma-xil,

eng muhimi judayam arzon. Biz ana shu oshxonaning shipidagi kandikda yashaymiz.

Odamlarning fe'l-atvoriga sira tushunib bo'lmaydi. Ochqagan paytlarida oshxonaga mung'ayib kirib kelishadi-yu, qorinlari to'ygach, birdan gerdayishib, ichkilikbozlik qila boshlashadi. Birpasdan keyin qarabsizki, biri chiyabo'ridek uvlasa, boshqasi qo'tosdek bo'kirib turibdi. Ayamning aytishicha, pashshalar orasidan chiqqan araqxo'rlar ichishni shunaqa odamlardan o'rganishgan ekan.

Araqxo'r pashshalardan bittasi mening dadam. Kuniga kayfi taraqquliy kelib, ayam bechorani do'pposlagani-do'pposlagan. Uyimizda tinch kun yo'q. Akamning jahli chiqib, dadam bilan bir-ikki marta aytishib ham qoldi. Ayam, o'zi hozirgina kaltak yegan bo'lsa-da, dadangning ko'ziga hech qachon tik qarama, deb akamni koyib berdi. Hayron qoladigan hol, to'g'rimi?

Ammo, qanchalar dag'alligi qo'zimasin, dadam menga sirayam tixirlik qilmaydi. Aksincha, meni bo'lar-bo'lmasga erkalataveradi. Bu qanchalar yoqimli tuyulmasin, baribir yuragimning bir cheti g'ashligicha turaveradi. Axir, ayang piqillab o'tirganida, erkalanish ko'nglingga sig'armidi?

Araq deganlari juda kasofati narsa ekan. Sog'-salomat ulg'ayib olsam, shu la'natining yaqiniga yo'lamanim bo'lsin-ey!

Ikkinchi bob

Bugun kunbotarga yaqin dadam sho'rlik qadahga quyilgan araqqa cho'kib ketib, olamdan o'tdi. Ayam bilan akamga qo'shilib men ham rosa yig'ladim. Qanchalar janjalkash bo'lmasin, dadam biz uchun nihoyatda aziz ekanligini shu topda tushunib yetdim.

Rahmatlining o'ziyam keyingi vaqtlarda haddidan oshib ketuvdi, deya kuyindi ayam. Avvallari araq yuqi idishlarni yalab yurardi. Bora-bora, qadahlarga odamlardan oldinroq tumshuq suqadigan bo'ldi.

Keyin u sodda pashshalarni yo'ldan ozdirayotgan mayxo'r odamlarni bo'ralab qarq'ay ketdi.

Umrimda bir marta bo'lsa ham kattalarga aql o'rgatgim kelib, "yaxshisi, odamlardan uzoqroqqa ko'chib ketish kerak", deb gap qistirdim.

Bu joylar bizniki! birdan o'dag'aylab berdi akam. Odamlar butun binoni surbetlik bilan egallab, bizni kavakka tiqib qo'yishdi.

Aksincha, kelgindilarning tinimsiz g'ashiga tegib, bu yerdan bezdirishimiz kerak.

Haqiqatan ham, tug'ilmasimdan ancha ilgari "Sharq" oshxonasida faqat pashshalargina yashashar ekan. Bu yerga dastavval oshpazlar bostirib kirishibdi, so'ng xo'randalar keladigan bo'libdi.

Endi ularni haydab bo'psiz, dedim akamga. Ishqilib, o'zimizni tiraqaylatib qolishmasa bo'lgani.

Akam "qismatda borini ko'ramiz", deya beparvo qo'l siltadi. Undan: "Qismat nima?" deb so'ragan edim, o'qrayib turib: "Enang!" dedi. Demak, akamning bundan oldingi gapini "enamizni ko'ramiz" deb tushunish kerak bo'ladi.

Uchinchi bob

Dadamning vafot etganiga hali ko'p bo'lmasidan, uyimizga sovchilar kirib kelishdi. Novvoyxonadagi tandirning yonida yashaydigan qari pashsha ayamni yoqtirib qolganmish. Uning kampirini bir yallachi qurbaqa kap otib qo'rganini eshitganday bo'luvdim.

O'sha uyatsiz cholni boshimga uramanmi? dedi ayam. Unga tul qolgan bironta Itpashshani topinglar!

Bezbet sovchilarni ayam tuzlabgina jo'natganini ko'rib, juda zavqlanib ketdim.

Sovchilardan endigina qutulib turganimizda, akamning Layzon ismli o'rtog'i uyimizga gandarab kirib keldi-yu, gursillaganicha yerga yiqildi. Ayam uni qanoti bilan yelpib turib, nima bo'lganini surishtirdi. Layzon qisqa-qisqa nafas olarkan, uzuq-yuluq tarzda tushuntira boshladi.

Uning aytishiga qaraganda, akam jangari o'rtoqlarini yig'ib, odamlarga qarshi kurashuvga yetaklabdi. Odamlar oldiniga bu xurujlarga parvo qilmayotgandek ko'rinishibdi. Keyin, oq kiyimli kimsa kelib, pashshalarning ustidan allaqanday sassiq dorini purkashga tushibdi.

Sheriklarim tutdek to'kilib qolishdi, hansiragan kuyi, alam bilan ingradi Layzon. Bu odamzot degani oxiri hammamizni bitta qo'ymay qirib tashlaydi!

Layzonning ko'zlarida yosh yiltilladi. Bir-ikki marta chuqur-chuqur nafas oldi-yu, qanotini qattiq zirillatib, oyog'i osmondan bo'lganicha miq etmay qoldi. Akamning o'lganini bilib, ayam behush yiqildi. Men: "Aka! Akajonim!" deya yig'lab, tashqariga otildim. Ho'ngrak otib uchib borarkanman, Layzonning so'nggi gapi qulog'im ostida qayta-qayta jaranglardi: "Bu odamzot degani oxiri hammamizni bitta qo'ymay qirib tashlaydi! Bitta qo'ymay qirib tashlaydi!! Qirib tashlaydi!!!"

To'rtinchi bob

Yo dadamdek araqxo'r, yo akamga o'xshagan urishqoq bo'lib ketishimdan cho'chidi shekilli, ayam oshxonada ovqatlanishimga ruxsat bermay qo'ydi. Qornimiz ochsa, tamaddilanib olish uchun meni boshqa joylarga boshlab boradigan bo'ldi.

Qimirlab turgan qisnib o'lmas ekan goh choyxonadan rizqimizni topamiz, goh molxonadan. Bir kuni tushlikda ayam ikkalamiz ityaloqqa borib qo'ndik. Balki siz itdan nimayam ortardi, desiz. Yuvilmagan idish borki, u yerda biz g'ariblarga yarasha ovqat topiladi. Kexsa pashshalar aytganidek, hali hech kim yuvilgan ityaloqni ko'rish sharafiga muyassar bo'lmagan. Shu bois, hech bir joydan ovqat topilmagan mahalda, uzoq o'ylab o'tirmasdan, yo ityaloqni, yo bo'lmasa, bet-qo'li shatmoq bolani axtarib qolamiz.

Xullas, ayam ikkovimiz ityaloqqa tushib olib, boshqa pashshalar bilan esh-qo'sh tirikchilik qilishga kirishdik. Birov birovga xalaqit bermay, har kim o'zining oldidagini talamonlab turgan vaqtda, qandaydir befarosat odam ustimizdan yuvindi quyib yuborsa bo'ladimi. Yirik maxluqlar "axir bu mittilarningham joni bor-ku", deb o'ylashmas ekan. Qochgan qochib qoldi, qocholmaganlar yuvindi hisobida To'rtko'zga yem bo'ldi.

Oh, sho'rli ayaginam! Hozir u o'sha itvachchaning oshqozonida pitir-pitir suzib yurganmikin? Balki, allaqachon hazm bo'pketgandir...

Uyga qaytib kelganimdan so'ng yuragimni negadir vahima bosdi. Huvillagan xonada tun bo'yi mijja qoqmay o'tirib chiqdim. Ko'zim yumildi deguncha, tushimga To'rtko'zning tishlari kiradi-yu, bir seskanib ketaman.

Shu damda mendan dunyodagi eng dahshatli narsa nima, deb so'rashsa, sira ikkilanmasdan: "Yolg'izlik!" deya javob qilgan bo'lardim.

Ii Qism - Darbadarlikda

Birinchi bob

Pochcham bilan opam kelib, meni o'z uylariga olib ketishdi. Tug'ilgan joyimdan uzoqlashar ekanman, o'zimni xuddi yana bir jigarbandimdan judo bo'lgandek his etdim. Bu uqubatli darbadarlikning boshlanishi ekanligini o'shanda bilmagandim... Opamlar bir boy odamning dang'illama uyidagi qimmatbaho javon ortida turisharkan. Xonaga kirib, og'zim lang ochilib qoldi. Devorning eshik-derazalaridan bo'lak hamma joyiga gilamlar qoqilgan, shipdagi naqshlarko'zni qamashtiradi, idish-tovoqdan tortib qoshiq-cho'michgacha bari yalt-yult qiladi.

Borgan kunim katta ziyofatning ustidan chiqib qolibman. O'sha badavlat odam endigina emaklayotgan o'g'lining tug'ilgan kunini nishonlash bahonasida o'z ulfatlarini yig'ib, katta isrofgarchiliklar qilayotgan ekan. Dasturxonida oymomodan boshqa hamma narsa bor deng.

Pochchamning qari buvisi bilan birga u taomdan bu taomga sakrab yurib, rosa yayradik. Sho'rva ichdik, oh, oh, oh, qovurma yedik, oh, oh, oh, xorijiy baliqning ivildirig'idan totdik, oh, oh, oh, asal yaladik, oh, oh, oh... Chanqab ketib, olma sharbatiga tumshuq tiqqan chog'imda ochko'z kampir "yur, anavi murabboniyam sinab ko'raylik-chi", deb yelkamga turtkiladi. Uning ko'ngli uchun borib, murabboga ham og'iz tekkizgan bo'ldim.

Murabboxo'rlik qilib turganimizda, kayfi oshib qolgan odamlardan bittasi: "Quy quyadiganingni!" deya hayqirganicha stolni mushtladi-yu, murabboli piyolani ag'darib yubordi. Men-ku tepaga bir sapchib, osongina qutuldim, biroq pochchamning buvisi murabboga aralashib ketib, dimiqib o'ldi. Buni birov sezmadiyam, achinmadiyam.

Bilaman, sezganlaridayam baribir achinishmasdi. Ular bizni azaldan yomon ko'rishadi, irkit maxluqlar deb ijirganishadi.

Bu voqeadan keyin pochcham "he, poyiqadamingdan o'rgildim", degandek menga sovuq qaraydigan bo'lib qoldi. Na iloj, o'qraysa o'qrayib yuraversin. Endi pochchadan qo'rqish yetmay turuvdi menga.

Ikkinchi bob

Dod-voyni eshitib, zing'illaganimcha qo'shni xonaga kirib bordim. Kirib qarasam, opam bechora ustiga allanarsa surtib qo'yilgan qog'ozga qo'nib olib, zirillab turibdi. U jon-jahdi bilan tinmasdan qanot qoqar, lekin harchand chiranmasin, oyoqlarini qog'ozdan uzolmasdi.

Shu pallada qayoqdandir pochcham kelib qoldi. O'sha sirli qog'ozning tevaragida bir-ikki aylanib chiqib, tumtaygan holda yonimga qo'ndi.

Odamlar bizga qarshi yelimli dori ishlatishyapti, dedi u. Opangni tug'ma kallavaramsan desam, jirillab ayyuhannos solardi.

Mana, o'zing ko'rib turibsan, esi joyida bo'lsa, kelib-kelib, yopishqoq qog'ozga qo'narmidi?

Opamga ko'maklashish uchun endigina qo'zg'almoqchi bo'lganimda, pochcham shosha-pisha yo'limni to'sdi:

Nima balo, joningdan to'ydingmi? He, tirrancha!

Pochcham shunday deya, meni qanotlari orasiga mahkam qisib oldi. "Qo'yvoring meni, qo'yvoring!" debqancha tipirchilamay, ezg'ilab ushlab turaverdi. Opamga rahmim kelib, ko'zlarimdan yosh tirqiradi.

O'zingni o'ylasang-chi, uka, menga joni achishgan bo'ldi pochcham. Opang endi peshanasiga yozilganini ko'radi.

U so'zini tamomlamay turib, sho'r'peshana opam yelimga butunlay qorishib ketdi. Pochcham nihoyat meni qo'yib yuborib, xomushlangan kepatada boshini egdi.

Men haqimda yomon o'ylamagin, ko'zimga qaramay, asta gapirdi u. Opangga yordam berishim mumkin edi. Lekin, unda, sevimli pochchangdan ham ayrilib qolgan bo'larding.

Sevimli emish! Bunaqa so'takni qaysi ahmoq yoqtirarkan?

Nima bo'lgandayam, kunim shu qo'r'qoqqa qoldi...

Uchinchi bob

Hovlidagi laychanning "vak-vak"lashini eshitib, so'laktumshuq To'rtko'zga yem bo'lgan rahmatli ayam beixtiyor esimga tushdi.

Deraza tokchasidagi telefonga qo'nib olib, ezgin-ezgin yig'lay boshladim. Agar, mehribon ayajonim tirik bo'lganida, hozirgidek och-nahor o'tirarmidim? O'zi yemasa yemasdiki, biror narsa topib, papalaganicha og'zimga tiqardi.

Eshikning tirqishidan chimrilib kirib kelgan pochcham yig'layotganimni ko'rib, telefon yonidagi kitobga kelib qo'ndi-da: "Nega xunob bo'lyapsan?" deb so'radi. Men gapni cho'zib o'tirmay, qornim surnay chalayotganini aytdim.

Judayam bo'shang bola ekansan! deya koyib berdi pochcham. Shuni esdan chiqarmaginki, yaxshilab qidirilsa, tuyadek joydan kuyadek ushoq hamma vaqt topiladi. Ushoqning o'zi pashshani axtarib kelganini hali hech kim ko'rmagan. Vaholanki, sen tengilar...

Yana nimalar demoqchi bo'luvdiykin buni birgina pochchamning o'zi biladi. Uning nasihati chala qoldi. Xonada ivirsib yurgan semiz xotin qo'lidagi charmshalpildoqni bir siltadi-yu, pochchamni kitobga paqqos chaplab qo'ydi. Hozirgina kekkayib va'z aytayotgan pashshaning birdan chalpakka aylanib qolganini ko'rib, ko'nglim battardan buzilib ketdi.

Shunda o'ylanib qoldim pochcham-ku baribir o'lar ekan, o'shanda opamga ko'mak berib, mabodo omadi kelmasa, yelimga birga qorishib ketaversa bo'lmasmidi? To'g'ri, bir necha kun oldinroq o'lardi, lekin o'zidan yaxshi nom qoldirardi. Uning bu ishini boshqa pashshalar uzoq-uzoq vaqtgacha eslab, bola-yu nevaralariga ham gapirib yurishardi.

... Bu olamda hech kimim qolmadi.

To'rtinchi bob

Haqiqiy darbadarlik boshlandi. Ko'p joylarda bo'ldim. Ahvolingni so'rab, darddoshlik qiladiganlardan ko'ra, seni nohaq masxaralab yoki do'pposlab, o'z ko'nglini xushlaydiganlar toifasi ko'proq ekan. Hamma maxluq o'zining o'rniga begonani qo'yib ko'rolsa-ku, olam guliston bo'lardi-ya.

Bir kuni sang'ib yurib, o'zimdan picha yoshroq Pashshaoy bilan tanishib qoldim. U boshpanasiz yetimcha ekanligimni eshitib, juda achinib ketdi. Umrim bino bo'lib, bundaqangi rahmdil qizni ko'rmagan edim. Rahmdillar olijanob bo'lishadi deganlari to'g'ri ekan, u meni mehmondorchilikka taklif etdi.

Och bo'lganim uchun uyalib o'tirmadim. Unga ergashib, qassobxonaga kirib bordim.

Biz ho' ilgakning tepasidagi teshikda turamiz, dedi Pashshaoy. Xohlasang, avval shu yerda bir go'shtxo'rlik qilib olaylik. Keyin uyimizni ko'rsataman.

Oldin qorin to'ydirib olinmasa, har qanday tomosha ham yurakka sig'masligini mendan tuzukroq bilasiz. Shu tufayli, Pashshaoyning so'ziga tezda ko'nib qo'yaqoldim.

Endigina go'shtga borib qo'ngan edik, orqamizdan bir Qovog'ari dirillaganicha kelib qoldi. Men zo'r berib qassobning burni atrofida aylana boshladim. Chunki, odamlar paskash arilarni o'zlarining muqaddas burunlariga hech qachon yaqin yo'latishmaydi. Buni yoshligimda dadamdan eshitganman.

Ha, men ustamonlik bilan qutulibqoldim. Ammo, Pashshaoy nodonlik qilib, qayroqtoshning panasiga yashirinmoqchi bo'ldi-yu, Qovog'arining changaliga tushdi. Olijanoblar sodda bo'lishadi degan gap ham to'ppa-to'g'ri ekan.

Donolar aytganidek, bu dunyoda istagancha dushman orttirish mumkin-u, biroq durustroq do'st topish juda mushkul. Men zo'rg'a bitta do'st orttirganimda, shu zahotiy oq undan ayrilib qoldim.

Shu payt jangari akamning qachonlardir gapirgan bir so'zi to'satdan esimga tushdi. "Qismatda borini ko'ramiz", degan edi u. O'zingni qismatning oqimiga tashlab qo'yib, anqayib yuraversang, yashashdan nima ma'ni chiqadi? Qiziq!..

Xotima

Men bu "roman"ni baxtsiz bir Pashshaning cho'ntagidan topilgan yondaftarchadagi esdaliklari asosida yozdim.

Musibat haqida gapirish qanchalar og'ir bo'lmasin, axborotingiz uchun yana bir narsani bildirib qo'yishim shart: o'sha darbadar Pashsha 1978 yilning sakkizinchi avgustida men tanovul qilib turgan qaynoq sho'rvaga tushib, fojiali halok bo'ldi...

1978 yil

Atrofimizdagi Qiziqchilar (Yumoristik Turkum)

Kuchukning hikoyasi

O'rtog'ing yaramasroq bo'lsa, orani ochiq qilib qo'yish oson payt poylab turib, unga itqitilgan suyakni olib qochsang bas, sen bilan bir umrga salom-alikni yig'ishtirib qo'yaqoladi. Lekin, o'z tug'ishgan opang bo'lmag'ur chiqsa, vov-vov, bundan qutulishning iloji yo'q ekan.

Dardi bedavo-dashu opam. Menga sira kun bermaydi. Sal-pal esimda bor, jishlik chog'imizda ham ayamni avval u emardi. Aslida, yonma-yon emsak tuzuk ish bo'lardi-yu, ammo bunga ko'nmasdi u yaramas. Ko'pincha ochligimcha uxlab qolardim.

Mana, zanjirga bog'lansak bog'langudek bo'ppoldik. Biz tengilar allaqachon alohida ityaloq qilishib, odamlarning uyini poylashyapti. Ularga qarab, havasing keladi. Opamning bo'lsa, hali-veri esi kiradiganga o'xshamaydi. Voy uning ochko'zligi! Voy uning jirtakiligi!

Gapini qarang, "qiz bolaman, shuning uchun idishni men tozalashim kerak", deydi. O'zingiz ham tushunib turgandirsiz, idishni tozalash, bu ityaloqdagi yuvindini pok-pokiza yalab qo'yish degani.

Dasturxon qoqilishi bilanoq, qolgan-qutgan nonlargayam birinchi bo'lib u xonim chang soladilar. "Hey, uyatsiz, endi buyog'ini menga qo'yib ber-da", desam, "o'g'il bolasan-ku, sen suyakniyam g'ajiyverasan", deb surbetlarcha kavshanishga tushadi. Hech bo'lmasa, ulgurjiroq suyak tegib tursa ham mayliydi. Qayoqda deysiz, hozirgi qassoblar nihoyatda noinsof bo'lib ketishgan, bir kilo go'shtga bor-yo'g'i yarim kilo suyak qo'shishadi.

Uf-f, juda hayron bo'ppoldim. Yo uydan shartta bosh olib ketvorsammikin? Bunaqa opa bilan, masalan, siz bir kun ham yasholmagan bo'lardingiz...

Mana, azbaroyi qornim ochganidan, barmog'imni so'ri-i-b o'tiribman. Opam bo'lsa, "chilip-chilip, chilip-chilip"latib idish tozalayapti. Bir narsa deyay desam, yana qiz bolaligini pesh qiladi. He, beting charmdan bo'lmay ketgur!

...Ishqilib, sen ukangni xafa qilmayapsanmi, qizaloq? Yo odamlarning bolalari ham bizga o'xshaganroqmi?

Qarg'aning hikoyasi

Qag'-g'! Ishlar chatag'-g'! Qag'-g'! Qag'-g'-g'!!!

Hoy, ahvolimni so'rab nima qilasan? O'rgildim sendaqangi mehribondan. Nima, aytganim bilan yarim dardimni tortishib berarmiding?

Qag', qag'-g'! Voy, ablag'-g'! Biqinimni yedi-ku bu ablah Qoramosh!

Mabodo, seniki emasmi o'sha yumdalog'ich iblis? Haligi qora Mushukni aytaman-da. Bu befarosatni avvallariyam yomon ko'rardim. Boya o'rikning shoxida qirov yalab o'tirsam, baraka topkur Laychavoy uni zing'illatganicha quvib o'tib qoldi.

Ana endi Qoramoshning holini tomosha qil qo'rquvdan junlari tikkayib, ko'zlari ola-kula bo'pketibdi. Oyog'i yerga tegmaydi. Shu qochishda qochib borib, o'zini bostirmaning ostiga urdi. Bostirmaning chetiga bir uyum xazon to'plab qo'yilgan, ivitib qo'yga berib turishadi-da. Qoramosh borasolib, xuddi o'sha xazonning ichiga kirib ketdi. Daraxtning ustidan ko'rib turmasam ekan!

Qarasam, Laychavoy garangsigan taxlitda ivirsib qoldi. Bu ishga shaxsan o'zim aralashmasam bo'lmaydigandek tuyuldi. Borib, yaqinroqqa qo'ndim-u, go'yo hech nimadan xabarsizdek, beparvo so'radim:

Xo'-o'-sh... Bu yerda nimalar bo'lyapti o'zi, Laychavoy? dedim.

Mushukni quvib yurib, shu joyda yo'qotib qo'ydim, deb akilladi Laychavoy. O'sha xumparni tutib dumini yulmasam, it emasman deb qasam ichganidim.

Donolarning gapiga qaraganda, birov bilan o'chakishish umuman yaxshi emas, deya gerdaydim men. Ming afsuski, og'zingga qaltisroq so'z olib qo'yibsan. Endi "it" degan tabarruk nomni astoydil himoya qilmog'ingga to'g'ri keladi. Binobarin, shunday ekan, sen pahlavonzoda...

Gapni ortiqcha cho'zgan Laychavoyga yoqmadi shekilli, so'zimni shartta bo'lib, "Olimligingni yig'ishtir! Qoramosh qaerga berkinganini ko'rdingmi, yo'qmi?" deb irilladi.

Ko'rishga-ku ko'rmadim-a, dedim, hanuz satanglanishni qo'ymay. Lekin, farosatni ishga soladigan bo'lsak, kalavanning uchini topmoq mumkindir. Ya'ni, Qoramosh kalamush emaski, kavakka kirib ketsa. Agarda aqlim pand bermasa, u xazonning ichiga berkingan bo'lmog'i ehtimoldan xoli emas.

Hali gapimni tugatganim yo'q ediki, Qoramosh xazonning orasidan o'qdek sapchib chiqib, ustimga otildi. Laychavoy ham, men ham o'zimizni o'nglashga ulgurmay qoldik. Battol mushuk: "Mana senga, chaqimchi!" dedi-yu, biqinimga bir tirnoq urib o'tib ketdi. Yulingan patlarimni to'zitib, zo'r-bazo'r havoga ko'tarildim. Laychavoy uni yana quvishga tushdi.

Voy, biqinginam-ey! O'rikning shoxida jimgina o'tiraversam bo'lmasmidi? Nima qilardim birovlarining ishiga aralashib?

Boshqalarga o'zimni aqlli qilib ko'rsatgim keldimi deymen-da. Eh, pishmagankalla!

...Chaqimchilik yomon narsa deysanmi? Aql o'rgatmoqchimisan, uka? Bor, yo'lingdan qolma. Farosat bilan aytganda, shaxsan menga dars berishga hali yoshlik qilasan.

Qag'-g'!!!

Cho'chqachaning hikoyasi

Xur... xur... xursandchilik yaxshi narsa-da. Kecha balchiqqa yumalab, rosa o'ynabman deng. Keyin maza qilib axlat titkiladim.

Dadam ahvolimni ko'rib, "sendan haqiqiy Cho'chqa chiqadi", deya yelkamga bir urib qo'ydi.

Siz qanday o'ylashingizni bilmayman-u, men kallamni ishlati-i-b turib, "Agar dunyoda balchiq degan narsa bo'lmasa, yashashning bittayam qizig'i qolmasa kerak", deb yuraman. Afsuski, ba'zilar shuni tushunmaydi. Masalan, qo'shnimiz qora Sovliq esli-hushli hayvon bo'laturib balchiqni hurmat qilmaydi-ya.

O'tgan kuni uning go'g'li bilan birgalashib o'ynaganini chiqdik. Qarasam, Qo'zichoq tushmagur to'g'ri maysazorga qarab ketyapti.

Bilaman, u yoqda ajriqdan boshqa hech vaqo yo'q.

Ho', lattabosh, buyoqqa yur! deb qichqirdim unga. Juda ajoyib joy bor, yumalanib-yumalanib o'ynaymiz. Qani, orqamdan o'rmala-chi.

Uni o'sha huzirijon Sassiqlikga boshlab bordim. Boriboq, o'zimni balchiqqa otdim. "Ke, menga o'xshab bir yayra", dedim

Qo'zichoqqa. U oz-moz ikkilanib turib, sekin balchiqqa tushdi.

Qo'rqma, debdalda berdim unga. Keyin tumshug'imni balchiqqa tiqib, uning havasini keltirdim. Qani-qani, sen ham shunaqa qil-chi.

Qo'zichoq tumshug'ini balchiqqa tiqdi-yu, darrov boshini ko'tarib, aftini burishtirganicha loy tuflashga tutindi.

E-e, yutvormaysanmi! dedim, g'ashim kelib.

Qo'zichoq menga yomon ko'z bilan o'qrayib qo'yib, indamasdan uyiga jo'nab qoldi. Shu-shu, mendan andak xafa. Eshitishimga qaraganda, uyiga borganidan so'ng, po'stinchangni rasvo qilbsan, deb onasi rosa ta'zirini beribdi. Buni eshitib, Qo'zichoqqa juda rahmim keldi.

Boshqa tomondan, sal jahlim ham chiqdi. Qo'zichoq-ku hali yosh, lekin kap-katta qora Sovliq balchiqning qadriga yetmagani qiziq. Xur... xur... xurofot bu.

E, menga nima? Kimki yashashni bilmabdi, o'ziga qiyin. Men bo'lsam, bugun ham, ertaga ham balchiqqa yumalayveraman.

Ishqilib, toza yurmasam bo'lgani. Shundagina haqiqiy Cho'chqa bo'lib yetishaman.

... Ha, yo'l bo'lsin? Oqsoyga deysanmi? Ie, g'o'r bola ekansan-ku! Soyda cho'milib nima huzur topasan? Yur, Sassiqlikga boramiz.

Sen ham menga qo'shilib bir yalala-yalay qilsang-chi.

Buzoqning hikoyasi

Chindan ham sinchkov bo'lsangiz, menga dunyodagi eng farosatsiz hayvonning nomini aytib bering-chi. Yo'q, Eshak emas.

Topolmadingiz. Eng befarosat maxluq, bu Tuya. Ha-da!

Masalan, qo'shnimiz Nortuyani olaylik. Ismim Targ'il ekanligini unga kuniga o'n martalab uqtiraman. U bo'lsa, baribir Qashqa deb chaqiraveradi. Hozir ham yonidan o'tib borayotsam, "Yo'l bo'lsin, Qashqavoy?" deb yana jig'imga tegdi.

Alam qiladigan joyi shundaki, shu topda o'zim o'sha so'tak Qashqani axtarib yuribman. Qo'limga tushsa, uni yanayam qashqaroq qilib qo'yishim turgan gap. Negaki, doim rizqimni qiygani-qiygan.

Aslida, Nortuyaning adashtirganicha bor. Qashqa ikkalamiz bir-birimizga juda o'xshab ketamiz. Qorong'i tushgan paytda hatto onalarimiz ham bizni farqolmay qolishadi. Yaramas Qashqa xuddi mana shundan foydalanib, uxlab yotgan chog'imda onamni emib qochadi.

Avvaliga uni bir-ikki marta yaxshilikcha ogohlantirdim. Keyin biqiniga bir kallalab qo'ydim. Bezbet o'shandayam pinagini

buzmaydi deng. Jirillamasdan, sen ham mening onamni emaversang-chi, deydi-ya. Zap ahmoqni topibsang-da, dedim unga.

Ochig'ini aytsam, uning qiltiriqday bir onasi bor, ertalabdan kechgacha emganingdayam, so'rgan suting chap ichakka yuq bo'lmaydi. Mening onam bo'lsa, gumbazdek to'lishgan, yelinlari larsillab yotibdi.

Xullas, bugun ham uzoqroq uxlab qolgan ekanman, uyg'onib qaragam, Qashqa onamni yana emib qochibdi. Xunobim oshib ketdi.

Har qanday sabr-toqatniyam chegarasi bo'ladi, yetar endi. Uni qaerdan bo'lmasin topib, u biqiniga, bu biqiniga, tag'in u biqiniga, tag'in bu biqiniga kallalab tashlamasam, novvosman deb yurgan ekanman-da.

...Buzoqning yugurgani somonxonagacha, deysanmi? Gapingda jon bor, oshnavoy. Qani, bir somonxonaga borib ko'ray-chi.

Tulkichaning hikoyasi

Biz Tulkilar haqida gap ketgudek bo'lsa, odamlar ismimizning oldiga albatta "ayyor" so'zini qo'shib aytishadi. Bu insofdan emas.

Ayyorlik bilan uddaburonlikning farqiga borish kerak. Ishbilgich bo'lmasang, bu olamda kun ko'rish qiyin.

Ke, boshingni aylantirib o'tirmay, yaqinda yuz bergan bir voqeani dastaklab o'ta qolay. Shunga qarab, kimligimizni o'zing tushunib olarsan.

Bundan o'n kuncha oldin ayam ikkalamiz tovuqxonada qo'lga tushdik. Ichkariga kirganimiz zahoti shartta eshikni yopishdi. Endi bizni o'ldirishadi deb o'ylab, juda qo'rqib ketdim. Ayam bechora ham dag'-dag' qaltiray boshladi. Go'yo: "Bolamda ayb yo'q, nima qilsanglar meni qilinglar", demoqchidek, meni tagiga bosib, boshimni jag'ining ostiga yashirib oldi.

Qorovul chol bilan o'g'li allaqanday matoni yoyishganini ko'rdim-u, ularning niyati nimaligini anglab yetgunimcha, ko'z oldimni birdan zulmat qopladi. "Odamlar bizni sholchaga o'rab olishdi", deya chinqirdi ayam, so'ng jon-jahdi bilan potirday ketdi. Men ham jim turmadim. Ammo, odamlar allaqachon ustimizga minib olishgandi. Kuchli panja sholcha aralash bo'yimdan qisdi.

Nafasim bo'g'ilib, xirillab qoldim. Keyin nima bo'lganini bilmayman...

Bir mahal ko'zimni ochsam, ayam ikkovimiz ariqcha yoqasidagi tolning salqinida yotibmiz. Bo'ynimizda itlarnikiga o'xshagan pishiq zanjir. Qiziq! Bizni nima qilishmoqchi o'zi?

Zanjirmi goh siltab ko'rdik, goh g'ajib ko'rdik, foydasi yo'qligini sezib, hafsalamiz pir bo'lib turganida, qorovul chol cheti siniq kosada achigan bo'tqa keltirib, oldimizga qo'yib ketdi. Chol uzoqlashishi bilanoq, taomni shoshilib iskay boshlagan edimki, ayam tumshug'imga bitta tarsakilab qoldi.

Yema! dedi u. Nafsingni tiy, tentak!

Nega yemas ekanman? deya zardalandim men. Qornim allaqachon hushtak chalyapti.

Hozir bizga tekin ovqat kerakmas, deb o'dag'ayladi ayam. Ozodlik kerak bizga, ozodlik!

Keyin, ahvolimga achinib, meni bag'riga bosdi. Boshimni silab turib, o'ylab qo'ygan rejasini gapirib berdi, nimalar qilishimiz

lozimligini yotig'i bilan uqtira ketdi. Shunda men, bir yalanib olib, yana ming'irladim:

Hech bo'lmasa, suv ichsam maylimi? Tilim tanglayimga yopishib qolyapti.

Suvdan ichsak bo'ladi, chunki kamaygani bilinmaydi, dedi ayam va ariqcha tomonga yutoqib qarab qo'ydi. Faqat kechqurun, hamma uxlaganda ichamiz. Sabr qil, eslikkinam, sabr qil.

Nihoyat, men orziqib kutgan vaqt keldi, tunda qonib-qonib suv ichdim. Buning ustiga, payt poylab turib, ariqchada qurillab yurgan baqalardan uch-to'rttasini ushlab, isini chiqarmay urvoldik.

Kunlar shunday o'taverdi. Kunduzlari tuz totmasdan sulayib yotamiz, tunlari oz-moz tirikchilik qilib olamiz. Hech narsa yemayotganimiz oxiri tovuqboqar kampirning e'tiborini tortdi.

Bularni sholchaga o'rab bosganlaringda qovurg'alari singanga o'xshaydi, dedi u qorovul cholga. To'rt kundan beri tuz totmasdan yotishibdi-ya. Ikkalasiyam chalajon.

O'lishmaydi, deb to'ng'illadi chol. Bolasiniyam katta qilvolsam, o'g'ling ikkalamizga bittadan telpak chiqadi, kampir.

Beshinchi kuni erta saharda ayam menga tayinladi:

Bugun, iloji boricha, nafas olayotganingni sezdirmay yot. Tepishsayam, g'ing dema. Chida!

Shu tariqa, miq etmay yotaverdik. Bir mahal, qadam tovushi eshitildi. Ko'zimni qiya ochib qarasam, kampir yana ovqat olib kelyapti. U, tepamizda to'xtalib, bizga diqqat bilan tikilib turdi, keyin egilib, meni bir-ikki qimirlatib ko'rdi. Qitig'im kelsayam, o'liklikka chidadim.

Uf-fl! ovqatni yerga qo'yib, chuqur homuza tortdi kampir. O'lishadi desam, ishonmadi bu chol. Mana, sho'rliklarning uvoliga qoldik.

U g'udranganicha bo'ynimizdagi zanjirni yechib tashlab, indamasdan nari ketdi.

Endi qochamizmi? toqatsizlanib, yonimda yotgan ayamni turtkiladim men. Vaqtida g'oyib bo'lmasak, qaytib kelib, boshqatdan zanjirga solishmasin!

Jim! ko'zini xiyol ochib shivirladi ayam. Chol darvoza tarafda yuribdi. Yana ozgina toqat qil, eslikkinam.

Chol ochiq turgan darvozaning oldida ancha ivirsib yurdi. Keyin uychasining yoniga borib, obdastani oldi-da, kalishini sudraganicha hovuz tomonga keta boshladi.

Tur! qat'iy ohangda buyurdi ayam. Qochdik, bolam!

Men o'rnimdan qo'zg'alayotib, cheti siniq kosadagi ovqatdan boplab bitta yalab oldim. Ayam esa, tevaragimizda bemalol sayr qilib yurgan tovuqlardan eng semizini allaqachon tumshug'iga qistirib ulgurgan edi.

Qiyinchiliklarga bardosh berganimiz yaxshi bo'ldi. Mana, zanjirdan qutulib, omon-omonda o'ynab yuribmiz. Naq ajalning panjasidan sog' chiqdik-da o'ziyam!

... Qani, birodar, aytgan gaplarimni aqlingning tarozisiga bir solib ko'rgin-chi. Seningcha, bu ayyorlikmi, yo ishbilarmonlikmi?

Balki, tamoman bo'lak narsadir?

Quyunchaning hikoyasi

Buncha xomushsan, deysanmi? Nahot, xafaga o'xshab ko'rinayotgan bo'lsam? Bu shunchaki qornimning ochligidan... yoki To'ng'iz bilan "ahmoq-ahmoq" o'ynayverib, charchaganimdan bo'lsa kerak.

Qanaqa o'yin bu, deganing nimasi? Rostdanam hech o'ynab ko'rmaganmisan? Hayotdan to'rt qarich orqada qolibsam-ku, xi-xi-xi.

To'g'risini aytsam, bu o'yinni o'zim ham bugun o'rgandim. Agar karamlarim bo'lmaganida, kim biladi deysan, haliyam o'rganolmay yurarmidim...

Xullas, inda yotaverib, juda zerikib ketdim. Buning ustiga, mundoq timirskilab ko'rsam, omborchamda tishga ilinadigan narsa qolmabdi. Picha tamaddi qilvolish, bahonada oyoqning chigalini ham yozvolish maqsadida chakalacka chiqdim.

Bir vaqt qarasam, ho' anavi yo'ldan eshakarava ketib boryapti. Chetan[1]ning ichi liq to'la karam. Og'zim suvlashib, jig'ildonim likillay boshladi. Odamlarda "Omading yurisha ko'miringdan tillo, eshagingdan mullo chiqadi", degan maqol borligini buvimdan eshitganidim. Meniyam bir omadim keldi-yu, g'ildiragi chuqurchaga tushgan arava qattiq silkingan chog'da, katta-katta ikkita karam chetandan tashqariga uchib ketdi. Mudrab borayotgan aravakash buni sezmay qoldi.

Karamlarni ko'zdan panaroq joyga birin-ketin dumalatib kelib, yeyishni qaysinisidan boshlasam ekan, deb taraddudlandim.

Shunda, "Ishkamba" laqabli qorindor To'ng'iz inqillagan kuyi qarshimdan chiqib keldi.

Ingq, ingq, karam muborak bo'lsin, Quyonpolvon! dedi u oldimga yaqinlashib. Qayoqdan eplashtirding bularni?

Ishkambaning menga bunaqa do'stona muomala qilganini sira ko'rmagandim. Birdan erib ketib: "Topdik-da endi", deb suzilganimcha iljaydim.

Judayam ajoyibsan-da, uka, karamlarga so'lagi oqib tikilarkan, meni maqtashga tushdi Ishkamba. Bilaman sen shovvozni, men bilan "ahmoq-ahmoq" o'ynashni mo'ljallab turibsan, ingq. Ishkamba akangni ermak qilib, bir yayramoqchisan-da, a?

Buning qanaqa o'yinligini surishtirgan edim, kexsa To'ng'iz "bilaturib, meni kalaka qilyapsan", deya avvaliga sal ranjigan bo'ldi, keyin shoshmasdan tushuntira boshladi. Uning aytishicha, bu o'yinda ikkita hayvon qatnasharkan. Ulardan biri ovqatlanayotganida ikkinchisi "ahmoq kavshandi-yo, ahmoq kavshandi-yo", deb atrofida irg'ishlab aylanganicha mazaxlab turarkan. Juda qiziq o'yin, to'g'rimi? Men ko'p o'ylanib o'tirmay, o'yinga qo'shilishga rozi bo'ldim. Ishkamba karamlarni "g'irs-g'irs" qilib yeyishga tushdi.

Men uning tevaragida sakrab, "ahmoq kavshandi-yo, ahmoq kavshandi-yo", deb chapak ura ketdim. Shu desang, masxara qilaverib tomog'im, irg'ishlayverib oyog'im og'riy boshladi.

Ishkamba ikkala karamni chiqindi qoldirmay tushirib bo'lgach, "Ho', g'ilay, o'zingdan o'zing namuncha shataloq otasan?" deya ko'zimga o'graydi. Men yana picha "ahmoq-ahmoq" o'ynaylik, deb iltimos qilgan edim, u "ingq-ingq, o'zing ahmoqsan", deganicha kelgan tomoniga qaytib ketdi. Ortiqcha ahmoq qilganimdan xafa bo'ldi shekilli.

...Menga bunaqa masxaraomuz iljaymagin-da, oshna. Nima, To'ng'izni boplaganimga ishonmayapsanmi?

Xachirning hikoyasi

Ot dadam, Eshak ayam... Yo'q, yo'q, adashib ketdim. Eshak dadam, Ot ayam...

Ha, dadam Eshak! Shuning uchun men Xachirman!

Agar dadam ham Ot bo'lganida, men toychoq bo'lib tug'ilardim. Yo aksincha, ayam ham Eshak bo'lganida edi, hozir qarshingizda men emas, ketvorgan bir xo'tik turardi.

Imkon boricha yo toychoq, yo xo'tik bo'lib tug'ilgan yaxshi ekan. Xachirlik nimaligini xachir bo'lgan biladi. Menga juda qiyin.

Yaylovga chiqsam, bir tomonda ayam kishnay boshlaydi, bir tomonda dadam hangrab qoladi. Ayamning ketidan chopay desam, unga yetib yurolmayman. Dadamga ergashay desam, maydaqadamligi jonimga tegib ketadi. Bor-e, deyma-u, o'zim boshqa yoqqa qarab baholi qudrat chopib ketaman. To'rg'aylar hushtak chalganlaricha orqamdan ermaklab qolishadi. Oyoqlarimga boqib, pakana bo'lsam ham, hartugur ayamga tortgan ekanman, deb yurardim. Tunov kun buloqda o'z aksimni ko'rib, bu fikrimdan qaytdim. Tumshug'im bilan quloqlarim xuddi eshakkikiga... e, uzr... dadamnikiga o'xshar ekan. Turxatim ham ikkiyoqlama ekanligini payqab, ichikkandan ichikib ketdim. Qisqasi, na toychoqman, na xo'tik. Katta bo'lganimdan keyin ham odamlar meni o'tdek choptirishib, eshakday ishlatishsa kerak. Bularni qo'yib turaylik, muhimroq boshqa bir masala bor. Ko'pdan buyon boshim qotib yuribdi kishnasammikin, hangrasammikin? Kishnaganim bilan baribir meni hech kim tulpor demaydi. Bordi-yu, hangrasam, unda chala eshak bo'p qolaman. Menimcha, kishnagan-u hangraganga o'xshaganroq ovoz topganim ma'qul. ...Ho', akasi bo'yidan! Sen shu masalada menga durustroq maslahat berolmaysanmi?

Hakkaning hikoyasi

Odamlar meni o'g'ri deyishadi. Shuyam gap bo'ldi-yu! Nima, boshqa qushlardan boyib ketgan joyim bormi? Ko'pchilik qatori tirikchilik qilib yuribman-da. O'zimga keragidan ortiqroq narsani o'margan bo'lsam, teshib chiqsin. Farazlab ko'raylikki, yog'liqqina suzma qatqini qurut qilishib, oftobga terib qo'yishgan bo'lsin. Tevarakda hech kim yo'q. Masalan, siz o'sha qurutlardan bir-ikkitasini totib ko'rmasmidingiz? Faqat, oliftagarchilik qilmay, to'g'risini gapiring. Yoki tomga yoyib qo'yilgan yong'oqqa duch kelib qoldingiz deylik. Nega endi undan uch-to'rttagina chaqib ko'rmaslik kerak ekan? Bilaman, shaxsan siz qorinniyam to'ydirasiz, cho'ntakkayam urasiz. Men bechorada esa, cho'ntak degan narsaning o'zi yo'q. Endi, tuxum masalasiga to'xtalaylik. Qushlarning tuxumini qasddan o'g'irlyaydi deb o'ylasangiz, meni to'g'ri tushunmas ekansiz. Birovlar haqida, o'ylamay-netmay, bo'lmag'ur gaplar aytish odobdan emas. Sizdaqangilarni g'iybatchi deyishadi. O'zingiz bilasiz, men ashulachiman. Ashulachi bo'lgandayam, mayna-saynalarga o'xshagan xashaki yallachilardan emasman. Terakning uchiga qo'nvolib, bir shaqillashni boshlasam, ovozim yetti mahallaga taraladi. Shunaqa ajoyib ovozingiz bo'lsa, siz ham kuniga xom tuxum yutib turishni kanda qilmasdingiz... Ie! Ho' obdastaning yonidagi nima? Pishloqmi? Voy, atirsovun-ku! Yerga tashlab qo'yishibdi-ya. Hoynahoy, odamlarga ortiqchalik qilayotganga o'xshaydi. Atrofdan birov yo'qmi? ...Vey, shalpanquloq, nega xo'mrayib qoldingiz? Ko'rib turibsan, havo tobora isib ketyapti. O'zgina sovun yesam, patlarim tulab, sal yengillayman. Axir, men o'zimga kerak bo'lmagan narsani olayotganim yo'q-ku!

Chiyabo'ring hikoyasi

Maktabga borishga hech oyog'im tortmay qoldi. O'qituvchimiz borgan sari qiyin savollar berib, miyamning qatig'ini chiqaryapti. Oldingi qatorda o'tirishning xosiyati yo'q ekan. Kuniga elakdan o'taman-da. Mana, kechagi kunni olaylik. O'qituvchim meni o'rnimdan turgizib, "Xo'sh, ayt-chi, Quyong botqoqqa cho'kayotgan bo'lsa, biz nima qilishimiz kerak?" deb so'rab qoldi. "Serqamishroq joyni tanlab, ehtiyotkorlik bilan unga yaqinlashamiz", dedim men. Balli! dedi o'qituvchimiz. Bu maqtovdan ko'nglim ko'tarilib, dadil so'zlashga tushdim: Judayam yaqinlashib qolganimizda, bir qo'limizda baquvatroq qamishning tubidan ushlab, ikkinchisini Quyonga cho'zamiz. Ofarin! deya bosh iring'ab iljaydi o'qituvchimiz. Men baralla sayrashda davom etib: "Quyong panjamizga ilindi deguncha, uni shartta o'zimizga tortamiz", dedim. Tasanno! sevinganidan qichqirib yubordi o'qituvchimiz. Balo ekansan! Kallang zo'r ishlayapti! Qani, uyog'ini gapir-chi! Shu yerga kelganda, nima deyishni bilmay, duduqlanib qoldim: Keyin... keyin... Bu turishim o'qituvchimizga yoqmadi shekilli, birdan qovog'i osildi. Negadir toqatsizlana boshladi. So'ng hozirgina meni "ofarin"layotgan maxluq tuyqus to'nini teskari kiyib: "Quyong changalingda turibdi, xumkalla. Gapga tuzukroq xulosa yasamaysanmi endi", deb o'shqirdi. Men bahomning pastlab ketishidan qo'rqib, picha o'ylanib olgach, "Quyongning terisidagi loylarni tozalab tashlaymiz", deb mung'aydim. Gapniyam, ishniyam cho'zvoryapsan! so'lagini yutib g'ijindi o'qituvchimiz. Sen Quyongni mushkul ahvoldan qutqarding, ozod qilding. Oddiyroq tilda aytganda, Quyonga foydang tegdi. Endi Quyongning senga foydasi tegishi kerak. Xo'sh, o'yla-chi?! Hanuz dudmallanib turganimni ko'rib, o'qituvchimizning battar jahli chiqdi: Qaysidir Quyong boshqa bir Quyonga tekinga yaxshilik qilishi mumkindir, menga yeb qo'ygudek bo'lib o'qraydi o'qituvchimiz. Lekin, biz Chiyabo'rilarimiz. Bizdagi falsafa boshqacha... O'zimizga yarasha nafsimiz bor! Tugalay dovdirab, nima deyishimni bilmay qoldim. Bundan o'qituvchimizning fig'oni falakka ko'tarildir-yu, shartta bo'g'zimdan ushlab, meni o'ziga yaqinroq tortdi. Avvaliga Quyongni ozod qilamiz, ko'zlariga qon to'lib chiyilladi o'qituvchimiz. Qutqarganimizdan keyin, biz uni mana munday qilib... U og'zini katta ochib, o'tkir tishlarini kekirtagimga yaqinlashtirgan pallada miyam yarq etib ishlab ketdi va bor ovozdada: "Yeb qo'yamiz!" deb qichqirdim. O'qituvchimiz shu zahoti yengil tortib, meni qo'yib yubordi. Borakansan-ku, humkalla, chehrasi yorishib, yelkamga qoqdi u. Chiyabo'ri deganning gapi mana bunaqa bo'pti-da! Ha, bitta "to'rt" olguncha, ona sutim og'zimga keldi. ...Nima deding? Uchta tovuqqa ikkita o'rdakni qo'shsak, jami nechta bo'ladi deysanmi? Bu masalani chiyabo'richasiga oppa-oson hal qilish mumkin, og'aynijon. Boshni ortiqcha qotirib o'tirmaslik uchun ularni xappa yeb qo'yamiz, qorinda o'zlari qo'shilib ketaveradi.

Beshiktervatarning hikoyasi

Mana shu uvatning hammasi ilgarilari Beshiktervatarlarga qarashli edi. Bir kuni ochko'z Chigirtkalar yopirilib kelishdi-yu, biz ov qiladigan joylarni egallab olishdi. Tirikchiligimiz qiyinlashib ketdi. Avvallari yemishni har qadamda uchratish mumkin edi. Endi kun bo'yi kuyib-pishib o'lja qidirasan-u, topganing oshqozonga jaz

bo'lmaydi. Sakrog'ich Chigirtkalar deyarli hamma narsani zahri-mahriga yutib bo'lishdi.

Bu ko'rgiliklar kamlik qilganidek, o'sha chirillog maxluqlarning do'qchiligini aytmayisizmi. Kecha ov qilib yursam, ulardan ikkitasi qarshimdan chiqib qoldi: bittasi vajavang semiz, boshqasi chakachak ori. Semizi menga ko'z qirida qarab qo'yib, sherigidan so'radi:

Anavi so'ljayib turgan narsa nima?

Dunyoda qalang'i-qasang'ilardan ko'pi yo'q, dedi orig'i. Bu yashshamaguram birorta o'rimalovchidir-da.

Semizi: "So'rab ko'r-chi, nimaga so'ppayib turibdiykin?" deya dimog'dorlanib suzilgan edi, orig'i menga ko'zini o'ynatib: "Ho', og'zi bor! Nega biz tomonlarda ivirsib yuribsan?" deb shang'illadi.

Bu gaplar menga judayam alam qildi. O'zing tug'ilib o'sgan joyda bo'yin qisib yurishga majbur bo'lsang-u, buning ustiga, kelgindilar seni goh mazaxlashsa, goh "qayoqdan kepqolding" deb do'q urishsa, yurak-yuraging to'kilib ketmaydimi?

Ho'ngrab yig'laganimcha, uyga kirib keldim. Xuni-biyronligimning sababini eshitib, buvim menga taskin bera boshladi:

Xafa bo'lma, do'mboqcham, tirikchilimiz bir nav o'tib turibdi-ku, shunisigayam shukur qilaylik.

Yo'q, buvijon, chidash qiyin, dedim men. Tunov kuni bittasi yo'limni to'sib, "Bizga o'xshab chirillashni qachon o'rganasan?" deb dag'dag'a qiluvdi, endi boshqalari meni "qalang'i-qasang'i"ga chiqarishdi...

Buvim birpas xomush turib qoldi. Keyin chuqur uf tortib, mungli tovushda dedi:

Chirillog ochofatlarning urug'i ko'p, do'mboqcham. Ular bilan ortiqcha o'chakishma. Zo'ravonlargayam bir balolik kun bordir.

O'shanday kun qachon kelarkin, bilmadim. Balki, qish qattiqroq kechib, Chigirtkalarining tuxumi yoppa muzlab qolar. Qo'shnimiz buvinga shunaqa deytoganday bo'luvdi.

...Buncha esnaysan, bolakay, uyqi bosyaptimi deyman? Bunaqada qulog'ingga gap kirarmidi? Mayli, keyinroq dardlasharmiz.

Hozir men tebranib turib, baxtiyorlik haqida alla aytaman, sen bir to'yib uxlab olgin bo'lmasa.

Chumolining hikoyasi

Ishkom ostida timirskilanib yurib, daroyi uzumning urug'ini topib oldim. Qurib ketgur zil-zambil ekan, itarib ham, tortib ham joyidan siljitib bo'lmadi. Tavakkal qilib yelkalab olsammikin, deb turganimda, oldimdan "vish-sh" yetib bir badbashara maxluq chiqib qolsa bo'ladimi!

Enam kechagina yovuz ajdarho haqida ertak aytib bergan edilar. O'sha qonxo'r og'zini katta ochganicha oldimdan chiqib turibdi-yu hozir. U bilan solishay desam, ertakda ajdarhoni o'ldirgan Qilichbotir, afsuski, men emasman. Qo'limda siltansa qirq gaz cho'ziladigan qilichim ham yo'q.

Darrov es-hushimni yig'ib oldim-u, muloyimlik bilan unga ta'zim qildim.

Assalomu alaykum, janob Ajdarho! dedim.

Ajdarho avvaliga nechundir o'ng'aysizlanib, uyoq-buyoqqa qarab qo'ydi. Keyin birdan ko'krak kerib: "Gar saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir yutardim", deya menga ko'z olaytirdi. Men egilib, qaytadan ta'zim qildim.

Bir vaqt, boshimni ko'tarib qarasam, zumgina oldin qarshimda gerdayib turgan ajdarho yo'q. U janobning yerda yotgan barg ostiga shosha-pisha kirib ketayotganini arang payqab qoldim. Gap nimada ekanligini anglab ulguranim yo'q ediki, osmondan bir pahlavon uchib tushib, gursillaganicha yerga qo'ndi. Uning shabadasidan uch-to'rt yumalanib, yana oyoqqa turdim.

Pahlavon to'satdan patlarini hurpaytirib: "Ko'kqurt qani?" deb so'radi mendan.

Endigina so'zga og'iz juftlaganimda, bexos shamol ufurib, boyagi barg pildirab uchdi-yu, Ko'kqurt ismli ajdarho yalangda qoldi.

Pahlavon shu zahotiyog hamlaga hozirlanganini ko'rib, uning Qilichbotir ekanligini fahmladim. Enamning ertakda so'yilganlari rost bo'lsa, ular endi qirq kecha-yu qirq kunduz jang qilishadi deya bezillab turgan edim, Qilichbotir bir kalla solishdayoq ajdarhoni sulaytirib qo'ydi.

Qoyil, Qilichbotir! deb qichqirdim men, zavqlanib ketib.

Og'zingga qarab gapir! kutilmaganda meni jerkib berdi pahlavon. Meni nega boshqalar bilan adashtiryapsan, tirrancha? Akkang qarag'ay yetti iqlimga dong'i ketgan mashhur Chumchuq polvon bo'laman-a!

U shunday deya, janob ajdarhoni tishlab olganicha, yana osmoni falakka ko'tarildi.

Shu topda enamning yoniga shoshilyapman. Men unga ertak emas, Chumchuq polvon haqida o'z ko'zim bilan ko'rganlarimni aytib bersam, sezib turibmanki, og'zi lang ochilib qoladi.

...Xo'p, xayr, birodar. Sen ham bu g'aroyib hikoyani o'rtoqlaringga so'zlab berib, ularni yoppasiga angraytirib qo'ysang-chi.

Mushukchanning hikoyasi

Odamlar "Mushuk ham tekinga oftobga chiqmaydi", degan maqol to'qishganmish. Bu bekorchi gap bo'lsa kerak deb o'ylayman.

Masalan, shaxsan men har kuni tomga chiqvolib, oftobda isinaman, lekin buning evaziga hech kimdan hech qanaqa haq talab qilgan emasman.

Tomda yotib, ba'zan uzoq-uzoqlarga termilib qolaman. Yer yuzi poyonsiz deyishadi. Bu gapga ishonish uchun dunyoga tomdan turib qarash kerak ekan. Men atrofini yaxshilab ko'zdan kechirib chiqqanimdan keyin, yer yuzi mana shu tomga qaraganda kamida o'n besh marta katta bo'lsa kerak, deb o'ylab qo'ydim. O'n besh marta-ya!

Tomda yotishning tag'in bir foydali tomoni shundaki, bu yerdan hovlining hammayog'i kaftdek ko'rinib turadi. Kecha mo'rining yonida yotib, tandir ostidagi kavakdan allanimaning pildiraganicha chiqib kelayotganini payqab qoldim. Mundoq qarasam, kap-katta bir Sichqon uyalmay-netmay kalish chaynab o'tiribdi. Achchig'im qo'ziganidan, dumim xoda bo'lib, junlarim hurpayib ketdi.

Miy-yov!

Vag'illagan kuyi o'zimni tomdan tashladim. Haligi kalishxo'r nonushtani to'xtatib, juftakni rostlab qoldi. Unga yetib olib, endigina tappa bosaman deb turganimda, oldimdan yer yutgur Qoplun chiqib qolsa bo'ladimi. U vopira-vop qilib menga tashlangan edi, o'zim sichqonga aylandim-qoldim.

Qochib borayotib qarasam, tandirning yonida cheti siniq sopol tog'ora to'ntarilig' turibdi. O'qdek uchib borib, o'zimni o'shaning tagiga urdim. Qoplun tirqishdan tumshug'ini suqib, rosa irilladi. Bundan foyda chiqmagach, orqa oyoqlari bilan tog'oraning ustiga tuproq changita boshladi. Itliging qo'zimay o'lgur-ey!

Qoplun qaytib ketganidan so'ng olam birdan jimjit bo'ldi-qoldi. Shunda tog'ora ostida birovning "pish-pish" nafas olayotgani qulog'imga chalindi. Mundoq yonga o'grilsam, bir chekkada hansiraganicha boyagi Sichqonboy turibdi. Mendan qo'rqibmi, itdan qo'rqibmi, uyam to'g'ri shuyoqqa qarab qochgan ekan. Donishmand bobom: "Nodon qarshingda turgan bo'lsa, sen aql bilan ish

32 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Uzsmart.UZ Kitoblar olami

ko'r", der edilar. Tezda shu o'gitga amal qildim. Go'shtidan kalish hidi anqib turganini hisobga olmaganda, yog'liqqina Sichqon ekan, maza qilib yedim.

Voy, esi past Sichqon-ey, boshqa joy qurib ketgandek, kelib-kelib, tog'oraning tagiga berkinganini qarang. Kallavaram-da. Bilmaydiki, yer yuzi mana shu siniq tog'oraga qaraganda, kamida ming marta katta. Hatto, bir yarim ming marta katta bo'lishiyam mumkin!

...Og'ayni, sen ham yer yuzini o'zingcha hech chamalab ko'rganmisan?

Qurbaqaning hikoyasi

Qur-r, vaq! Meni tanidingizmi? Ha, men o'sha boshi yapaloq, ko'zi shapaloq Qurbaqaman. Laqabim Vaqvaqato'ra! Ko'rib turibsiz, vaqtim choq. Bo'lmasam-chi! Hozirgina ikkita bo'rdoqi pashshani tutvolib, shappa-shuppa yamlab qo'ydim. Endi hovuzga kalla tashlab, bir cho'milsammikin deb turibman. Men sizga aytsam, qorin to'yganidan keyin chalqanchasiga suzib yurishning ham o'ziga yarasha gashti bor. Qancha ko'p suzsang, shuncha lanj bo'lasan. Ana undan keyin, baqato'nga o'ranvolib, miriqib uxlash mumkin.

Biroq, shunisi yomonki, uyqudan uyg'ongan chog'ingda qorning qaytadan ochqab qolgan bo'ladi. Shunda, tarvayib bir kerishasan-u, ko'zing jovdirab, yana ovqat axtarishga tushasan.

O'tgan kuni uyqusirab turib, bir sayoq Chumakarini yutib yuboribman. Itpashshaga o'xshatibman-da. Bir vaqt ichak-ichaklarimga igna sanchishni boshladi. Qurillab dodlaganimcha, satta paqir bo'yi sakrab, o'zimni yerga uraman deng. Ari chaqishini qo'ymaydi, men qurillashimni. Yo'q, xayriyat, oxiri oshqozonimgayam bitta igna sanchdi-yu, shundayicha butunlay hazm bo'pketdi.

Baloyi azimdan qutilib olganimdan so'ng, mundoq qaragam, sayroqi qushlarni qafasda boqib yuradigan sariqsoch bola menga suqlanib tikilib turibdi. Boya tinmay qurillayotganimda, chamasi, shirali ovozim unga yoqib ketgan bo'lsa kerak. Qilig'ing qur-r-g'ur bolakay sayroqi qushlarga qo'shib, meniyan bironta qafasga solib qo'ymasin, dedim-u, hovuzga qarab ura qochdim. Men sizga aytsam, qafasda yotib tayyor ovqat yegandan ko'ra, erkin yurib, och qoringa ari yutgan ming marta afzal.

...Bu hikoyani aytishdan maqsadim, o'rtoqchilik hurmati seni ogohlantirib qo'ymoqchiman, toybola. Maslahatim shuki, uyqusirab turib ovqat yeyishga odatlana ko'rmagin, buning oqibati judayam yomon bo'larkan.

Jo'janing hikoyasi

Mana, eson-omon tuxumdan chiqib oldim. O'ziyam, tor joyda qisilib, qorong'ida o'lgudek zerikib ketuvdim.

Mendan keyin ukalarim ham tuxumlarini birin-ketin pachoqlashga tushdilar. Yorug'likka chiqishgach, anchagacha ko'zlarini ocholmay turishdi. Shumshayib o'tirishlarini ko'rib, kulging qistaydi.

Hozircha oltitamiz. Men-u, yana bittamiz o'g'il, qolgan to'rttasi qiz. Yettinchi tuxum haliyam singani yo'q. Ayam bechora bundan xavotirda. Dam tuxumni bosib yotadi, dam unga asta quloq solib ko'radi jimjit. Qachongacha yotar ekansan, deb qo'yaman o'zimcha. Qayoqqa borardi, baribir chiqadi. Keyin, dadamdan bir kaltak yeyishi bor bu yalqovning.

Ha, aytganday, judayam zo'r dadam bor-da. Boshida qip-qizil toj, bitta-bitta qadam tashlab yurishini ko'rsang, havasing keladi.

Ko'p gapirmaydi, faqat ba'zan ko'kragini kerib turib, ma'nodor qichqirib qo'yadi: "Chi-chi-chiy chiy-y-y!"

Yo'q, o'xshatolmadim. Tilim kelishmayapti.

Ayamning aytishiga qaraganda, shu yaqin-atrofdagi xo'rozlar dadamni ko'rди deguncha, chumchuqlardek tiraqaylab ketisharkan. Lekin, ochig'ini tan olsam, Chumchuq nimaligini o'zim ham unchalik tushunolmay turibman. Uni qo'ying, buni qo'ying, payti kelib, men ham dadamdek polvon bo'pketsam-a!

E, xayriyat, ana, yettinchi tuxum ham yorildi. Ie-ie! Bunisi kim bo'ldi endi? Na menga o'xshaydi, na ukalarimga. Tumshug'i yap-yapaloq, oyog'iyam boshqacha panjalarining orasida pardasi bor. Voy, tavbangda ketayin-ey!

Bu o'rdak-ku! deya birdan shovqin soldi ayam. Menga o'rdakning tuxumini bostirishibdi. Muttahamlar!

Dadam kenjatoyga hafsalasiz kayfiyatda qarab qo'ydi-yu, indamay yuzini o'girdi. Kenjatoy bo'lsa, ye yo'q, be yo'q, chopganicha borib, o'zini suv to'la jomchaga otdi. Bir-ikki sho'ng'ib olgach, gerdayganicha suzishga kirishdi.

Oxiri aytganim keldi betasir kichkintoy dadamning bitta tarsakisini yedi-yu, jomchadan chetga uchib tushdi.

Boshqalardan kattaroq bo'lganim uchun, ularni tergap turishga haqqim bor. Shuni hisobga olib, tarsakidan zada yemay, yana jomchaga tirmashayotgan kenjatoyga qarab o'shqirdim:

Vey, o'rdak! Qoch jomchani oldidan!

Go'yo gapimga tushunmayotgandek, bezrayib turishini qarang. Yapaloq tumshug'ingdan o'rgildim seni! O'rdak bo'lsang, o'zingga!

... Oshna, uqtiribroq ayt-chi, O'rdak degani nima o'zi?

Xo'tikning hikoyasi

Ko'p narsaga qiziqaman. Shu tufayli kechalari uxlamasdan o'ylanib yotaman. Hozircha kalam balodek ishlab turibdi, farosatim joyida. Men bilan u-bu narsalar to'g'risida bir-ikki og'iz gaplashsangiz, ishonchim komilki, zehnim o'tkirligini sezib, hang-hang... yo'q, hang-mang bo'pqolasiz.

Siz, masalan, nima uchun chaqmoq chaqib, keyin momaguldirak bo'lishini bilasizmi? Qo'ying, xijolat tortmang, buni o'zim tushuntirib qo'ya qolay.

Xullas, bulutlar suzib boraveradi, suzib boraveradi, suzib boraveradi, oxiri birdamas-birda tog'ning cho'qqisi bilan to'qnashadi.

Agar ikkita chag'ir toshni bir-biriga urib ko'rgan bo'lsangiz bilasiz, bunday paytda "chars-churs" o't chaqnaydi. Ana sizga chaqmoq! Bulut cho'qqiga urilganidan keyin, o'z-o'zidan ma'lumki, hammayoq larzaga keladi. Qarabsizki, qanordek-qanordek toshlar guldiraganicha pastga qarab yumalay boshlaydi. Ana sizga momaguldirak!

Ha, bu ancha chigal masala. Hammaning ham tezda fahmi yetavermaydi. Keling, sizga boshqa osonroq savol berayin. Qani, ayting-chi, nima uchun aravaning g'ildiragi yumalog'-u, derazaning ko'zi to'rtburchak? Eha-a-a, shuniyam bilmayman deng? Mayli, bunisiniyam o'zimiz uqtirib qo'yaylik bo'lmasa.

Xo'-o'-sh... Umringizda biror marta yumaloq oynakni ko'rganmisiz? Bilaman, ko'rmagansiz...

Bunaqasini hech kim ko'rmagan. Chunki, odatda, oynaklar korxonadan to'rtburchak qilib chiqariladi. Shunday bo'lgandan keyin, derazaning ko'zini ham o'sha oynakka moslashtirib, to'rtburchak shaklda yasashga to'g'ri keladi. Aravaning g'ildiragiga esa oynak solinmaydi, shuning uchun u yumaloq. Mana, gap qaerda!

... Ho', bolakay, menga qarab nega xo'shshayi-i-b qolding? Biron-bir jumboqqa aqling yetmay turibdimi deyman-da. Savoling

bo'lsa, tortinmay so'rayver, men hamma narsani bilaman.

Qovog'arining hikoyasi

Bir uchishda bug'doyzorning ustidan to'xtamay o'tib ketishni niyat qilgan edim, bo'lmadi. Yarim yo'lda motorim qizishni boshladi-yu, birdan tezligim kamayib, noiloj pastga sho'ng'idim. Dirillaganimcha borib urilganimda, bug'doy poyasi kamalakdek egilib, men tirmashib turgan boshoq yerga tegdi, so'ng, hayinchakda uchgandek, yana balandga ko'tarildim. Qarang-a, buyoqda tap-tayyor o'yin bor ekan-u, bilmasdan yurganakanman. Endi bekorchilikda mana shunaqa "halov tuya" o'yinab tursam bo'larkan.

Hozir vaqtim ziq. Ho' pichanzorda Ninachi bilan uchrashishim kerak. Uning ota-onasi meni mehmonga chaqirishibdi. Qani, borib, ninachilarning ovqatidan ham bir tatib ko'raylik-chi.

Ninachi bilan juda g'alati vaziyatda tanishib qoldim. Ilgari kuni pichanzordagi kurmaklardan biriga qo'nib dam olib tursam, sochiga ko'k latta bog'lagan bir qizaloq yonimdan oyoq uchida ehtiyotkorona odimlab o'tib qoldi. Orqaroqda kelayotgan bolakay esa: "Vertolyot kichkina ekan, avaylab ushlagin", deb pichirladi unga.

Vertolyoti nima ekan, deb mundoq qarasam, nariroqdagi qiyoqning uchida chiroyli bir Ninachi qo'nib turibdi. Qizaloq barmoqlarini ombir qilvolib, uning ortidan asta pisib boryapti. Men qanotlarimni zirillatganimcha Ninachi tarafga otildim-u, dumiga bir kalla solib o'tib ketdim. Ikkalamiz birin-ketin havoga ko'tarildik.

Namuncha anqayasan, oshna? Ninachiga qichqirdim, uchib borayotib. Anavi pismiqlar seni ushlagani poylab kelishayotuvdi!

Shunda, boyagi bolakay pastdan turib: "Hap senimi, bombardimonchi!" deya menga musht o'qtaldi. "Bombardimonchi" nimaligini aniq bilmayman-u, taxminan aytganda, bu chaqimchilarga qo'yilgan yangicha laqab bo'lsa kerak. Topdimmi?

Gapning qisqasi, o'shandan beri Ninachi bilan inoqlashib ketdik. Mana, bugun mehmondorchilik.

...Xohlasang, seniyan birga olib borishim mumkin, og'ayni chalish. Lekin, boradigan bo'lsang, avval motoringni yaxshilab sovutib ol.

Suvarakning hikoyasi

Mish-mishlarga qaraganda, bir zamonlar bu yerda durustgina qo'rg'on bo'lgan ekan. Nurab-nurab, oxiri undan mana shu bir parchagina devor qolibdi. Bu devor shunaqayam serkovakki, pastdan turib qarasang, ko'p qavatli binoga o'xshab ko'rinadi. Ana shu binodagi xonalardan bittasida men yashayman.

To'g'risini aytсам, qo'shnilarim ichida istarasi issiqrog'i o'zimman. Masalan, o'ng tarafimdagi xonada Buzoqbooshi, chap tomonimda Kaltakesak turadi. Ikkovi ham bir-biridan badbashara. Tagimdagi xonada yashaydigan Qirqoyoqqa kelsak, u yanayam tasqararoq. Ba'zan unga qarab turib, oyog'ing saksonta bo'lgandayam, bari bir menchalik poyga chopolmaysan, deb o'ylab qo'yaman.

Qo'shnilarim orasida eng turqi sovug'i, bu - Chayon. Siz faqat uning turqini ko'rgansiz, lekin hali gaplashmagan bo'lsangiz kerak. Uning gapi sumbatidan ham sovuq.

Bundan uch-to'rt kun oldin o'sha Chayon shunaqayam ta'bimni tirriq qildiki...

O'sha kuni odatdagidek novvoyxonaga borib, maza qilib uvoq yedim. Ko'zim to'yib, nafsım qonib, qorinni chirmanda qilganimcha uyga qaytib kelayotsam, yo'lda birdan yomg'ir shivalab qoldi. Yugurib borib ariqcha bo'yidagi zahar zamburug'ning tagiga kirib oldim. Bir mahal qayoqdanam Chayon paydo bo'ldi-yu, halloslaganicha kelib, u ham zamburug'ning ostiga suquldi. Orqa oyog'imni bosganicha taqqa to'xtadi. Boldirlarim qirsillab ketgan bo'lishiga qaramay, tishni-tishga qo'yib sekingina ming'illadim:

- Ho', aka, oyog'ingizning tagidan chiqib ketsak maylimi?- dedim.

Shunda u cho'chib yoniga o'girildi-yu, meni ko'rib, birdan dumini gajak qildi.

- Mog'or kiyimda nega menga suykalsan, vey? Yo'qol bu yerdan!- deya o'shqira ketdi u. Keyin o'xshatib turib ketimga bitta tepsa bo'ladimi! U kaltafahm bilan adi-badi aytishib o'tirmadim. O'zimni zo'rg'a bosib, sekin uyga qaytdim. Uyga yetib kelguncha shalabbo bo'lib ketgan ekanman, tuni bilan isitmalab chiqibman deng.

Ha, bu Chayon deganlari shunaqa maraz maxluq, u bilan qo'shnichilikpn allaqachon yig'ishtirib qo'rganman.

...Mana, tanishib ham oldik. Biz taraflarga yana kelib qolsang, tortinmay to'g'ri uyimga kirib boraver. Adresimni yozvol: Buzuq qo'rg'on, eski devor, chapdan o'n ikkinchi kavak. Yozib bo'ldingmi? Qani, ko'ray-chi... Mana shunaqa-da, men o'n ikkinchi kavak desam, sen o'n yettinchini yozibsang! O'chir! O'chir darrov! Bilasanmi, o'n yettinchi xonada kim turadi? U yerda o'sha la'nati Chayon yashaydi-ya!

Toshbaqaning hikoyasi

Dushanba og'ir kun deganlari to'g'ri ekan. Bugun havo shunaqayam isib bsrdiki, nafas olsang, xuddi cho'g' yutayotgandek bo'lasan. Hali hech qancha yo'l yurganim yo'g'-u, sillam qurib, tomog'im qaqrab ketdi.

Odamlarning bolalariga maza-da, ular bunaqa paytda salqin joyni topvolishib, muzdek limonad ichi-i-ib o'tirishadi, yo bo'lmasa burunlarini tortib-tortib muzqaymoq yalashadi. Xullas, toshbaqa bo'lib ming yil sudralgandan ko'ra, odam bo'lib yuz yilgina yashagan ma'qul ekan.

Bilib turibman, "shunchalik holing bor ekan, safarga chiqishni senga kim qo'yibdi", deb o'ylayapsiz.

Ho', mirzateraklarni ko'ryapsizmi? O'sha tomonda bitta xolam bor. Xolamning kenja chevarasi qadrdon oshnam. Kelasi dushanbada o'sha kichkintoy o'rtog'im bir yuz o'n yoshga to'ladi. Uni tabriklagani ketyapman.

Nega menga bunaqa qaraysiz? Bir hafta oldin yo'lga chiqqanimdan hayron bo'lyapsiz shekilli? Nima, men ayg'irmidimki, oyog'imga taqa qo'qvolib, tosh yo'ldan shaqir-shuqur chopib ketsam. Orqamdan it quvlasa ham bo'lgan-bitganim shu.

Ana xolos, gap bilan bo'lib, qumloqqa chiqib qolibman-ku. Hammadan ham anavi do'nglikka to'g'ri kelib qolganimni ko'rmaysizmi. Ish rasvo bo'ldi-da. Bunaqa do'nglardan ko'p pand yeganman, o'lib-tirishib tepaga chiqdim deganingda bir sirg'anasan-u, o'zingni yana pastda ko'rasan.

...Umringda birovga yaxshilik qilganmisan, oshna? Malol kelmasa, meni do'ppingga solib, ana shu do'ngdan o'tkazib qo'ygin. Nima bo'lsayam, yaxshi niyat bilan yo'lga chiqqanman, ziyofatdan quruq qolmayin tag'in.

Uloqning hikoyasi

Ota-onamdayam, o'zimdayam soqol bor. Bir qarashda uchalamiz bir xilga o'xshaymiz. Lekin judayam unaqa emas. Masalan, dadamning bo'yniga qo'ng'iroq osib qo'yilgan, ayamning bug'ularnikidan ham chiroyliroq burama shoxi bor, mening esa chap

This is not registered version of TotalDocConverter

ko'zim shu yoz ichi tuzalib ketishi kerak.

Yaylovda Maymun degan yaramas maxluq paydo bo'lmasdan ilgari ikkala ko'zim ham soppa-sog' edi. Ozigina ehtiyotsizlik qilib, boshimga shu ko'rgilikni orttirib oldim.

O'shanda erta bahor edi. Har galgidek bizni saharlab o'tloqqa haydashdi. Dadamning ortidan saf tortib, qo'ng'iroq ovozigga quloq solganimizcha buloq bo'yidagi tog'olcha ostidan o'tib borayotgan paytimizda "zuv-v" etgan tovush eshilib qoldi. Kattakon archa bujuri toshdek uchib kelib, tarsillaganicha dadamning qoq kallasiga tegsa bo'ladimi. Dadam bechora bir shataloq otdi-yu, ovozinig boricha ma'rab yubordi.

Bundoq qaragam, archaning baland shoxida bir tasqara maxluq tirjayib o'tiribdi. Ko'zlari bejo. Men "anavi shaytonni qaranglar", deb qichqirgan edim, kekxa Serka "be-e, bu Maymun-ku", deya burnini jiyirib qo'ydi.

Dadamning alamini olish uchun qo'y-qo'zilarni ikki tomonga surib bir oz orqaga tisarildim-da, tapira-tupur qilganimcha borib, jon-jahdim bilan archaga kalla soldim. Maymun shoxdan uzilgan olmadek tap etib oldimga tushsa kerak, deb o'ylovdim. Yiqilmadi.

Hayron bo'lib tepaga qaraganimni bilaman, u afting qurg'ur shuni poylab turgan ekanmi, qo'lidagi archa bujuri bilan o'xshatib soppoldi-yu. Chap ko'zimdan o't chaqnaq ketgandek bo'ldi. Bexush yiqilib qolibman deng.

Keyin surishtirsam, o'sha Maymun hayvonot bog'idan qochib kelgan ekan, odamlar uni ertasiyoyoq ushlab ketishibdi.

Chakki bo'libdi-da. Shu yerda yurganda, u tasqara bilan yakkama-yakka solishib ko'rardim. O'ziniyam bundan keyin qo'liga archa bujuri ushlaymaydigan qilib tashlardim-da.

...Sen ancha madaniyatli bolaga o'xshaysan. Hayvonot bog'iga ham borib tursap kerak? Yana borib qolsang, o'sha Maymuiga aytib qo'y, agar qo'linga tushsa, naq jig'ini ezib qo'yaman. Keyin, o'zing ham chap ko'zingga ehtiyot bo'l, xo'pmi?

Suvalamushning hikoyasi

Cho'rtanbaliqlarni yaxshi bilaman, birovni nazar-pisand qilishmaydi. Tarvaqaylagan mo'ylovlaridan quvonishadi shekilli. Ularda bor mo'ylov bizarday bor, lekin shu paytgacha gerdaygan emasmiz.

Men, hatto, o'zimdan kichik Tangabaliqlarni ham hurmat qilaman. Mabodo qornim ochib qolsa, ulardan birortasini yaxshilikcha tutib olaman-da, hech bir qo'pollik qilmay silab-siyab turib, pok-pokiza yeb qo'yaman. Mana bu boshqa gap. Birovga nohaq ozor berishning nima keragi bor? Zo'ravonlik qilib, hali hech kim baraka topmagan.

Masalan, Cho'rtan uchiga chiqqan zo'ravon edi. Yomonning bir qilig'i ortiq deganlaridek, mening g'ashimga tegmasdan turolmasdi. Tashqarida uchrashib qolsak, ko'rmaganga olib turib, dumi bilan biqinimga bir turtib o'tardi. Ichkarida yotsam, inimning og'ziga kelib, suvni ataylab loyqalata boshlardi. Bir narsa deyay desam, g'avadasi menga ikkita keladi.

Oxiri jonimdan o'tib ketdi. Kecha, "ke, nima bo'lsa bo'lar" dedim-u, baqato'nning tagiga kirib olib, uning yo'lini poylay boshladim. Bir vaqt lallayganicha suzib kepqoldi. Tepamdan o'tayotgan paytda bir sapchib bo'g'zidan kirt tishlab oldim. Jon shirin-da, bir zum tipirchilab turdi, keyin sulaydi-qoldi. Atrofga olazarak qarab qo'yib, uni sekingina inimga sudrab kirdim. O'ziyam rosa yetilgan ekan, kechadan beri yeb tugatolmayman.

Ertalab quyuq nonushtadan keyin tashqariga chiqib kerishib tursam, yonimdan yalpayganicha Zog'arabaliq o'tib qoldi. U oldimda to'xtalib: "Qo'shning Cho'rtanbek ko'rinmaydimi?" deya shamador bir gap aytdi. Men chaynalib o'tirmay "sayru sayohatda yurgandir-da", deb qo'ya qoldim. Shunaqa ezmalarni jinim suymaydi. O'zing sog'omon qiltinglab yurganingga shukur qilsang-chi, boshqalar bilan ishing nima?

Umuman, Zog'orabaliq bilan gapni kalta qilganim yaxshi bo'ldi. Dadam rahmatli "ko'p yeginu, kamroq gapirgin", derdilar.

Haqiqatanam, yuz og'iz gap gapirgandan ko'ra, bitta baqa tutib yegan yaxshiroq.

...Mana, hamma gapni o'z qulog'ing bilan eshitding. Xo'sh, og'ayni, mening xulq-atvorim haqida nimalar deya olasan?

Echkiemarning hikoyasi

Timsohnig jiyaniman. Bir davrlar tog'am bilai birga daryoda yashardik. Qurg'oqchilik yillari tuyqus suv kamayib ketdi-yu, ikkalamiz tor joyda juda qisilib qoldik. Buning ustiga tog'am oriyatimga tegadigan bir-ikkita gap aytib, g'ashimni keltirib qo'ydi. Shundan keyin "hayyo-huyt" deb, cho'lu biyobonga bosh olib ketvordim.

Dastlabki oylarda jaziramaga chidolmay, tomog'im qurib yurdi, keyin bora-bora ko'nikib qoldim. Sahro - daryo emas, bu yerda yashaydigan maxluqlar sanoqli.

Agar epchilroq bo'lmasang, ochingdan o'lib ketasan. Shu tufayli qo'ng'izdan tortib, kalamushgacha bir boshdan tutib yeyaverdim. Gap o'rtamizda qolsin-u, bir kukn payt poylab turib, bitta kasalmand Chiyabo'rini ham gumdon qildim. Xayriyatki, uning bezori oshnalari buni payqamay qolishdi.

Qishloq tarafga borishni o'rganib olganimdan keyin, yangi bir hunar orttirdim. Echki degan yuvoshgiia jonivor bo'larkan, emsang indamay turaveradi... Suti biram shirin, biram mazaliki, to'yib emib olsang, ikki kun ovqatlanmay yuraverasan.

Lekin, bu xursandchiligim ham uzoqqa cho'zilmadi. Odamlar echkini emib turganimni ko'rib qolishib, meni shunaqayam tiraqaylatib quvishdiki, boshim omon qolganiga hali-hali shukur qilaman.

Timsoh degan dabdabali nomim ana o'shandan keyin rasvo bo'ldi. Odamlar menga echkiemar degan laqab tirkashdi. Nafsi buzuqlikning oqibati yomon bo'larkan, mana, oxiri sharmandali laqab orttirib oldim. ...Jon oshna, shu odamlar bilan bir gaplashib ko'rmaysanmi? Agar ular meni qaytadan timsoh deb atashga rozi bo'lishsa, men ham bundan keyin o'shalarning echkisini emmaganim bo'lsin. Bunga ko'nishmasa, o'zlaridan ko'rishsin.

1978в Ё”1983 yillar